

**M.A.KADIROV**

# **AHOLI GEOGRAFIYASI DEMOGRAFIYA ASOSLARI BILAN**

(darslik)

**SAMARQAND-2017**

Darslikda aholi geografiyasi fanining mazmuni va vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi, fanning rivojlanish tarixi, dunyo aholisi soni dinamikasi va joylashuvi, aholining tabiiy va mexanik harakati, aholining yosh va jinsiy, milliy,

diniy hamda irqiy tarkibi, mehnat resurslari va ulardan foydalanish, aholining hududiy taqsimlanishi va zichligi, aholi punktlari va ularning tiplari, urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyasi, qishloq aholisi va qishloqlar geografiyasi, aholining global muammolari haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Darslik universitet va institut professor-o'qituvchilari hamda doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilar, talabalar va magistr'larga mo'ljallangan.

В учебнике изучены сели и задачи географии населения с основной демографии, связи предмета с другими науками, историческое развитие предмета, динамика численности и расселения населения, естественное и механическое движение населения, половозрастной, национальный, религиозный и расовый состав населения, трудовые ресурсы и их использование, территориальное распределение и плотность населения, населенные пункты и типы, процессы урбанизации и географии городов, селское население и география селских поселений, глобальные проблемы населения. Учебник предназначен для профессорско - преподавательского состава университетов и институтов, докторантов, соискателей, магистров и студентов.

The textbook examines the goals and objectives of the geography of the population from the main demography, the connection of the subject with other sciences, the historical development of the subject, the dynamics of population number and population distribution, the natural and mechanical movement of the population, the age, sex, national, religious and racial composition of the population, labor resources and their use, territorial distribution and population density, human settlements and types, urbanization and geography of cities, rural population and geography of rural settlements, global problems of us Lenia. The textbook is intended for the teaching staff of universities and institutes, doctoral students, applicants, masters and students.

## Mundarija

Kirish .....	6
<b>I BOB. AHOI GEOGRAFIYASI DEMOGRAFIYA ASOSLARI BILAN FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI .....</b>	<b>9</b>
1.1. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tadqiqot usullari.....	9

1.2. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining rivojlanish tarixi.....	15
---	----

**II BOB. AHOLI SONINING O‘SISHI VA AHOLI RO‘YXATLARI**

.....	<b>21</b>
2.1. Aholini hisobga olish va aholi ro‘yxati .....	21
2.2. Aholi soni dinamikasi .....	24
2.3. Aholining tabiiy harakati .....	31
2.4. Aholining mexanik harakati .....	60
2.5. Aholining hududiy taqsimlanishi va zichligi.....	69

**III BOB. AHOLINING TARKIBI VA MEHNAT RESURSLARI.....**

.....	<b>79</b>
3.1. Aholining yosh-jinsiy tarkibi.....	79
3.2. Aholining milliy tarkibi .....	85
3.3. Aholining diniy tarkibi .....	101
3.4. Aholining irqiy tarkibi .....	115
3.5. Xalqlar klassifikatsiyasi va geografiyasi.....	122
3.6. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish .....	132

**IV BOB. AHOLI JOYLASHUVINING GEOGRAFIK FORMALARI VA MUAMMOLARI.....**

.....	<b>143</b>
4.1. Aholi punktlari va ularning tiplari.....	143
4.2. Urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyasi.....	148
4.3. Qishloq aholisi va qishloqlar geografiyasi .....	160
4.4. Aholining global muammolari .....	165

**V BOB. O‘ZBEKISTON AHOLI GEOGRAFIYASI.....**

.....	<b>182</b>
5.1. Aholi soni dinamikasi va joylashuvi .....	182
5.2. Aholining tabiiy va mexanik o‘shishi .....	188
5.3. Aholining milliy, yosh-jinsiy tarkibi va mehnat resurslari .....	193

Foydalanilgan adabiyotlar .....	204
ILOVALAR.....	208

**Soderjanie**

Vvedeniya.....	<b>6</b>
<b>GLAVA I. PREDMET I ZADACHI PREDMETA GEOGRAFII NASELENIYA S OSNOVOY DEMOGRAFII.....</b>	<b>9</b>

1.1. Ob'ekt, predmet, sel, zadachi i metody issledovaniya predmeta geografii naseleniya s osnovoy demografii.....	9
1.2. Istoricheskoe razvitie predmeta geografii naseleniya s osnovoy demografii.....	15

<b>GLAVA II. ROST CHISLENNOSTI NASELENIYA I PEREPISI NASELENIYA.....</b>	<b>21</b>
2.1. Uchyot naseleniya i perepisi naseleniya.....	21
2.2. Dinamika chislennosti naseleniya.....	24
2.3. Estestvennoe dvijeniya naseleniya.....	31
2.4. Mexanicheskoe dvijeniya naseleniya.....	60
2.5. Territorialnoe raspredelenie i plotnost naseleniya.....	69

<b>GLAVA III. SOSTAV NASELENIYA I TRUDOVЫE RESURSY.....</b>	<b>79</b>
3.1. Polovozrastnoy sostav naseleniya.....	79
3.2. Natsionalnyy sostav naseleniya.....	85
3.3. Religioznyy sostav naseleniya.....	101
3.4. Rasovyy sostav naseleniya.....	115
3.5. Klassifikatsiya i geografiya narodov.....	122
3.6. Trudovyye resursy i ix ispolzovanie.....	132

<b>GLAVA IV. GEOGRAFICHESKIE FORMЫ I PROBLEMY RASSELENIYA NASELENIYA.....</b>	<b>143</b>
4.1. Naselennyye punkty i ix tipy.....	143
4.2. Protsessy urbanizatsii i geografiya gorodov.....	148
4.3. Selskoe naselenie i geografiya selskix poseleniy.....	160
4.4. Globalnyye problemy naseleniya.....	165

<b>GLAVA V. GEOGRAFIYA NASELENIYA UZBEKISTANA.....</b>	<b>182</b>
5.1. Dinamika chislennosti i rasseleniya naseleniya.....	182
5.2. Estestvennyy i mexanicheskyy rost naseleniya.....	188
5.3. Natsionalnyy, polovozrastnoy sostav naseleniya i trudovyye resursy.....	193
<b>Ispolzovannaya literatura.....</b>	<b>204</b>
<b>PRILOJENIE.....</b>	<b>208</b>

## CONTENT

<b>Introductions.....</b>	<b>6</b>
<b>CHAPTER I. THE SUBJECT AND TASKS OF THE</b>	

<b>GEOGRAPHY OF THE POPULATION WITH THE BASIS OF DEMOGRAPHY.....</b>	<b>9</b>
1.1. Object, subject, purpose, tasks and methods of research of the subject of population geography with the basis of demography.....	9
1.2. Historical development of the geography of the population with the basis of demography.....	15
<b>CHAPTER II. POPULATION GROWTH AND POPULATION CENSUS.....</b>	<b>21</b>
2.1. Population and population census.....	21
2.2. Population dynamics.....	24
2.3. Natural movement of the population.....	31
2.4. Mechanical movement of the population.....	60
2.5. Territorial distribution and population density.....	69
<b>CHAPTER III. POPULATION COMPOSITION AND LABOR RESOURCES.....</b>	<b>79</b>
3.1. Sex and age composition of the population.....	79
3.2. The national composition of the population.....	85
3.3. Religious composition of the population.....	101
3.4. The racial makeup of the population.....	115
3.5. Classification and geography of peoples.....	122
3.6. Labor resources and their use.....	132
<b>CHAPTER IV. GEOGRAPHICAL FORMS AND PROBLEMS OF POPULATION RESETTLEMENT.....</b>	<b>143</b>
4.1. Settlements and their types.....	143
4.2. The processes of urbanization and the geography of cities.....	148
4.3. Rural population and geography of rural settlements.....	160
4.4. Global population problems.....	165
<b>CHAPTER V. GEOGRAPHY OF THE POPULATION OF UZBEKISTAN.....</b>	<b>182</b>
5.1. Dynamics of the number and population distribution.....	182
5.2. Natural and mechanical population growth.....	188
5.3. National, sex and age composition of the population and labor resources....	193
<b>APPLICATION.....</b>	<b>204</b>
<b>References.....</b>	<b>208</b>

## **Kirish**

Davlatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoevning “2017-2021 yillarda Ўzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha harakatlar strategiyasi” ning 4-yo‘nalishida aholi va uning ijtimoiy muhofazasi masalalariga katta e‘tibor qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida hududlardagi aholi geografiyasini chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Geografiya - bilganga hamma narsa, bilmaganga hech narsa deb yozgan edi,- Abdusami Soliev. Darhaqiqat, geografiyaning ajoyib va betakror, o‘ziga xos fazilatlari uning tadqiqot ob‘ekti va tahlil qamrovini kengaytirishga olib kelmoqda. An‘anaviy iqtisodiy geografiya iqtisodiy va sotsial geografiyaga aylandi, u esa, o‘z navbatida, yanada mukammalroq ijtimoiy yoki inson, sotsial geografiya maqomini olmoqda. Bu o‘rinda sotsial geografiyaning keng va tor ma‘noga ega ekanligini ta‘kidlamoq joiz. Tor ma‘nodagi sotsial geografiya yoki sotsiogeografiya iqtisodiy va sotsial geografiyaning, umumiy ijtimoiy geografiyaning uzviy bir qismi, keng ma‘noda esa uning o‘zginasidir. Masalaga bunday yondashish, shubhasiz, fanning ichki rivojlanish qonuniyatlariga mos keladi va jahon andozalariga ham muvofiq bo‘ladi (Soliev, 1996).

Aholi geografiyasi fani iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Geograf mutaxassis tayyorlashda aholi geografiyasi fani muhim rol egallaydi. Ma‘lum bir geografik ob‘ektni, ya‘ni, butun dunyo, mamlakat yoki viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy geografik jixatdan o‘rganishda, albatta shu joyning aholisi soni, aholisining yosh-jinsiy, irqiy, diniy tarkiblari, zichligi, urbanizatsiya darajasi, tabiiy va mexanik o‘sishi, mehnat resurslarining salmog‘i hamda bandligi o‘rganiladi.

Aholini har tomonlama o‘rganish hamma vaqt dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Chunki, jamiyatning asosiy ishlab-chiqaruvchi kuchi bu – kishilardir, shu bilan birga ular o‘zi tayyorlagan moddiy ne‘matlarning istemolchisi

ham hisoblanadi. Aholini har xil fanlar o'z nuqtai nazaridan o'rganadi. SHu tomondan ham aholi o'zining yagonaligi bilan ajralib turadi. Aholini demograflar, geograflar, sotsiologlar, faylasuflar, tarixchilar, meditsina xodimlari, psixologlar, pedagoglar, xuquqshunoslar o'rganadilar. SHunga qaramasdan, aholi geografiyasi boshqa fanlarga nisbatan aholini har tomonlama, aholining kelib chiqishi, tarqalishi, o'sishi, joylashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalari va xokazolarni o'rganadi. Ijtimoiy va iqtisodiy geografiyada aholining o'sishi va taqsimlanishi asosiy vazifa hisoblanmaydi, balki aholining qayta ko'payishi omillari, hududiy tarqalishi ahamiyatlidir. Bu jarayonlarning natijasida turli funksional tipdagi va kattalikdagi aholi punktlarining paydo bo'lishi hamda ular o'rtasidagi aloqalarning mustaxkamlashishi, natijada hududiy infratuzilma aholi punktlari tizimi to'plamlarining tashkil topishiga olib keladi. Aholi punktlari tizimi ishlab chiqarishni, aholiga xizmat ko'rsatish sohasini tashkil etishni hududiy formasi hisoblanadi. Darslikni yozishda G.R.Asanovning «Aholi geografiyasi» (O'quv qo'llanmasi, T., O'qituvchi nashriyoti, 1978), S.A.Kovalev va N.YA.Kovalskayalarning "Geografiya naseleniya" (Uchebnoe metodicheskoe posobie dlya studentov-zaochnikov gosuniversitetov, M., izd. MGU, 1971), V.V.Pokshishevskiyning, "Geografiya naseleniya zarubejnyx stran" (Ekonomicheskie geograficheskie ocherki. -M.,Prosveshchenie 1971), E.L. SHuvalovning "Geografiya naseleniya" (Uchebnoe posobie.-M., Prosveshchenie 1977), S.A.Kovalev va N.YA.Kovalskayalarning "Geografiya naseleniya SSSR" (Uchebnoe posobie.-M., MGU 1980), V.A.Korpylovning "Geografiya naseleniya" (Uchebnoe posobie.-M., 2005), E.A.Antipova "Geografiya naseleniya mira" (kurs leksiy.-Minsk, BGU 2003), Atlas mira.-M.,Ast.2016, A.Soliev va M.Kadirovlarning "Geografiya naseleniya i naselennyx punktov Samarqandskiy oblasti" (Uchebnoe posobie. -Samarqand, SamGU 1998), M.A.Kadirovning "Samarqand viloyati aholi geografiyasi" (monografiya. - Samarqand 2017), M.A.Kadirovning "Demografiya" (monografiya. - Samarqand 2018), M.A.Kadirovning "SHaharlar geografiyasi" (monografiya. - Samarqand 2018) kitoblari ayniqsa katta yordam berdi. SHuningdek, A.P.Kuznetsovning

“Geografiya naseleniya i xozyaystva mira” (Uchebnik dlya obsheobrazovatelnykh uchebnykh zavedeniy.-M., Drofa, 2000), YU.N.Gladkiy, S.B.Lavrovning “Globalnaya geografiya” (Uchebnik dlya obsheobrazovatelnykh uchebnykh zavedeniy.-M.,Drofa, 2001), M.R.Bo‘rieva, Z.N.Tojjeva, S.S.Zokirovalarning “Aholi geografiyasi va demografiyasi asoslari” (O‘quv qo‘llanma-T., “Tafakkur-2011”), Z.T.Abdalova, Z.N.Tojjevalarning “Iqtisodiy geografiya” (o‘quv qo‘llanma.T., Iqtisod-moliya, 2013), A.A.Qayumov, Z.H.Raimjonov, Y̅.SH.YAkubovlarning “Aholi geografiyasi va demografiyasi” (o‘quv qo‘llanma-T.,2008) qo‘llanmalardan va internet ma’lumotlardan foydalanildi.

## **I BOB. AHOLI GEOGRAFIYASI DEMOGRAFIYA ASOSLARI BILAN FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

### **1.1. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining ob’ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, tadqiqot usullari**

#### **Reja:**

1. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining ob’ekti va predmeti.
2. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining maqsadi va vazifalari.
3. Aholi geografiyasi demogafiya asoslari bilan fanining tadqiqot usullari.



4. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Malumki, aholi tushunchasi odamlar yoki kishilar yig'indisi hisoblanadi. Masalan, butun er shari aholisi, mamlakat aholisi yoki tuman aholisi va h.k. Aholi punktlari esa, aholi yashaydigan joy, ishlab-chiqarish va istemol markazidir. Aholi punktlari asosan ikki tipga bo'linadi: shaharlar va qishloqlar.

G.R. Asanov aholi va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanini qiziqtirib kelgan, deb yozadi. Geografiya fanlari tizimida iqtisodiy geografiyaning qaror topishi bilan bu masalaga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Chunki, iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy joylashishi qonuniyatlarini o'rganishdir. Aholi esa har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyatning hayoti uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Aholi geografiyasi iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning bir tarmog'i bo'lishi bilan birga boshqa tarmoqlar yohud sanoat geografiyasi, qishloq xo'jaligi geografiyasi, transport geografiyasi orasiga alohida o'rin tutadi (Asanov, 1978).

Aholi geografiyasi fanining o'rganish predmeti bo'yicha aholishunos olimlar tomonidan turli qarashlar mavjud. Bu fanga eng qisqa ta'rifni rus olimi V.V.Pokshishevskiy bergan. "Aholi geografiyasi ijtimoiy va iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan bo'lib, bu fan aholining tarkibi, aholi va aholi punktlarning joylashuvini o'rganadi".

S.A. Kovalev esa aholi geografiyasi aholini tabiiy muhit va xo'jalik bilan o'zaro aloqadorlikda majmuali o'rganadi, deb ta'rif bergan (Kovalev, 1980).

Beloruslik olim E.A.Antipovanning fikricha, aholi geografiyasi fani aholi va aholi punktlarini turli ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy sharoitlarda ularni tashkil topishi va rivojlanishini geografik xususiyatlarini o'rganadi (Antipova, 2003).

Rus olimi V.A Kopilov esa aholi geografiyasiga quyidagicha ta'rif bergan: aholi geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, bu fan aholi dinamikasi, tarkibi, aholi va aholi punktlarning joylashuvi xususiyatlarini o'rganadi (Kopilov, 2005).

O'zbekistonlik aholishunos olimlardan G.R.Asanov, bu fan aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidagi hududiy farqlari, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarni, aholi punktlarining hududiy tizimlari va ularning rivojlanish qonuniyatlarini, shuningdek, aholining er shari bo'yicha va ayrim mamlakatlar hamda rayonlar miqyosidagi harakatini o'rganadi, deb yozgan (Asanov, 1978).

Bundan tashqari, aholi geografiasining o'rganish predmeti bo'yicha O.B.Ata-Mirzaev, S.A.Soliev, M.R.Bo'rieva va boshqalar ham o'z fikrlarini aytgan. Bu qarashlarning bir-biriga o'xshash tomonlari juda ko'pdir.

Bizningcha, aholi geografiasi fani dunyo aholisi sonini, uning tarkiblarini, ya'ni yosh-jinsiy, milliy, diniy, irqiy, sotsial-sinfy, shuningdek aholi joylashuvining hududiy farqlarini va shu farqlarni tashkil qiluvchi qonuniyatlarini, aholining tug'ilishi, o'lishi, tabiiy o'sishini, mexanik o'sishini, mehnat resurslarini, xalqlarni tabaqalanishini, aholi punktlarning hududiy joylashishi, rivojlanishini va boshqalarni o'rganadi.

YUqorida aytilganidek, aholi geografiasi ijtimoiy geografianing asosiy tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu fan aholini o'rganadigan boshqa fanlardan farq qiladi. Aholi geografiasi avvalambor, tadqiqotning majmualiy ekanligi, hududiylik, xo'jalik va tabiiy muhitning bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Aholi ishlab chiqarish jarayoni va aholining qayta ko'payishi ta'sirida doimo yangilanib boradi. Aholi geografiasining asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- a) avlodlarning almashuvi bo'lib, qariyalar hayotdan ketadi, yosh avlod tug'ilib, avlodlar ko'payib boradi;
- b) hayot uchun zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, kiyim-kechaklar, uy-joylar va boshqalarning to'xtovsiz ishlab chiqarilishi;
- v) tabiiy, mexanik va ijtimoiy xarakatlarning to'xtovsizligi.

Tabiiy xarakat bu aholining tug'ilishi, o'lishi va tabiiy o'sishidir. Mexanik harakat aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi, ya'ni migratsiya. Aholining ijtimoiy harakati esa, ularning mutaxassisligi, o'qimishli-bilimliligi va aholining boshqa ishlab-chiqarish sohalarida bandligi tushuniladi.

Aholi geografiasining yana asosiy xususiyatlaridan:

- a) tadqiqot ob'ekting ikkita ekanligi, ya'ni bir tomondan aholi, ikkinchi tomondan aholi punktlari tizimi;
- b) insoniyat jamiyati rivojlanishini o'rganishi sababli, ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi;
- v) aholining tabiat, tabiiy kompleks, xo'jalik faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy - siyosiy sharoitlar bilan aloqadorligi, kompleks fanlar bilan bevosita bog'liqligi;
- g) aholi geografiasini tadqiqot ob'ektini ma'lum hududda o'rganishi;
- d) aholi geografiasini ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fanida asosiy o'ringa egaligi, chunki aholi ham ishlab-chiqaruvchi, ham iste'molchi;
- e) aholi geografiasini statistik va dinamik hodisalarni o'rganishi va h.k. (Antipova, 2003.)

Aholi geografiasini fani juda ko'p fanlar bilan aloqador bo'lib, birinchi navbatda demografiya fani bilan chambarchas bog'liqdir. Demografiya (grek tilidan "demos" – xalq, "grafo" - yozaman) aholi qayta ko'payishi qonuniyatlari bilan shug'ullanadigan fan hisoblanadi. SHuningdek, aholi geografiasini etnografiya (grek tilidan "ethnos" - xalq, "grafo" - yozaman) tarixiy fan bilan ham bog'liq bo'lib, bu fan er shari xalqlarining kelib chiqishi, madaniy tarixiy aloqalari va madaniy maishiy xususiyatlarini o'rganadi.

Aholi geografiasini sotsiologiya fani bilan bog'liq bo'lib, sotsiologiya jamiyat rivojlanishi qonunlari, migratsiya, mutaxassislikni almashinishi va boshqalarni o'rganadigan fandır.


Aholi geografiasini antropologiya fani bilan ham aloqador bo'lib, bu fan tabiat va insoniyatning kelib chiqishi bilan shug'ullanadi.

Bulardan tashqari, aholi geografiasini boshqa geografik fanlar bilan ham chambarchas bog'liq hisoblanadi. Bular quyidagilar:

- 1) Dunyo xo'jaligi geografiasini;
- 2) Xizmat ko'rsatish geografiasini;
- 3) Rayon planirovkasi;
- 4) Rekreatsiya geografiasini;

5) Meditsina geografiyasi va boshqalar.

SHu bilan birga, aholi geografiyasi boshqa amaliy fanlar bilan ham aloqadadir. Bular: ijtimoiy gigiena, inson ekologiyasi, ijtimoiy




1. Rasm. Aholi geografiyasi fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.  
Klaster muallif tomonidan tuzilgan.

psixologiya, demografik statistika, iqtisodiyot va mehnatni tashkil etish, mehnat statistikasi, shaharsozlik va boshqalar.

Aholini o'rganishda tadqiqot usullarini to'g'ri tanlash va samarali foydalanish katta ahamiyatga ega bo'lib, u ta'lim oluvchining bilimi va ishining samaradorligini oshiradi. «Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan» nomli fanining tadqiqot usullari quyidagilar:

- Geografik taqqoslash usuli;
- Tarixiy qiyoslash usuli;
- Iqtisodiy-matematik usul;
- Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul;
- Qiyosiy va iqtisodiy-qiyosiy tahlil usuli;
- Me'yoriy-balans hisobi usuli;
- Kartografik tadqiqot usuli;
- Sotsiologik so'rovlar o'tkazish usuli;
- Omillarni tahlil qilish usuli;
- Iqtisodiy prognoz usuli (Qayumov va boshqalar, 2008).



2. Rasm. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining tadqiqot usullari.  
Rasm muallif tomonidan tuzilgan.

## 1.2. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining rivojlanish tarixi

### Reja:

1. Birinchi geografiya asarlarining vujudga kelishi.
2. O'zbekistonda aholiga doir masalalarning o'rganilishi
3. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining shakllanishi bosqichlari va rivojlanishi omillari.

Dunyo aholisi qadimdan boshqa yangi joylar, mamlakatlar haqida qiziqib sayohatlar uyushtirganlar. Sayohatchilar, savdogarlar, elchilar koʻrgan tabiat manzaralari, oʻsha joyni boyliklari, aholisi, ularning mashgʻuloti toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni chizish, yozish orqali oʻz xalqiga etkazib kelgan. Maʼlumki, bunday sayohatlarga qadimda asosan Evropa mamlakatlari aholisi faol qatnashgan. SHuning uchun bu mamlakatlarda yigʻilgan maʼlumotlar asosida tabiatshunoslik, geografiya, botanika va boshqa fanlar asta-sekin vujudga kelgan va rivojlangan. Geografiya fani aholi va unga taalluqli boʻlgan maʼlumotlarni qadimdan oʻrganib kelgan.

S.A.Kovalyovning yozishicha Strabon tomonidan I asrda yaratilgan «Geografiya», II asrda Ptolimey yozgan «Geografiya» kitoblari birinchi geografik va etnografik asarlar hisoblanadi. Antik davrdagi geografik ishlarda mamlakatlar aholisining mashgʻuloti, madaniy-maishiy xususiyatlari, shaharlari, qishloq joylari haqidagi maʼlumotlar keltirilgan (Kovalev,1980).

G.R.Asanovning yozishicha, 1650-yilda Vareniy (Varenius) ning Niderlandiyada bosilib chiqqan “Umumiy geografiya” nomli asaridayoq aholiga tegishli koʻpgina masalalar geografiya oʻrganadigan muhim muammolar qatoriga kiritilgan edi. Varenius geografiyani ikkita katta boʻlimga boʻlgan. Birinchi asosiy (umumiy) geografiya va ikkinchi ayrim mamlakatlarni oʻrganadigan xususiy geografiya (mamlakatshunoslik). Ana shu xususiy geografiyaning iqtisodiy geografiya boʻlimi oʻrganadigan masalalar orasida aholining tarkibi, turmush-tarzi, isteʼmol qiladigan ovqatlari, daromadi, bilim darajasi, hunarmandchilik, savdo aloqalari, siyosiy tuzumi, shaharlari kabi koʻrsatkichlar boʻlgan. Ammo u paytlarda va undan keyin ham uzoq davrlar davomida aholi geografiyasi geografiya fanining alohida yoʻnalish sifatida tashkil topmagan edi.

XIX asrga kelib, dastavval Germaniyada va keyinchalik gʻarbdagi boshqa mamlakatlarda “antropogeografiya” paydo boʻla boshladi. Antropogeografiyaning asoschisi nemis geografi Fridrix Ratsel (1844-1904) boʻlib, aholi geografiyasidagi barcha xodisa va voqeliklarni tabiiy sharoit taʼsiridan deb tushuntirgan.



XIX asr oxiri XX asr boshlarida G'arbiy Evropada (asosan Fransiyada) Inson geografiyasi deb nomlangan yo'nalish ham vujudga keladi. Fransuz geograflari P.Vidal de Lya Blash (1845-1919) va J.Bryun(1869-1930) bu yo'nalishning asoschilari edilar. Bu yo'nalish namoyondalari tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi, tabiat bilan aholi o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarni ilmiy asosda o'rganmasdan, balki alohida bir insonning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini va bir-biriga ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanganlar. SHuning uchun ham ular o'z fanlarining nomini aholi gografiyasi emas, balki inson geografiyasi deb nomlagan (Asanov,1978).

VII-XVIII asrlarda fanlarning rivojlanishi bilan aholini o'rganish mutaxassislasha boshlanadi. Aholini hisobga olish jarayonida demografiya tashkil topadi. Demografiya aholi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, umumlashtirish bilan shug'ullanadi. Keyinchalik tarixiy fanlarga o'xshaydigan geografiya fani bilan chambarchas bog'liq bo'lgan etnografiya vujudga keladi. Asta-sekin aholi va boshqa ma'lumotlarning ko'payishi va to'planishi natijasida turli xildagi kartalar va atlaslar paydo bo'ladi. Mashhur ensiklopedist olim M.V.Lomonosov XVIII asrning o'rtasida tabiiy va iqtisodiy geografiya, demografiya va etnografiya fanlariga oid ko'p ma'lumotlar to'plab, Rossiyada geografiyani rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan. Bu olim Rossiya shaharlari, aholi yashaydigan boshqa aholi punktlarini ekspeditsion kuzatishlari orqali majmuali o'rgangan. Rossiyada geografiya fanini rivojlanishida XIX asrlarda P.I.Keppen, A.B.Bushen, K.I.Arsenev, P.P.Semenov-Tyan-SHanskiy va boshqalarning xizmatlari kattadir. P.P.Semenov – Tyan-SHanskiyning tashabbusi bilan Rossiyada birinchi aholi ro'yxati 1897-yili o'tkazilgan. Bu aholi ruyxatiga O'zbekistonda Buxoro va Xiva xonliklaridan tashqari mamlakatimizning boshqa hududlari hisobga olingan. Keyinchalik 1920-yilda Rossiyada ikkinchi marta aholi ruyxati o'tkazilganda ham O'zbekiston hududi to'la o'rganilmadi. O'zbekiston hududini to'la qamrab olgan aholi ruyxati 1926-yilda sobiq ittifoq davrida o'tkazildi.

XX asrda aholi va aholi punktlarni o'rganish Rossiyada yanada rivojlandi. Bu davrda P.P.Semenov Tyan-SHanskiy, A.I.Voeykov, V.P.Semenov Tyan-SHanskiy, E.L.SHuvalov,

O.A.Konstantinnoy, V.V.Pokshishevskiy, YU.G.Saushkin va boshqa olimlarning xizmati katta bo'lgan. SHuningdek, keyichalik aholiga bag'ishlangan asarlari bilan I.M.Maergoyz , B.S.Xorev, S.A.Kovalev, V.G.Davidovich ajralib turadi. E.L.SHuvalovning yozishicha, aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning asosiy tarmog'i sifatida 1940-yillardan boshlab rivojlangan. E.L.SHuvalov, R.M. Kabo va N.N.Baranskiylarning ham xizmati beqiyosdir. Ular aholini geografik jihatdan o'rganishning zarurligi, aholi punktlarini o'rganish metodikasini ishlab chiqqan (SHuvalov 1977).

O'zbekistonda ham aholi qadimdan o'rganilib kelingan. O'zbekistonda aholini o'rganish asosan XX asrdan boshlab rivojlandi. Respublikamiz aholisi, aholi punktlari, mehnat resurslari va boshqa masalalar bilan O.Ota-Mirzaev, A.S.Soliev, M.Qoraxonov, I.Mullajonov, X.Salimov, A.A.Qayumov, Z.Raimjonov, I.Safarov, M.R.Bo'rieva, M.A.Kadirov, S.Zokirov, Z.Tojjeva, M.Nazarov va boshqalarning xizmatlari nihoyatda kattadir.

### Glossariy

**Aholi** – malum hududda yashaydigan kishilar yig'indisi, majmui. Aholi punktlari – aholi yashaydigan joylar, ishlab -chiqarish va istemol markazlari.

**Aholi geografiyasi** – aholi soni, uning tarkibi, aholining tabiiy va mexanik xarakati, aholi joylashuvidagi hududiy farqlarni va bu farqlarni vujudga keltiradigan omillarni, aholi punktlarining hududiy tizimlari hamda ularning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Demografiya – aholi jadvali, ro'yxati kabi manolariga ega bo'lib, aholi soni, tarkibi, tabiiy va mexanik harakatini o'rganadi. Demografik jarayonlar – aholining tug'ilishi, o'limi, tabiiy o'sishi, mexanik xarakatidir.

**Tabiiy o'sish** – malum bir muddatda (odatda bir yilda) tug'ilganlar sonidan o'lganlar sonini olib tashlanganda qolgan qoldiq bilan belgilanadi.

**Depopulyasiya** – malum hududda kompleks sabablarga ko'ra aholining kamayishi.

**SHahar** – aholi punktidagi aholining 75 foizi qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lmagan manzilgoh.

**Qishloq** – aholi punktidagi aholi asosan qishloq xo‘jaligi bilan band bo‘lgan manzilgoh.

**Avlodlarning almashinuvi** – qariyalarning vafot etishi, yosh avlodning tug‘ilishi.

### **Nazorat savollari**

1. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining predmeti va vazifalarini tushuntirib bering?
2. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining tadqiqot usullari qaysilar?
3. O‘zbekistonlik aholishunos olim G.R.Asanov “Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan” nomli fanga qanday tarif bergan?
4. Aholi geografiyasi demografiya asoslari bilan fanining o‘rganish predmeti bo‘yicha qaysi olimlar o‘z fikrlarini aytgan?
5. Aholi geografiyasining asosiy xususiyatlari qaysilar?
6. Demografiya fani nimani o‘rganadi?
7. Aholi geografiyasi qaysi fanlar bilan bevosita aloqador?
8. Birinchi geografiya asari qachon va kim tomonidan yaratilgan?
9. Antropogeografiya fani qaysi mamlakatda paydo bo‘lgan?
10. O‘zbekistonda aholiga doir masalalarni qaysi olimlar o‘rgangan?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T. : O‘zbekiston.2010. -79 b.
2. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T. : O‘zbekiston. 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakteristik strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017 y., 6-son. 70-modda.

4. Anoxin A.A.,Jitin D.V. Geografiya naseleniya s osnovami demografii. Sankt-Peterburg.SPBGU. 2013. -307 s.
5. Asanov G.R. Aholi geografiyasi. – T.: O‘qituvchi. 1978. - 222 b.
6. Aleskerov YU.N., Normurodov X.N. Samarkandskaya oblast. – T.: Uzbekistan, 1982. –135 s.
7. Antipova E.N. Geografiya naseleniya mira. Kurs leksiy. – Belorus. 2003. – 189 s.
8. Baranskiy N.N. Nauchnye prinsiny geografii. – M. : Mysl. 1980. 239 s.
9. Kadirov M.A. Samarqand viloyati aholi geografiyasi. Samarqand 2017. – 142 b.
10. Kovalev S.A., Kovalskaya N.YA. Geografiya naseleniya. M. : 1980. 285 s.
- 11.<http://www.dmo.econ.msu.ru>.

## **II BOB. AHOLI SONINING O‘SISHI VA AHOLI RUYXATI**

### **2.1. Aholini hisobga olish va aholi ro‘yxati**

#### **Reja:**

1. Qadim zamonlarda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati.
2. Sobiq ittifoq davrida o‘tkazilgan aholi ro‘yxati va ahamiyati.
3. Aholini hisobga olish.

Har bir mamlakat viloyat shahar yoki tuman aholisi to‘g‘risida fikr yuritish uchun aholi soni yosh jinsiy milliy, diniy, tarkibi, aholining tug‘ilish, o‘lim va

tabiiy o‘shish, nikohdan o‘tish yoshi, ajralishlar to‘g‘risida ma’lumotlar lozim bo‘ladi. Bunday ma’lumotlar aholi ro‘yxatlari paytida o‘rganiladi. Har bir mamalakatda odatda bir yilda qancha aholi tug‘iladi, vafot etadi, aholi soni o‘shish miqdori necha ming yoki necha million kishini tashkil etadi, qancha aholi ko‘chib kelishi va ketganligi har yili viloyat, shahar, tuman hokimliklari va statistika boshqarmalari tomonidan hisobga olib boriladi. Aholini o‘rganish asosan ikki yo‘l bilan o‘rganiladi.

1) Aholini hisobga olish, 2) Aholi ro‘yxati.

Aholini hisobga olish har yili tug‘ilganlar, o‘lganlar, kelganlar va ketganlar soni bilan aniqlanadi. Aholini ro‘yxatga olish esa, keng masshtabda olib boriladi. Aholi ro‘yxati paytida ma’lum dastur asosida aholiga doir barcha ma’lumotlar yig‘iladi. Masalan, xonadonda necha kishi yashaydi, ularning tug‘ilgan yili, oyi, kuni, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, millati, ona tili, ijtimoiy holati, farzandlar soni, yoshi va umuman aholiga doir barcha ma’lumotlar chuqur o‘rganiladi. Aholini ro‘yxatga olish odatda ko‘p mamlakatlarda har besh yoki o‘n yilda bir marotaba o‘tkaziladi. Ba’zi aholi soni tez o‘sayotgan mamlakatlarda, masalan, Xitoy, Indoneziya va boshqalarda har yili aholi ro‘yxati o‘tkaziladi. Ba’zi mamlakatlarda esa, jumladan Ekvadorda aholi ro‘yxati bir marta 1950 yilda o‘tkazilgan xolos. Aholini hisobga olish va aholi ro‘yxati masalalari to‘g‘risida aholishunos olim G.R.Asanov juda yaxshi ma’lumotlar yozgan. Uning fikricha, qadimda ba’zi mamlakatlarda, masalan, Xitoyda, Misrda, Eronda, shuningdek, Rim imperiyasida eramizdan bir necha asr oldin aholi hisobga olingan, ammo u paytdagi aholi ro‘yxati bilan hozirgi aholi ro‘yxatini taqqoslab bo‘lmaydi. U davrdagi hisoblar ma’lum bir maqsadga, ya’ni soliq to‘lashi lozim bo‘lgan kishilar yoki askarlikka layoqati bo‘lgan kishilar sonini aniqlash uchun zarur bo‘lgan. SHunda ham erkaklar hisobga olingan. Bundan tashqari, XV-XVII asrlarda Rossiyada «Pistsevnye knigi» deb nomlangan iqtisodiy-statistik daftarlar to‘ldirilgan. Bu daftarda soliq to‘lashi kerak bo‘lgan erkaklar hisobga olingan. Soliq to‘lashdan ozod qilingan dvaryanlar, ruhoniylar va ayrim tabaqa vakillari bu daftarga kiritilmagan. 1790-yilda AQSHda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatini aholi haqida to‘liq

demografik ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazila boshlangan birinchi zamonaviy aholi ro'yxati desa bo'ladi. XVIII asrning ohiri XIX asrning boshlarida Evropaning ko'pgina mamlakatlarida ham aholi ro'yxati o'tkazilgan. Endilikda Evropaning barcha mamlakatlarida aholi ro'yxati muntazam olib boriladi. SHimoliy va Janubiy Amerika mamlakatlarida ham aholi ro'yxati o'tkazilib kelinmoqda. Osiyo mamlakatlaridan YAponiya, Turkiya, Tailand, Xindiston, M'yanma, SHri-Lanka, Indoneziyada muntazam ravishda aholi ro'yxati o'tkazib turiladi. Afrikaning ba'zi mamlakatlarida ham aholi ro'yxatlari o'tkaziladi.

O'zbekiston hududida to'laroq aholi ro'yxati 1897-yili CHor Rossiyasi tomonidan o'tkazilgan. Bu aholi ro'yxatida Buxoro va Xiva xonliklari aholisi hisobga olinmagan edi. Sovet xokimiyati yillarida aholi ro'yxati 1920, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda o'tkazilgan. O'zbekiston hozirgi hududining to'la to'la qamrab olgan to'laroq aholi ro'yxati 1926 yilda o'tkazilgan (Asanov, 1978). BMT tomonidan butun dunyo aholisi hisobga olib boriladi. Bu tashkilot tomonidan har yili yillik demografik to'plam nashr etiladi. Aholi ro'yxati ma'lum bir davrda o'tkaziladigan tadbir bo'lib, unda aholiga doir barcha ma'lumotlar yig'iladi.<sup>1</sup> Bu ma'lumotlar baholanadi, tahlil qilinadi va natijalari chop etiladi. Aholi ro'yxati paytida demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlar mamlakatning har bir fuqarosi bilan suhbat olib borilib, yig'iladi. Aholini ro'yxatga olishdan maqsad aholi soni, tarkibi, aholining joylashuvi, ijtimoiy xolati kabi bir qancha ma'lumotlarni yig'ishdan iborat. Bu ma'lumotlar har bir mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotida katta rol o'ynaydi. Aholiga doir barcha ma'lumotlar faqatgina aholini ro'yxatga olish jarayonida to'planadi. E.A.Antipova aholining ro'yxatga olish tarixini 3 davrga bo'lib o'rgangan:

1. XVIII asrning ohiri XIX asrning birinchi yarmida AQSHda birinchi marta aholi ro'yxati o'tkazilgan, keyinchalik 1800 yilda SHvetsiyada, Finlyandiyada, 1801 yilda esa Buyuk Britaniya, Fransiya, Daniya va Norvegiyada ham aholi ro'yxatga olingan. Bu davrda aholini ro'yxatga olishda aniq dastur bo'lmagan. Olingan ma'lumotlar yillab tahlil qilingan. 1846 yilda Belgiyada aholi ro'yxati

---

<sup>1</sup> Демографический и энциклопедический словарь. М., 1985. стр. 606.

o'tkazilgan. Bu aholi ro'yxatini belgiyalik olim A.Ketle (1796 – 1874) boshchiligida olib borilgan. Olim tomonidan aholini ro'yxatga olish dasturi, ma'lum vaqtda o'tkazilishi, faqat bor aholini hisobga olish tamoyillari ishlab chiqilgan.

2. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmi. Bu vaqtlarda xalqaro statistik kongresslarda va xalqaro statistik markazlarda aholini ro'yxatga olish metodologiyasi ishlab chiqiladi va rivojlantiriladi. Masalan, aholi ro'yxati har 10 yilda ma'lum vaqtda o'tkazilishi, mavjud aholini hisobga olish lozimligi va boshqa tamoyillar ishlab chiqilgan. Bu davrda nafaqat Amerika va Evropa mamlakatlarida, balki Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham aholi ro'yxatga olingan.

3. XX asrning o'rtasidan hozirgi vaqtgacha. Bu davrda mustaqillikka erishgan Afrika mamlakatlarida, 1980 yillarda Osiyoning janubiy-G'arbiy mamlakatlaridan BAA, Qatar, Saudiya Arabistonida aholi ro'yxatga olingan (Antanova, 2003).

Aholini har yili hisobga olish bilan aholini ro'yxatga olish bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'lishi lozim, chunki yil davomida tug'ilganlar, o'lganlar, ko'chib kelganlar, ko'chib ketganlar soni aniq bo'lsa, aholi soni bir yilda qanchaga etganligi yoki kamayganligi ma'lum bo'ladi. Ba'zan shu ma'lumotlardan foydalanib, taxminiy aholi ro'yxati o'tkaziladi. Ba'zi mamlakatlarda aholi ro'yxati mamlakatning ma'lum bir hududda o'tkazilib, mamlakatlar aholi ijtimoiy masalalari taxminiy umumlashtiriladi. Bu tanlama so'rov asosida olib boriladi. YUqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston hududida ohirgi to'la aholi ro'yxati 1989 yili o'tkazilgan. Mustaqillik yillarida 2012 yilda ma'lum bir hududlar tanlanib, tanlanma aholi ro'yxati o'tkazilgan.

SHunday qilib, aholi ro'yxati aholini har tomonlama, chuqur o'rganadi. Aholi soni, uning yosh-jinsiy, milliy, diniy tarkibini bilish, migratsiyada qatnashganlar soni, mehnat resurslar sonini bilish, aholini oziq-ovqat va keng iste'mol mollari, kiyim-kechaklar, poyabzal bilan ta'minlashda, maktablarga birinchi sinfga boradigan bolalar soniga qarab, ularga sharoit yaratishga, kitob-daftarlar ishlab

chiqarishga, aholini o'z ona tilida o'qishiga, gazeta-jurnal va kitoblar chiqarishda, radio-televedeniyada eshittiruv va ko'rsatuvlar olib borishda katta ahamiyatga egadir.

## **2.2. Aholi soni dinamikasi**

### **Reja:**

1. Aholi sonining tadrijiy o'zgarishlari.
2. Aholi soni bo'yicha davlatlarni guruhlash.
3. Aholining o'rtacha yillik ko'payishi va o'sish sur'atlari.
4. Aholining kelajakdagi o'sishi.

A.P. Kuznetsovning fikricha, qadimda odamlar taxminan 3 mln yil oldin SHimoli-sharqiy Afrika, Old Osiyo va janubiy Evropada odamsimon maymunlardan paydo bo'lgan deb yozadi. Ularni antropoidlar, odamsimon maymun deb atagan. U darvinizm g'oyalarini qo'llab quvvatlagan. Aslida bugungi kunda odamlarning maymunlardan tarqalishini butun dunyo olimlari rad etishmoqda. Boshqa olimlar esa odamlar 7 mln yil ilgari paydo bo'lgan deb aytishgan. Ibtidoiy odamlar 300-100 ming yil oldin Afrika va Evrosiyo hududlarida yashaganligi va ularni neandertal (Germaniyadagi vodiylar nomidan olingan) deb atashgan. Hozirgi zamon kishisining paydo bo'lganligiga 30-40 ming yil bo'lgan deb taxmin qilishadi va ularni Kro-Manonlar deb aytishgan (Fransiyadagi Kro-Manon qishlog'i nomidan olingan). Odamlar keyinchalik Amerika, Avstraliya va boshqa qit'alarga o'tishgan (Kuznetsov, 2000).

Qadimda odamlar paydo bo'lgan davrda aholining tug'ilish darajasi juda yuqori bo'lgan, lekin dunyo aholisi soni o'lim darajasining yuqoriligi sababli juda sust o'sgan. Tabiiy ofatlar, sovuq iqlim, qabilalararo, urushlar, keng tarqaladigan kasalliklar va boshqa omillar o'lim darajasining yuqori bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan. O'lim darajasi asosan yosh bolalar orasida yuqori bo'lgan, chunki qadimda tibbiy xizmat ko'rsatish past bo'lgan. Qadimda odamlar asosan tabiiy sharoiti yashash uchun qulay bo'lgan joylarda, ya'ni suv manbalarida yaqin, reliefi tekis va o'rmonlarda yashagan. Ular asosan qorin to'ydirish uchun ovchilik bilan



shugʻullanib, meva-chevalar eb kun kechirishgan. Koʻpchilik aholishunos olimlarning fikricha, odamlar paydo boʻlgandan asosan Oʻrta Er dengizi atrofida, yaʼni shimoliy va shimoli-sharqiy Afrika, Evropaning janubiy qismlari va janubi-gʻarbiy Osiyoda joylashgan boʻlgan. Keyinchalik asta-sekin Afrikaning markaziy va janubiy qismlariga, janubiy Evropadan, uning boshqa joylariga, janubi-sharqiy Osiyodan Osiyoning boshqa qismlariga tarqalib ketgan. SHu bilan birga, keyinchalik Osiyoning shimoli-sharqiy qismlaridan yangi dunyo, yaʼni Amerikaga oʻtgan. Osiyoning janubi-sharqiy qismlaridan esa Indoneziya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Okeaniya orollariga oʻtgan. SHunday qilib, aholi er shariga tarqalgan. Oʻsha vaqtlarda shimoliy, shimoli-sharqiy Afrika, janubiy Evropa va janubi-gʻarbiy Osiyoda aholi zich joylashgan boʻlgan. Evropa, Osiyo va Afrikaning boshqa hududlarida aholi zichligi siyrak boʻlgan. Dunyo aholisi soni dinamikasi asosan quyidagi koʻrsatkichlarga qarab oʻrganiladi:

1. Yillar boʻyicha aholi soni, kishi hisobida;
2. Aholi sonining absolyut va nisbiy oʻsishi. Oʻtgan yillarga nisbatan oʻsish darajasi;
3. Aholining oʻrtacha yillik oʻsishi, foiz hisobida.

Dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholini kompleks oʻrganish, aholiga doir masalalarni hal etishda, birinchi navbatda uning yildan yilga oʻsib borayotgan sonini oʻrganish va tahlil qilish muhim masala boʻlib, iqtisodiyotni va jamiyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir.

### 1-jadval

#### Dunyo aholisi soni dinamikasi

Sana, yillar	Aholi soni
Eramizdan avvalgi 1000 yili	100 mln
Eramizning boshlarida	200 mln
Eramizning 1000 yili	300 mln
XVII asr oʻrtalarida	500 mln

1804 yilda	1 mlrd
1927 yilda	2 mlrd
1960 yilda	3 mlrd
1974 yilda	4 mlrd
1987 yilda	5 mlrd
1999 yilda	6 mlrd
2011 yilda	7 mlrd*
2016 yilda	7,3 mlrd*

\*Internet ma'lumotlari "U.S. and World Population Clock".

1-jadval shuni ko'rsatadiki, dunyoda aholi soni tez suratlarda o'sib borayotir. Aholi 1804 yilda 1 mlrd. kishi, 123 yildan so'ng 2 mlrd. kishiga etgan, 33 yildan keyin esa, dunyo aholisi 3 mlrd.ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, aholi soni o'sishi, mlrd.lar orasida yillardagi farq kamayib borgan. 3-chi va 4-chi mlrd. orasida bor yo'g'i 14 yil, 4-chi va 5-chi mlrd. orasi esa 13 yil va h.k. BMT ma'lumotlariga ko'ra, sayyoramiz aholisining soni 2050 yilga borib, 9-12 mlrd. nafarga etishi mumkin 2050 yilda aholi soni bo'yicha 1,7 mlrd kishi bilan Hindiston birinchi, Xitoy esa 1,4 mlrd kishi bilan ikkinchi o'rinni egallaydi. Taniqli britaniyalik fizik Stiven Xoking ma'lumotlariga ko'ra, yaqin yuz yil ichida sayyoramizda tabiiy zaxiralar haddan tashqari kamayib ketadi va er yuzida yashashning imkoni bo'lmay qoladi. Lekin, ko'pgina olimlarning fikricha, erimiz ko'pi bilan 15-25 mlrd. odamni boqishga etishi mumkin. Oziq-ovqat masalasida qayg'urmasa ham bo'ladi. Chunki, bugungi kunda genetika va biotexnologiyalar rivojlanib borayotir. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, bugungi kunda bir odam uchun ketadigan oziq-ovqat miqdori yuz yil avvalgiga qaraganda bir muncha ko'proq. Ichimlik suvi ham muammo bo'lmaydi. Okean suvini tindirish imkoni mavjud. Olimlar dunyoning turli mamlakatlarida paytlarida demografik tadqiqotlar olib borishmoqda. So'ngi ellik yil ichida aholi soni ikki barobardan ko'proq ko'paygan. Har bir "milliard" oralig'idagi masofa ham tobora qisqarib bormoqda. Masalan, sayyoramizning 8 milliardinchi fuqarosi o'n yildan keyin, 9 mlrdingisi

yana 9 yildan keyin tug'ildi. Dastlabki xisob-kitoblarga ko'ra 2064 yilga borib, aholi soni 16 mlrdga etadi va har yili yana bir mlrd dan ko'paya boshlaydi degan taxminlar mavjud (Darakchi gazetasi ma'lumotlari 19.18.2010). Dunyo aholisi 1962-1972 yillarda o'rtacha 2,06 % ga, 1973-1983 yillarda 1,80 % ga, keyingi yillarda ham yanada pasayib borgan. So'nggi 10 yillikda ham aholining o'sishi o'rtacha 1,27% ni tashkil etadi. 2- jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, dunyo aholisining o'sish darajasi pasayib bormoqda, lekin aholining tabiiy o'sishi har yili 80-85 mln.ni tashkil etadi. Dunyo aholisi soni tez ko'payishini hisobga olib, olimlar va turli tashkilotlar har xil fikrlar bildirgan.

## 2-jadval

### Dunyo aholining o'sishi (% hisobida)

Yillar	O'sish darajasi
1962-1972	2,06
1973-1983	1,80
1984-1994	1,72
1995-2005	1,21
2006-2017	1,27

Jadval Internet ma'lumotlari "U.S. and\_ World Population Clock".

Masalan: XVIII asrning oxirida T.Maltus er shari aholisi tez ko'paymoqda, ularni sayyoramizda joylashtirish va ularni boqish imkoniyati yo'q, deb aytgan. XX asrda juda ko'p olimlar shu masalalar yuzasidan juda ko'p izlanishlar olib borib, qat'iy fikr qilib, er shari o'nlab milliard aholini muammosiz joylashtira va boqa oladi deb yozganlar. SHu bilan birga, BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 1 mlrd. dan ko'p qismi nochor ahvolda yashaydi, 500 mln.ga yaqini to'yib ovqat emaydi, 35 mingga yaqin kishi ochlikdan olamdan o'tadi. SHuningdek, 36 ta mamlakat aholisini oziq-ovqat bilan o'zining resurslari asosida ta'minlay olmaydi. Kambag'al mamlakatlar ro'yxatiga janubiy Osiyodagi Hindiston, Pokiston, Bangladesh, SHri-lanka, Nepal, Afrikaning Sahroi Kabirdan Janubdagi mamlakatlar. Lotin Amerikasi mamlakatlarining asosiy qismini kiritish mumkin.

So‘ngi yillarda dunyo aholi soni dinamikasi o‘shida tabiiy ofatlar, urushlar, **OITS (SPID)** va boshqa kasalliklar, alkogolizm, giyohvandlik, ekologiyaning buzilishi salbiy ta‘sir etmoqda. SHuncha qaramasdan, Osiyo, Lotin Amerikasi va Afrikaning rivojlanayotgan mamlakatlari demografik inqirozga uchragan, bu mamlakatlarda aholi soni iqtisodiyotga nisbatan tez sur‘atlarda o‘smoqda. Aholi sonining tez o‘shida birinchi navbatda tug‘ilish darajasining yuqoriligi ta‘sir etmoqda. Bu mamlakatlarda keyingi yillarda tibbiy xizmatning yaxshilanishi, o‘lim darajasining pasayishiga asosan yosh bolalar o‘limining qisqarishiga olib keldi. SHuning uchun rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tabiiy o‘shisi yuqori bo‘lib hisoblanadi. Bu mamlakatlarga ham shunday vaqtlar keladiki, aholi o‘rtasidagi tug‘ilish darajasi va aholining o‘shisi pasayadi. Afrikada aholi sonining o‘shisi eng yuqori bo‘lib, bu erda yillik o‘shish 2% dan yuqoridir. Osiyodagi mamlakatlarda asosan Xitoy va Hindistonda aholi ko‘payishini oldini olish uchun, tug‘ilish darajasini pasaytirish uchun demografik siyosat olib boriladi. SHunga qaramasdan, Osiyodagi mamlakatlarda aholining yillik o‘shisi 2% ga yaqin hisoblanadi.

Xitoyda har bir oilada shu vaqtgacha bitta farzand ko‘rishga ruxsat berilgan. Agar birinchi farzand qiz bola bo‘lsa, ikkinchi bola ko‘rishga ruxsat berilar edi. So‘nggi yillarda esa, Xitoyda har bir oilaga ikkita farzand ko‘rishga ruxsat berildi. Agar oilada uchinchi yoki turtinchi farzand tug‘ilsa, u holda davlatga nihoyatda katta jarima to‘lashga to‘g‘ri keladi. SHuning uchun hech kim uchta farzand ko‘rmaydi. Hindistonda demografik siyosatga qaramasdan aholining tug‘ilish darajasi yuqoridir. Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham aholining o‘shisi yuqori bo‘lib, bu erda aholining yillik o‘shisi 1,5% ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich dunyo aholisining yillik o‘shisidan baland hisoblanadi.

Evropa mamlakatlarida, asosan Xorijiy Evropada aholining tug‘ilish darajasi juda pastligi sababli bu erda aholining o‘rtacha yillik o‘shisi 0,3% ni tashkil etadi. Evropa mamlakatlari ko‘pi demografik inqirozga uchragan, ya‘ni bu mamlakatlarda iqtisodiyot yildan yilga rivojlanib bormoqda, lekin aholining o‘shisi juda past. SHuning uchun Evropada aholi o‘rtasida tug‘ilish darajasini ko‘tarish maqsadida, bola tug‘ilishida katta miqdorda

nafaqalar to‘lash, ona va bola uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. SHimoliy Amerika mamlakatlari AQSH va Kanadada aholining o‘shishi mexanik harakat tufayli o‘shib bormoqda, ya’ni bu mamlakatlarda aholining tug‘ilish darajasi juda past bo‘lib, immigrantlar hisobida aholisi soni ko‘paymoqda. Dunyo aholisining yarmi 7 ta mamlakatda joylashgan, bular: Xitoy-1374 mln, Hindiston- 1282 mln, AQSH- 322 mln, Indoneziya- 258 mln, Braziliya- 205 mln, Pokiston- 192 mln, Negeriya- 187 mln.(2016). Bu mamlakatlardan tashqari aholi sonining ko‘pligi bilan 8-o‘rinda Bangladesh-159 mln, keyingi o‘rinlarda Rossiya-146 mln, YAponiya-126 mln, Meksika-122 mln, Filippin-102 mln, Efiopiya-99 mln va boshqalar ajralib turadi. Dunyo aholisining 60,5%- Osiyoda, 13%-Amerikada, 11%-Evropada, 14,7%-Afrikada va qolgan qismi Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. BMT bashoratiga ko‘ra 2050 yilda dunyo aholisining yarmi Osiyoda, 25% - Afrikada, 8,2%-Lotin Amerikada, 7,4%- Evropada va 4,7%- SHimoliy Amerikada yashaydi. SHuningdek, ularning tahminiga ko‘ra 2100 yilga er sharida aholi soni 11 milliardga etadi.

### 3-jadval

#### Yirik mamlakatlar aholisi soni va bashorati (mln.kishi).\*

2016 yil	2025 yil	2050 yil
1.Xitoy-1374	1.Xitoy-1455	1. Hindiston-1628
2.Hindiston-1282	2.Hindiston-1363	2. Xitoy-1394
3. AQSH-322	3. AQSH-351	3. Indoneziya-422
4. Indoneziya-258	4. Indoneziya-281	4. Pokiston-349
5. Braziliya-205	5. Pokiston-250	5. AQSH-316
6. Pokiston-192	6. Braziliya-211	6. Nigeriya-307
7. Nigeriya-187	7. Bangladesh-208	7. Bangladesh-255
8. Bangladesh-159	8. Nigeriya-206	8. Braziliya-221
9. Rossiya- 146	9. Rossiya- 137	9. Meksika- 153
10.YAponiya-126	10.Meksika- 133	10. Filippin-133

\*Internet ma’lumotlari “U.S. and \_ World Population Clock”.

3-jadval ma’lumotlariga ko‘ra aholi soni jihatidan yirik mamlakatlar aholisi kelajakda yanada oshadi, lekin 2025 yilga kelib ba’zi mamlakatlar o‘rni almashadi. Masalan, bu yilda bashorat qilinishicha 5- o‘rinni Braziliya o‘rnini Pokiston

egallashi mumkin, chunki Pokistonda aholi soni Braziliyaga nisbatan tez o'sib bormoqda. Pokistonda aholi sonining tez sur'atlarda oshishida tug'ilish darajasining yuqorili o'z ta'sirini ko'rsatadi. 2050 yilda kelib esa, Pokiston aholi sonining ko'pligi jihatidan 4-o'rinda chiqishi bashorat qilingan. 2025 yilda Bangladesh mamlakati ham Nigeriyadan uzib o'tib, 7- o'ringa chiqishi mumkin. 10- o'rinni Yaponiya o'rniga Meksika chiqadi. 2050 yilda mamlakatlar aholi sonida katta o'zgarishlar bo'lishi kutilmoqda. Dunyoda aholi sonining ko'pligi jihatidan hamma vaqt 1- o'rinni Xitoy egallab turgan. 2050 yilga 1- chi o'rinda Hindiston chiqishi mumkin. Hindiston aholisi 1,6 mlrd.dan oshib ketadi. AQSH 3- chi o'rindan 5- chi o'ringa tushishi bashorat qilingan. Nigeriya aholi soni yanada tez oshib, Bangladeshdan yana o'tib, 6- o'rinni egallashi mumkin.

SHunday qilib, aholi soni jihatidan yirik mamlakatlar aholisi 2016 yilga nisbatan taxminan 2025 yilda shu 10 ta yirik mamlakatda 344 mln, 2016 yilga nisbatan 2050 yilga kelib esa 927 mln.kishiga ko'payishi kutilmoqda. 2025 yilda 2016 yilga nisbatan shu mamlakatlarda taxminan aholi soni o'rtacha 0,8% ga, 2050 yilda esa 2016 yilga nisbatan 22 % ga o'sishi bashorat qilinmoqda.

Izlanishlar shundan dalolat beradiki, kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi sonining o'sishi tug'ilish darajasining yuqoriligi saqlanib kolib, tez sur'atlarda ko'payib boradi. Rivojlangan mamlakatlarda esa, aholining tug'ilishi darajasi yanada pasayishi mumkin. Bu mamlakatlar aholi sonining ko'payishi asosan mexanik harakat asosida, ya'ni immigrantlar hisobida o'sishi bashorat qilinmoqda.

### **2.3. Aholining tabiiy harakati**

#### **Reja:**

- 1.Aholining takror barpo bo'lishi.
- 2.Aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar.
- 3.Rivojlangan mamlakatlarda aholining takror barpo bo'lishi.

- 4.Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining takror barpo bo'lishi.
- 5.Demografik portlash, demografik inqiroz, demografik koeffitsientlar.
- 6.Aholining o'rtacha umr ko'rish muddati.

Aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi – aholining tabiiy harakat deyiladi. Odamzod paydo bo'libdiki, tug'ilish va o'lim doimiy tabiiy jarayon sifatida mavjuddir. Statistika ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qadimda tug'ilish va o'lim darajasi yuqori bo'lgan, lekin aholi sonining tabiiy o'sishi sust kechgan. Jamiyatning taraqqiy etishi va tibbiy xizmatlarning rivojlanishi bilan dunyo aholisining yashash tarzi yaxshilandi, bu esa o'z navbatida aholi tabiiy o'sishining yuqori darajada bo'lishiga va er shari aholi sonining tez sur'atlarda o'sishiga olib keldi.

Kishilik jamiyatining butun tarixi davomida – bir avlodning ikkinchi avlod bilan almashinuvi, uning tinimsiz yangilanib turishidan iboratdir. Bu jarayon har yili sodir bo'ladigan tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarida va ular o'rtasidagi farqda yaqqol namoyon bo'ladi. Har yili qandaydir sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnini, yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirilib borilishi jarayoni **aholining takror barpo bo'lishi** deyiladi (Asanov, 1978).

Aholining tug'ilishi va o'limi o'rtasidagi farq - **aholining tabiiy o'sishi** deyiladi. Aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sish ko'rsatkichi odatda promille bilan o'lchanadi. Promille degani mingdan bir ulush ma'nosini beradi (promille ( $\text{‰}$ ) shunday yoziladi). Masalan, 2016 yil ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilish darajasi  $19\text{‰}$ , o'lim darajasi  $5\text{‰}$ , shunda tabiiy o'sish  $14\text{‰}$  ni tashkil etadi, ya'ni  $19\text{‰} - 5\text{‰} = 14\text{‰}$ .

Ma'lumki, aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi biologik jarayon hisoblanadi. Binobarin, tug'ilish, o'lim va tabiiy o'sish darajalariga ko'p omillar ta'sir etadi. V.A. Kopilovning yozishicha, bu omillar quyidagilarga bo'linadi:

**Ijtimoiy – iqtisodiy omillar.** Aholining turmush tarzi, tibbiyot xizmatining rivojlanishi, aholining ma'lumotlilik va madaniyat darajasi, ayollarning

jamiyatdagi tutgan o'рни, bandligi, dinlar va boshqalar ijtimoiy-iqtisodiy omillar hisoblanadi.

**Tabiiy – biologik omillar.** Erkaklar va ayollar organizmining tashqi muhitga moslashish darajasining har xilligi, bu esa ba'zi joylarda o'g'il yoki qiz bolalarning ko'p tug'ilishiga (doimo 100 ta qiz bola tug'lsa 105 ta o'g'il bola tug'iladi) olib keladi. SHuningdek, issiq va sovuq iqlimli hudud aholisining jinsiy etuklik vaqtining va ayollar farzand ko'rish yoshining bir xil emasligi, epidemiya va kasalliklarga ta'sirchanligi bevosita bog'liqdir.

**Demografik omillar.** Aholining yosh va jinsiy tarkibi, nikoh va ajralishlarning ta'siri hamda aholi tarkibida qariyalar salmog'i (aholining qarishi) yuqori bo'lsa o'z navbatida tug'ilish darajasi pasayishiga sabab bo'ladi. Aksincha aholi tarkibida yoshlar salmog'i ko'p bo'lsa tug'ilish darajasi ko'payadi.

Dunyo aholisining tabiiy o'sishini ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Rivojlangan mamlakatlarda aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi;
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi.

Aholishunos olimlar jumladan, S.A. Kovalyov, N.YA. Koval'skaya, V.A. Kopilov, M.R. Bo'rieva, G.R. Asanov va boshqalar ham o'z ilmiy ishlarida yuqorida qayd etilgan guruhlarga bo'lib o'rgangan.

Rivojlangan mamlakatlarda aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishiga birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. YUqori darajada rivojlangan mamlakatlarda aholining turmush tarzi har tomonlama yaxshiligi sababli aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi pastdir. Bu mamlakatlarda yashovchi ayollar kam farzand ko'radi, yoki umuman farzand ko'rishni hoxlamaydi. SHu bilan birga rivojlangan mamlakatlarda tibbiy xizmatning ham rivojlanganligi oilada kam farzand tug'ilishiga ta'sir etadi, chunki bu mamlakatlarda yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'limi darajasi deyarli yo'q. Rivojlangan mamlakatlar aholisining ma'lumotlilik va madaniy darajasi yuqoriligi hamda ayollarning ijtimoiy mehnat bilan bandligi ham tug'ilishi va tabiiy o'sishi past bo'lishiga bevosita ta'sir etadi. SHu bilan birga, aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishiga tabiiy – biologik omillar ham ta'sir etadi. Ma'lumki rivojlangan



xususan, Evropa va SHimoliy Amerikada joylashgan mamlakatlar nisbatan sovuq iqlimli, seryomg'ir joylar bo'lib, bu esa aholining jinsiy etuklik vaqti kechroq bo'lishiga ta'sir etadi. Bu omil ham rivojlangan mamlakatlarda tug'ilish va tabiiy o'sishning past bo'lishiga olib keladi. SHuningdek, erkaklar va ayollar organizmi tashqi muhitga moslashadi, bu esa ba'zi joylarda qiz bolalar, ba'zi joylarda o'g'il bolalar tug'ilishiga ta'sir ko'rsatadi. SHuning uchun sovuq iqlimli shimoliy mamlakatlarda qiz bolalar ko'proq tug'iladi. Rivojlangan mamlakatlar aholisining tug'ilishi, o'lishi va tabiiy o'sishiga demografik omillar ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu mamlakatlarda aholining tug'ilishi va o'lim darajasi pastligi tufayli aholining qarishi sodir bo'lmoqda. Aholi tarkibida oltmish yoshdan oshganlar salmog'i ko'payib borgan. SHuning uchun, qariyalar salmog'i ko'p bo'lgan joyda tug'ilish ham albatta kam bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda o'lim darajasiga asosan erkaklarning spirtli ichimliklar ichishi, giyoxvand moddalar iste'mol qilishi va boshqa sotsial muammolar sezilarli ta'sir etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishiga ham birinchi navbatda ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, rivojlanayotgan mamlakatlar jumladan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi bir qancha mamlakatlarda aholining turmush tarzi past darajada bo'lganligi sababli tug'ilish va tabiiy o'sish yuqori bo'lib, o'lim darajasi nisbatan past. SHu bilan birga bu mamlakatlarda tibbiy xizmat ham yaxshi rivojlanmagan, ma'lumotlilik va madaniy darajasi ham nisbatan past hisoblanadi. Qoloq, agrar mamlakatlarda ayollar huquqi poymol qilinishi, qizlarning erta turmushga chiqishi va ko'p farzand ko'rish, shuningdek serfarzand ayollar uy ishlari bilan band bo'lib qolishi, natijada jamiyatda ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mehnatda bandlik darajasi pastligi kabi omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi og'ir qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarda bandligi tufayli sog'lig'i yomonlashadi, natijada o'lim darajasi yuqori bo'ladi, hamda bu mamlakatlarda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi past bo'lishiga sabab bo'ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda moddiy jihatdan yaxshi

ta'minlangan va o'qimishli oilalarda farzandlar kam tug'iladi, chunki ularning yashash tarzi nisbatan yaxshi, ularda madaniyat va milliy ong rivojlangandir.

Bu mamlakatlar aholisining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishiga biologik omillar ham ta'sir etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar asosan issiq iqlimli joylarda joylashganligi sababli aholi organizmi tashqi muhitga moslashib, yoshlar tez balog'atga etishadi va yosh oila qurishadi va ko'p farzanlar tug'iladi. SHuningdek, tabiiy muhitning ta'sirida bu hududlarda o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq tug'iladi. SHuning uchun bunday mamlakatlarda erkaklar salmog'i biroz ko'proqdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda turli kasalliklar (epidemiya), ya'ni tif, vabo, sariq kasal va boshqa kasalliklar tufayli ko'p aholi vafot etadi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining tabiiy o'sishiga demografik omillar ham bevosita ta'sir etadi. Bu mamlakatlarda tug'ilishning ko'pligi sababli, yoshlar salmog'i yuqoridir. YOshlar ko'p bo'lgan joyda nikox marosimlari ham ko'p bo'ladi, natijada aholi tug'ilishi ko'payadi. Bu mamlakatlarda ham tug'ilgan bolalar o'rtasida o'lim darajasi yuqoridir. Farzandlari birin ketin vafot etsa, qolganlar qolib katta bo'lishadi va qariganimizda bizga qaraydi deb, niyat qilishadi.

SHu bilan birga aholining tabiiy o'sishiga mamlakatlarning urbanizatsiya (shaharlashishi) darajasi ham ta'sir etadi. SHaharlarda yashovchi aholi o'rtasida qishloq joylar aholisiga nisbatan tabiiy o'sish darajasi pastroq. Hatto viloyat miqyosida ham farq qiladi. Masalan 2015 yil ma'lumotiga ko'ra, Samarqand shahrida tabiiy o'sish  $13,3\text{‰}$  bo'lsa, Samarqand tumanida bu ko'rsatkich  $18,5\text{‰}$ , Urgut tumanida esa  $27,5\text{‰}$  ga teng.

Aholining tug'ilishi va tabiiy o'sishiga urf – odatlar va dinning ham ta'siri katta. Qadimdan Xitoy, Koreya va boshqa Osiyo mamlakatlarida hamda Afrikaning musulmon mamlakatlarida oilada ko'p bolalik obro' hisoblangan va bu hurmat topganidan qo'llab quvvatlangan. Hindistonda 1951 yilda, keyinroq Xitoyda ham oilada bolalar sonini kamaytirish to'g'risida demografik siyosat olib borilgan. Lekin, bunday siyosatni Islom va Induizm diniga e'tiqod etuvchi mamlakatlar rad etgan.

Aholini tug‘ilishini va o‘shishini boshqarish uchun turli mamlakatlar har xil demografik siyosat olib boradi. Masalan Xitoy davlatida aholi soni ko‘p bo‘lganligi sababli oilada bitta farzand ko‘rishga ruxsat berilgan. Agar birinchi farzand qiz tug‘ilsa, ikkinchi farzand tug‘ilishiga ruxsat beriladi. Xitoy, Hindiston demografik siyosatini Indoneziya, Filippin va Lotin Amerikasining ba’zi davlatlari ham qo‘llab – quvvatlab, bu siyosatga qo‘shiladilar.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda tug‘ilish darajasini oshirish uchun boshqacha demografik siyosat olib boriladi. Bu mamlakatlarda xomilador ayollar rag‘batlantiriladi: uzoq muddatli dam olish va onalik ta’tili beriladi, bolalarga nafaqa va ish joyida ularning maoshiga qo‘shimchalar beriladi. (Корылов, 2005).

Rivojlangan mamlakatlar aholisini tabiiy o‘shish jihatidan uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Tabiiy o‘shish nisbatan yuqori bo‘lgan, tabiiy o‘shish 2 – 5 ‰ ni tashkil etgan mamlakatlar: Avstraliya, AQSH, Lyuksemburg, Norvegiya, Lixtenshteyn, Fransiya, Buyuk Britaniya, SHvetsiya, SHveysariya va Niderlandiya kiradi.

2. Tabiiy o‘shish past bo‘lgan, ya’ni 0,1 – 2 ‰ ni tashkil etgan mamlakatlar: Kanada, Bel’giya, Finlyandiya, Andorra, Ispaniya, Daniya kiradi.

3. Tabiiy o‘shish 0 ‰ va undan past bo‘lgan mamlakatlar: Rossiya, Avstriya, Italiya, Yaponiya, Monako, Germaniya.

#### 4 – jadval

##### Rivojlangan mamlakatlarda aholining tabiiy o‘shishi (‰ hisobida)

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2014 yil</b>
1	Avstraliya	5,1	4,9
2	AQSH	5,2	4,3
3	Lyuksemburg	3,2	4,1
4	Norvegiya	3,9	4,1
5	Lixtenshteyn	3,5	3,1
6	Fransiya	3,4	3,0
7	Buyuk Britaniya	2,8	2,7
8	SHvetsiya	2,4	2,6
9	SHveysariya	2,3	2,3
10	Niderlandiya	2,2	2,1
11	Kanada	1,9	1,8

12	Bel'giya	-0,7	1,7
13	Finlyandiya	-0,1	0,8
14	Andorra	1,6	0,7
15	Ispaniya	0,8	0,3
16	Daniya	-0,1	0,1
17	Rossiya	0,2	0,0
18	Avstriya	-1,6	0,0
19	Italiya	-1,2	-1,6
20	YAponiya	-1,3	-1,8
21	Monako	-2,2	-3,0
22	Germaniya	-2,8	-3,1

Internet World Population Clock ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4- jadval shuni ko'rsatadiki, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida aholining tabiiy o'sishi juda past. Asosan Germaniya, Monako, YAponiya va Italiyada tabiiy o'sish manfiy bo'lib, bu mamlakatlarda tug'ilish miqdoridan o'lim darajasi yuqoriligi sababli, tabiiy o'sish 2010 yilda Italiyada -1,2 ‰, YAponiyada -1,3 ‰, Monakoda -2,2 ‰, Germaniyada -2,8 ‰ ga teng bo'lgan. 4 yildan so'ng, ya'ni 2014 yilga kelib bu ko'rsatkich yanada pasaygan. YUqorida ta'kidlanganidek, aholining tabiiy o'sishi aholining tug'ilishi va o'limi o'rtasidagi farq hisoblanadi. SHuning uchun dunyo aholisining tug'ilishi va o'lim darajasini o'rganish, tahlil va tashxiz etish va xulosalar chiqarish ijtimoiy masalalarni rejalashtirishda katta ahamiyatga egadir.

5- jadval

**Tabiiy o'sish eng past bo'lgan Evropa mamlakatlari (‰ hisobida)**

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>2000 yil</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2014 yil</b>
1	Ispaniya	-1	0,9	0,3
2	SHveysariya	-1	2,3	2,3
3	Gretsiya	-1	-2,2	-2,7
4	Avstriya	-2	-1,6	0,0
5	Italiya	-2	-1,2	-1,6
6	CHexiya	-2	-0,5	-0,9
7	Sloveniya	-2	-2,7	-3,2
8	Litva	-2	-2,2	-4,5
9	Germaniya	-3	-2,8	-3,1
10	SHvetsiya	-3	2,4	2,6
11	Ruminiya	-3	-2,6	-2,9

12	Vengriya	-4	-3,4	-3,7
13	Estoniya	-4	-3,4	-2,2
14	Latviya	-5	-3,8	-4,5
15	Belorus	-5	-2,6	-2,8
16	Rossiya	-6	0,2	0,0
17	Bolgariya	-7	-5,3	-5,7
18	Ukraina	-7	-6,3	-3,9

Internet World Population Clock ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

6 – jadval

**Aholining tabiiy o'sishi eng yuqori bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar (‰ hisobida)**

№	Mamlakatlar nomi	1995 – 2000 yillar	2010 – 2014 yillar
1	Yaman	38	24
2	Somali	34	27
3	Niger	32	33
4	Mali	31	32
5	Kongo DR	31	25
6	Ummon	31	24
7	Benin	28	28
8	Gana	28	24
9	Liberiya	28	25
10	Mavritaniya	28	23
11	Pokiston	28	16

Internet World Population Clock ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Dunyo aholisining o'sishi aholining tug'ilish darajasi bilan bog'liq bo'lib, deyarli hamma mamlakatlarda tug'ilganlar doimo tegishli tashkilotlar tomonidan qayd qilinadi. Tug'ilish aholi tabiiy o'sishining asosiy manbai hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek tug'ilish darajasi ham tabiiy o'sishdek ‰ (promille) bilan o'lchanadi, ya'ni 1000 kishidan necha kishi tug'ilgani ma'nosini beradi. G.R.Asanov, M.R.Bo'rieva va boshqa olimlar yozganidek, aholining tug'ilish darajasini ko'rsatish uchun odatda tug'ilish koeffitsientidan foydalaniladi. Har yili tug'ilganlar sonining aholi o'rtacha sonidagi har 1000 kishiga nisbatiga **tug'ilish koeffitsienti** deyiladi.

$$\text{Tug'ilish koeffitsienti} = \frac{\text{бир йилда ттугилганар сони} \cdot 1000}{\text{ахолининг ўртача сони}}$$

Hisob olib borilayotgan yilning boshidagi aholi soni o'rtasidagi oddiy arifmetik o'rtacha raqam aholining o'rtacha soni bo'ladi. Masalan, Samarqand

viloyatida 2015 yildagi tug‘ilish koeffitsentini aniqlamoqchi bo‘lsak, shu yilda viloyatda 3521,1 ming kishi bo‘lganligini va 2016 yilda esa 3609,1 kishi bo‘lganligini bilib olishimiz zarur. Bu raqamlardan 2016 yil uchun o‘rtacha aholi sonini chiqaramiz  $\frac{3521,1+3609,1}{2} = 3565,1$  ming kishi.

Endi 2015 yil uchun o‘rtacha aholi soni ham, 2016 yilda tug‘ilgan bolalarning umumiy absolyut soni ham ma’lum. Ana shu ma’lumotlar asosida Samarqand viloyatida 2016 yildagi tug‘ilish koeffitsentini aniqlaymiz.

$$\text{Tug‘ilish koeffitsienti} = \frac{88000 \cdot 1000}{3565,1} = 24,7 \text{‰}$$

Demak, Samarqand viloyatida 2015 yili tug‘ilish koeffitsenti 24,7 ‰, ya’ni, har ming kishiga hisoblanganda 24,7 kishidan iborat bo‘lgan. Bu esa umumiy tug‘ilish koeffitsentidir.

## 7-jadval

### Tug‘ilishning umumiy koeffitsienti dinamikasi (har 1000 kishiga nisbatan)\*

Yillar	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar
1750-1800	38	41
1800-1850	39	41
1850-1900	38	40
1900-1910	34	41
1910-1920	26	40
1920-1930	28	41
1930-1940	22	41
1940-1950	20	40
1950-1955	23	42
1955-1960	22	41
1960-1965	20	40
1965-1970	18	38
1970-1975	17	36
1975-1980	16	34
2000-2003	11	24
2010-2014	12	21

\*E.A.Antipova. Geografiya naseleniya mira. 2003. S.17-18

7-jadval tahlili shundan dalolat beradiki, XVII-XVIII asrlarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining tugʻilish darajasi oʻrtasidagi farq juda kam boʻlgan. Masalan 1750-1800 yillarda aholining tugʻilishi rivojlangan mamlakatlarda 38% boʻlsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, bu koʻrsatkich 41 % ni tashkil etgan, bu mamlakatlar orasidagi tugʻilish farqi bor yoʻgʻi 3 % ga teng boʻlgan. XIX asrdan boshlab, aholining tugʻilish darajasidagi farq bu mamlakatlarda ortib borgan. Masalan, 1910-1920 yillarda rivojlangan mamlakatlarda aholining tugʻilish koeffitsienti 26% boʻlsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bu koʻrsatkich 40% boʻlgan, ular orasidagi farq 14 % ni tashkil qilgan. Yillar oʻtishi bilan, rivojlangan mamlakatlarda aholining tugʻilish darajasi pasayib borgan, jumladan 1965-1970 yillarda bu koʻrsatkich 18 % ni tashkil etgan, bu raqam 1920-1930 yillarga nisbatan 10 % kamdir. 2000-2003 yillarda esa, aholining tugʻilish koeffitsienti yanada pasayib 11% teng boʻlgan. Bu yillar mobaynida rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tugʻilish darajasi 24% ni tashkil qilgan. Soʻnggi maʼlumotlarga koʻra, yaʼni 2010-2014 yillarda aholining tugʻilish koeffitsienti rivojlangan mamlakatlarda 12%, rivojlanayotgan mamlakatlarda 21% boʻlgan. SHunday qilib, aholining tugʻilish koeffitsienti asosan rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham pasayib bormoqda. Dunyo aholisi tugʻilish koeffitsienti jihatidan hududiy farq qiladi. Aholining tugʻilish darajasi eng past boʻlgan Evropa qitʼasi hisoblanadi. Evropa mamlakatlarini tugʻilish darajasi jihatidan 3 guruhga boʻlish mumkin: past, oʻrtacha, yuqori (5-jadvalga qarang).

- 1) tugʻilish darajasi past 6 % - 9 % gacha boʻlgan mamlakatlar
- 2) tugʻilish darajasi 9 %- 12 % gacha boʻlgan mamlakatlar
- 3) tugʻilish darajasi yuqori 12 %- 15 % gacha boʻlgan mamlakatlar

Evropa mamlakatlari ichida tugʻilish darajasi past boʻlgan mamlakatlarga 9 ta mamlakatni kiritish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi: Andorra, Bosniya va Gersegovina, Italiya, Gretsiya, Monako, Sloveniya, Germaniya, Bolgariya, San-Marino.

## Evropa mamlakatlarida tug'ilish darajasi (%o hisobida)

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2014 yil</b>
1	Albaniya	12,7	13,1
2	Islandiya	13,0	13,8
3	Norvegiya	12,0	12,2
4	Lixtenshteyn	10,5	10,4
5	Fransiya	12,4	12,3
6	Lyuksemburg	11,7	11,4
7	Velikobritaniya	12,2	12,1
8	Makedoniya	11,6	11,5
9	SHvetsiya	11,9	12,0
10	SHveysariya	10,4	10,5
11	Niderlandiya	10,8	10,9
12	Andorra	8,4	7,8
13	CHernogoriya	10,5	10,2
14	Ispaniya	9,8	9,4
15	Slovakiya	10,0	9,8
16	Rossiya	13,3	12,9
17	Daniya	10,2	10,4
18	Finlandiya	10,3	10,7
19	Moldaviya	12,2	11,8
20	CHexiya	9,7	9,5
21	Polsha	9,7	9,6
22	Bosniya va Gersegovina	8,8	8,8
23	Belgiya	9,9	11,4
24	Italiya	8,8	8,7
25	Portugaliya	9,4	9,1
26	Avstriya	8,7	9,5
27	Litva	9,3	10,0
28	Gretsiya	8,8	8,5
29	Monako	6,7	6,6
30	Ruminiya	9,2	9,0
31	Xorvatiya	9,4	9,0
32	Belorus	10,8	10,5
33	Sloveniya	8,5	8,3
34	Germaniya	8,4	8,5
35	Estoniya	10,2	10,3
36	Vengriya	9,2	9,1
37	Latviya	9,7	9,9
38	Serbiya	9,1	9,0
39	Bolgariya	8,9	8,8



40	Ukraina	9,4	10,5
41	Irlandiya	15,1	14,5
42	Grenlandiya (Daniya)	14,5	14,4
43	Malta	10,2	10,1
44	San-Marino	8,7	8,6

Jadval demogrape.ru ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlarga 26 ta mamlakatlar kiradi. Bular quyidagilar: Norvegiya, Lixtenshteyn, Lyuksenburg, Makedoniya, SHvetsiya, SHveysariya, Niderlandiya, CHernogoriya, Ispaniya, Daniya, Finlyandiya, CHexiya, Polsha, Bel'giya, Portugaliya, Avstriya, Litva, Ruminiya, Xorvatiya, Belarus, Estoniya, Vengriya, Latviya, Serbiya, Ukraina va Malta. Tug'ilish darajasi nisbatan yuqori bo'lgan mamlakatlarga 8 ta mamlakat kiradi, bular: Albaniya, Islandiya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Moldaviya, Irlandiya, Grenlandiya.

Evropa mamlakatlarida tug'ilish darajasi dunyoning boshqa hududlariga nisbatan ancha past hisoblanadi. YUqorida qayd etilganidek, bunga asosiy sabab, bu mamlakatlarda aholining yashash tarzi yuqori darajada ekanligi, ayollarning ijtimoiy mehnat bilan bandligi, nikohda bo'lganlarning kamligi, nikohni bekor qilishning ko'pligi, urbanizatsiya darajasining yuqoriligi va boshqa omillar ta'sir etadi. Evropa mamlakatlarida yashaydigan deyarli barcha tub-joy aholisi o'rtasida aholining tug'ilish darajasi past hisoblanadi. Evropada Osiyo va Afrika mamlakatlaridan ish izlab va boshqa maqsadlar bilan immigrantlar hisobidan Evropaning ko'p mamlakatlari demografik inqirozga uchragan emas. SHunga qaramasdan, Evropaning 15 ta mamlakati demografik inqiroz yoqasidadir. (qarang 2-jadval) Tabiiy o'sish eng past bo'lgan mamlakatlarga Bolgariya, Litva, Latviya, Ukraina, Vengriya va boshqalarni kiritish mumkin. Bu mamlakatlarda aholining tug'ilishi darajasidan o'lim darajasi yuqoridir. SHu bilan birga 15 mamlakatda aholining qarishi kuzatilmoqda.

#### 9-jadval

#### Osiyo mamlakatlarida tug'ilish darajasi (%o hisobida)

№	Mamlakatlar	2010 yil	2014 yil
---	-------------	----------	----------

1	Afg‘oniston	38,8	38,3
2	Ummon	31,0	29,2
3	Iroq	26,8	30,9
4	Iordaniya	25,2	25,5
5	Yaman	24,4	24,3
6	Filippin	24,2	24,0
7	Tojikiston	24,9	23,8
8	Papua Yangi Gvineya	24,8	24,0
9	Kuvayt	20,2	19,6
10	Laos	24,7	23,9
11	Kambodja	24,4	23,4
12	Pokiston	23,1	22,3
13	Qirg‘iziston	23,3	22,6
14	Suriya	22,7	21,7
15	Bangladesh	21,6	19,0
16	Saudiya Arabistoni	18,7	18,4
17	Malayziya	20,0	19,4
18	Mug‘uliston	20,8	19,6
19	Nepal	21,0	19,9
20	Bruney	17,4	17,2
21	BAA	15,5	15,3
22	Turkmaniston	19,4	19,3
23	Isroil	18,4	21,6
24	Xindiston	19,8	19,3
25	Eron	18,2	17,8
26	Yzbekiston	17,0	16,9
27	Butan	18,1	17,5
28	Qozog‘iston	19,6	18,7
29	Baxrayn	13,9	13,5
30	Turkiya	16,8	16,0
31	Indoneziya	17,0	16,4
32	Myanma	18,6	18,2
33	Vetnam	16,2	15,7
34	SHri – Lanka	16,	15,5
35	Ozarbayjon	16,9	16,2
36	Livan	14,8	14,4
37	Katar	9,9	9,7
38	KXDR	14,5	14,6
39	XXR	12,1	12,4
40	Singapur	8,1	8,4
41	Armaniston	13,9	13,3
42	Tailand	11,2	11,1

43	Gruziya	12,9	12.5
44	Koreya Respublikasi	8,2	8.4
45	YAponiya	8,0	7.8

Izoh: Ba'zi kichik mamalakatlar to'g'risida ma'lumotlar yo'q, jadval internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Osiyo mamlakatlari aholi sonining ko'pligi va tug'ilish darajasining nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turadi. Osiyoning sharqiy qismida joylashgan mamlakatlarda aholining tug'ilish darajasi eng past hisoblanadi. 2014-yil ma'lumotlariga ko'ra, YAponiyada aholining tug'ilishi darajasi 7,8%, Koreya Respublikasi va Singapurda 8,4% ga teng. Osiyoning janubi-g'arbiy va markaziy qismlarida aholining tug'ilish darajasi eng yuqoridir. Masalan, Afg'onistonda aholining tug'ilish darajasi 38,3%, Iroqda 30,9% va h.k. 9-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Osiyo mamlakatlarining deyarli hammasida aholining tug'ilish darajasi 2014 yilda 2010 yilga nisbatan kamayib borgan. Faqatgina Isroil, Xitoy, KXDRda aholining tug'ilish darajasi biroz oshgan. Osiyo mamlakatlarida aholi tug'ilish darajasining pasayib borishiga asosiy sabab, birinchi navbatda Xitoyda, shu bilan birga Vetnam, Bangladesh, Singapur, Hindiston va Janubiy Koreyada 1970-yildan boshlab tug'ilish darajasini pasaytirish uchun davlat tomonidan demografik siyosat olib boriladi.

Osiyo mamlakatlarini ham aholining tug'ilishi darajasi jihatidan 3 guruhga bo'lib o'rganish mumkin: past, o'rta va yuqori.

1. Tug'ilish darajasi past 7,8% dan 15 % gacha bo'lgan mamlakatlar.
2. Tug'ilish darajasi o'rtacha 15% dan 20% gacha bo'lgan mamlakatlar.
3. Tug'ilish darajasi yuqori 20% dan 39% gacha bo'lgan mamlakatlar.

Tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlarga YAponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Katar, Tailand, Xitoy, Gruziya, Armaniston KXDR, Livan Baxrayn kiradi. Bu mamlakatlarda aholining tug'ilish darajasi o'rtacha 12,6% ga teng.

Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlarga SHri-Lanka, Vetnam, Ozarbayjon, Myanma, Indoneziya, Turkiya, Qozog'iston, Butan, O'zbekiston, Eron, Xindiston, Turkmaniston, BAA, Bruney, Nepal, Mug'uliston, Malayziya,

Saudiya Arabistoni, Bangladesh, Quvayt kiradi. YUqoridagi mamlakatlarda aholining o'rtacha tug'ilish darajasi 17,8% ga teng.

Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarga Afg'oniston, Iroq, YAman, Iordaniya, YAman, Filippin, Papua-YAngi Gvineya, Tojikiston, Laos, Kambodja, Pokiston, Qirg'iziston, Suriya, Isroil kiradi. Bu mamlakatlarda tug'ilish darajasi o'rtacha 27,9% ni tashkil etadi.

Osiyo mamlakatlari aholisining tug'ilish darajasini tahlili shundan dalolat beradiki, bu mamlakatlarning asosiy qismida tug'ilish yuqori bo'lib, bu guruhga kiruvchi mamlakatlarda aholining tug'ilish darajasi 27,9% ga teng (Antipova 2003). Lekin Osiyo mamlakatlari ichida eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichlari bilan Afg'oniston-38,3%, Iroq -30,9%, YAman-29,2% ajralib turadi (2014-yil). SHuningdek, bu guruhga kiruvchi Suriyada-21,7%, Pokistonda-22,3%, Kambodjada-23,4% ni tashkil qiladi. Osiyoda tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlarda tug'ilish ko'rsatkichi o'rtacha 17,8% ga teng bo'lib, bu guruhga kiruvchi mamlakatlar o'rtasida ham farqlar mavjud, jumladan Nepal, Mug'uliston, Malayziya, Quvaytda aholi tug'ilish darajasi kariyb 20% ga teng bo'lsa, SHri-Lanka, V'etnam va BAA da esa, bu ko'rsatkich 15% dan yuqoriroq hisoblanadi. Osiyo kit'asida aholining tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda, bu ko'rsatkich o'rtacha 12,6% ni tashkil qiladi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlar orasida ham aholining tug'ilish darajasi jihatidan farqlar mavjud. Masalan, YAponiya, Koreya Respublikasi va Singapurda aholining tug'ilishi 8% atrofida bo'lsa, Livan va KXDR da bu ko'rsatkich 14% dan yuqoriroqdir. Dunyoda aholining tug'ilish darajasiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni ba'zi tashkilotlar tomonidan o'rganilib boriladi. Bunday tashkilotlardan eng yiriklari BMT qoshidagi aholishunoslik bo'limidir. Bu tashkilot aholiga doir ma'lumotlarni har bir mamlakatlar tomonidan o'tkaziladigan aholi ruyxatlari yoki tanlanma tadkikotlar ma'lumotlari asosida yigib boradi. Aholi sonini, tug'ilishi, o'limi, tabiiy o'sish, mexanik o'sish va boshqa ma'lumotlarni o'rganish Evropa mamlakatlarida yaxshi yo'lga

qo'yilgan. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikaning ba'zi qoloq mamlakatlarida aholiga doir ma'lumotlar noaniqdir.

Afrika materigi aholining tug'ilish darajasi jihatidan dunyo bo'yicha eng yuqori joy hisoblanadi. Bu materikda aholining tug'ilish darajasi o'rtacha 37% ga teng (2014 yil). Afrikaning ba'zi mamlakatlarida tug'ilish 45% bo'lsa, ba'zilarida 23% ga tengdir. Dunyoning boshqa qit'alarida aholining tug'ilish darajasi pasayib borishi singari Afrikada ham asta sekin aholining tug'ilishi kamayib bormoqda. Masalan, Afrikada 1960-1965 yillarda aholining tug'ilish darajasi 47% bo'lgan bo'lsa, 2001 yilga kelib bu ko'rsatkich 38% ni, 2014 yilga kelib esa 26% ga tengdir. Afrikada hali ham boshqa joylarga nisbatan tug'ilishning yuqoriligiga asosiy sabablardan quyidagilarni aytish mumkin (Bo'rieva, 2008). Hozirga qadar ko'p mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining sustligi, aholisi yashash tarzining, meditsina xizmati va aholi bilimlilik darajasining pastligi, urf-odatlar, ayollar huquqsizligi va boshqalar kiradi. Afrikada tug'ilish darajasi uning turli qismlarida har xil bo'lib, asosan uning markaziy, g'arbiy va sharqiy qismlarida aholining tug'ilish darajasi yuqoriroq. Uning janubiy qismida esa tug'ilish darajasi ancha pastdir.

**10-jadval**

**Afrikadagi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar  
(%o hisobida)**

<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>2010 yil</b>	<b>2014 yil</b>
Niger	46,1	44,8
Uganda	44,1	43,4
Malavi	41,8	41,3
Brundi	42,3	41,7
Mali	45,5	44,4
Burkina-Faso	42,4	41,6
Zambiya	42,4	41,8
Janubiy sudan	37,6	36,2
Efiopiya	37,6	36,9
Tanzaniya	36,8	36,0
S'erra-Leone	37,4	36,7

Angola	38,9	38,6
Somali	40,8	40,0
Mozambik	38,8	38,3
Nigeriya	38,0	37,3
CHad	37,2	36,1

Jadval cisstat.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

### 11-jadval

#### Afrikadagi tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlar (%o hisobida)

Mamlakatlar nomi	2010 yil	2014 yil
Togo	34,5	33,7
San- Tome-Prinsipi	35,1	33,3,,
Gvineya	36,0	35,4
Benin	36,5	35,5
Kamerun	36,5	35,8
Senegal	35,0	34,0
Kongo Respublikasi	36,5	35,1
Madagaskar	33,1	32,1
Ekvatorial Gvineya	33,8	32,8
Ruanda	34,6	33,3
Liberiya	35,0	33,9
Kongo DR	35,6	34,2
Gvineya- Bisau	30,6	32,9
Zimbabe	32,4	31,9
Markaziy Afrika Respublikasi	33,9	34,7
Gabon	34,6	34,3

Jadval cisstat.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

### 12-jadval

#### Afrikadagi tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlar (%o hisobida)

Mamlakatlar nomi	2010 yil	2014 yil
Sudan	30,0	28,5
Namibiya	20,2	27,9
Eritreya	30,6	30,1
Jazoir	23,9	23,0
Kot-d`Ivar	29,2	28,2

Keniya	28,2	25,1
Jibuti	24,0	23,6
Liviya	18,4	17,8
Misr	23,3	30,3
Gambiya	31,7	30,8
Mavritaniya	31,8	30,9

Jadval cisstat.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Afrikada joylashgan mamlakatlarni ham aholining tug'ilish darajasi jihatidan ham 3 guruhga ajratib o'rganish mumkin. Bular: tug'ilish darajasi yuqori, o'rtacha va nisbatan past bo'lgan mamlakatlar.

- 1) Tug'ilish darajasi yuqori 36% dan 45% gacha bo'lgan mamlakatlar.
- 2) Tug'ilish darajasi o'rtacha 32% dan 36% gacha bo'lgan mamlakatlar.
- 3) Tug'ilish darajasi past 18% dan 31% gacha bo'lgan mamlakatlar.

Afrikada joylashgan mamlakatlarning asosiy qismida tug'ilish darajasi yuqoridir. 12-jadval shuni ko'rsatadiki, 2010 yilga nisbatan aholining tug'ilish darajasi hamma mamlakatlarda birmuncha pasaygan. Masalan, Niger mamlakatida 2010 yilda tug'ilish 46,1% bo'lsa, 2014 yilga kelib bu ko'rsatkich 44,8 % tashkil etgan. 11-jadvalda Afrikadagi tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan mamlakatlar ko'rsatilgan. Bu ma'lumotlarga binoan bu guruhga kiruvchi mamlakatlarda ham 2010 yilga nisbatan 2014 yilda aholining tug'ilishi pasaygan, Jumladan, Gvineyada 2010 yilda tug'ilish 36% bo'lsa, 2014 yilga kelib tug'ilish darajasi 35,4% ni tashkil etgan. Tahlillar shundan dalolat beradiki, Afrikadagi mamlakatlarning asosiy qismi aholining tug'ilish darajasi yuqori va o'rtacha guruhlarga kiradi. 9-jadvalda shuni ko'rish mumkinki, Afrikadagi faqatgina 11 ta mamlakat tug'ilish darajasi past guruhga kiradi. Bu mamlakatlarda aholining tug'ilish darajasi orasidagi farq katta. Masalan, 2014 yil ma'lumotiga ko'ra, Liviyada tug'ilish darajasi 17,8% bo'lsa, Mavritaniyada bu ko'rsatkich 30,9% ga tengdir. SHimoliy Amerika mamlakatlarida aholi tug'ilish darajasi Afrika va Osiyo mamlakatlariga nisbatan ancha pastdir, asosiy sabab bu materikda yuqori darajada rivojlangan ikkita katta davlat AQSH va Kanada joylashgan. Ma'lumki, rivojlangan davlatlarda aholi yashash sharoiti va

hayot tarzi yuqori darajadadir. SHuning uchun bu davlatlarda aholi tug‘ilish darajasi past. Amerikalik demograflarning fikricha, 1970 yilda aholining turmush darajasi 55% dan 2003 yildan 14%ga tushib qolishiga sabab, Amerika ayollarining jamiyatdagi vazifalarining o‘zgarishidir (E.A.Antipova, 2003). SHimoliy Amerikada AQSH va Kanadadan tashqari yana bir nechta katta va kichik rivojlanayotgan mamlakatlar joylashgan.

### 13-jadval

#### SHimoliy Amerika mamlakatlarida aholining tug‘ilishi (% hisobida)

Mamlakatlar nomi	2010	2014
AQSH	13.4	12.5
Kanada	10.2	10.3
Meksika	19.0	18.5
Kuba	9.9	10.8
Dominika	15.5	15.2
Yamayka	18.4	18.0
Kosta-Rika	16.0	15.7
Panama	18.6	18.1
Nikaragua	18.4	17.9
Gaiti	22.8	23.3
Gonduras	23.6	22.8
Beliz	25.1	24.3
Dominikan Respublikasi	18.9	18.6
Salvador	16.7	16.3
Gvatemala	25.4	24.5

Jadval [cisstat.org](http://cisstat.org) sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Bular Meksika, Kuba, Panama va boshqa mamlakatlardir. 13-jadval ma’lumotlaridan shuni ko‘rish mumkinki, 2010 yilga nisbatan 2014 yilga kelib, SHimoliy Amerika mamlakatlarining deyarli barchasida tug‘ilish darajasi pasayib borgan. Masalan 2010 yilda AQSHda tug‘ilish 13,4% bo‘lsa, 2014 yilga kelib 12,5% ni tashkil etadi. Faqat Kanada, Kuba, Gaiti va Gvatemalada tug‘ilish darajasi ozgina o‘sgan. Janubiy Amerikada rivojlanayotgan mamlakatlar joylashganligi sababli, bu erda aholining tug‘ilish darajasi yuqoridir. Bu materikda Braziliya, Argentina, Peru kabi katta davlatlar joylashgan.

### 14-jadval



**Janubiy Amerika mamlakatlarida aholining tug‘ilish darajasi  
(%o hisobida)**

Mamlakatlar nomi	2010	2014
Braziliya	14,7	14,3
Argentina	16,8	17,0
Peru	18,5	18,0
Kolumbiya	16,7	16,3
Boliviya	23,2	22,4
Venesuela	19,4	19,2
Paragvay	16,6	16,5
Urugvay	13,1	13,0
CHili	13,9	13,7
Ekvador	18,9	18,2
Gayana	15,9	15,5
Surinam	16,7	16,0

Jadval wikipedia.org sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

14-jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Janubiy Amerika mamlakatlarida ham aholining tug‘ilish darajasi yildan-yilga pasayib bormoqda. Jumladan, Argentina mamlakatlaridan tashqari, qolgan barcha mamlakatlarda tug‘ilish 2010 yilga nisbatan 2014 yilda pasaygan. Bu mamlakatlar ichida Braziliya, Urugvay va CHilida eng past (13-14%o) eng yuqori ko‘rsatkich bilan Boliviya va Venesuela ajralib turadi, bu erda tug‘ilish darajasi 19-22%o ga teng. Avstraliya va YAngi Zelandiya aholisining tug‘ilish darajasi o‘rtacha 12-13%o bo‘lib, bu erning tub joy aholisi o‘rtasida tug‘ilish yuqori. Amerika va Evropadan kelganlar orasida esa tug‘ilish darajasi pastroqdir.

Dunyoda aholining tug‘ilishi bilan yana bir odam ko‘payadi, lekin aholining takror barpo bo‘lishining ikkinchi elementi - o‘lim ham bor. Er sharida bir yilda 56 mln.ga yaqin odam har xil sabablarga ko‘ra vafot etadi. Qadimda odam paydo bo‘lgan davrda hamda ibtidoiy va quldorlik davrlarida aholi o‘rtasida o‘lim darajasi juda yuqori bo‘lgan. CHunki, noqulay iqlim, tabiiy ofatlar, qabilalar o‘rtasidagi urushlar, keng tarqaladigan kasalliklar, tibbiy xizmatning nihoyatda pastligi, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar orasida o‘limning yuqoriligi, onalarning tug‘ish paytidagi o‘limi, tabiiy ofatlarda odamlarning halok bo‘lishi va h.k.

Ma'lumki o'lim biologik xodisa bo'lib, har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lsa, u erda yashaydigan aholining moddiy ta'minoti ham yaxshi bo'ladi, bu esa yashash sharoitining yaxshilanishiga olib keladi. Yashash sharoiti va hayot tarzi yaxshi bo'lgan mamlakatlarda meditsina xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunday rivojlangan mamlakatlarda o'lim darajasi past, lekin so'nggi yillarda bu mamlakatlarda avtohalokatlar, alkogolizm va giyohvandlik tufayli o'lim darajasi yuqori bo'lmoqda.

Aholishunos olimlar jumladan, E.A.Antipovaning yozishicha, aholining o'limiga ko'pgina biologik va ijtimoiy omillar ta'sir etadi. Bularning asosiylari - tabiiy-iqlimiy, demografik, iqtisodiy (yashash tarzi darajasi, aholi mashg'uloti), madaniy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik aholi joylashuvi harakteri, migratsiya va boshqalar. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, o'lim darajasining oshishiga OITS (SPID) kasalligining ko'payganligi sabab bo'ldi.

Demografik tahlil nuqtai nazaridan, o'lim ikkita katta guruhga bo'linadi: endogen (ichki organizm rivojlanishi) va ekzogen (tashqi muhit bilan bog'liq). Endogen omillarga organizmning qarishi, avlodiy kasalliklar kirs, ekzogen omillarga esa, tasodifiy o'lim (tabiiy ofatlar, keng tarqaladigan kasalliklar) va h.k.

## 15-jadval

### O'lim sabablari tarkibi (% hisobida)

Sabablar	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatalar
YUqumli kasalliklar	1,4	14,4
Havfli yangi paydo bo'lgan kasalliklar (havfli shish, o'sma)	19,7	4,9
Qon aylanash tizimi kasalliklari	49,3	13,4
Nafas olish organlari kasalliklari	8,2	17,6
Hazm qilish organlari kasalliklari	4,6	9,7
Dushmanlik anomaliyasi kasalliklari (me'yordan chiqish)	2,4	5,6
Baxtsiz hodisalar, zaharlanish, jarohatlanish	7,6	7,0
Boshqalar	6,8	27,4

E.A.Antipova Geografiya naseleniya mira, 2003

Jadval tahlili shundan dalolat beradiki, rivojlangan mamlakatlarda o'lim sabablarining asosiy qismi, ya'ni 50% qon aylanishi tizimi kasalliklariga chalinganlar tashkil etadi. Bu mamlakatlarda o'lim sabablari tarkibida 2-o'rinni eng xavfli o'smalar egallaydi. Bu kasalliklarga chalinib vafot etgan kishilar 19% dan yuqoridir. Bu ko'rsatkich jihatidan rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan farqi katta hisoblanadi. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda o'lim sabablarining 18% ga yaqini nafas olish organlari kasalliklariga to'g'ri keladi. SHu bilan birga hali ham rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqumli kasalliklar bo'lib, bu kasalliklarga chalinib vafot etganlar 14% dan yuqoridir. Bu mamlakatlarda o'lim sabablari tarkibida boshqa har xil sabablarga ko'ra 28% ga yaqin vafot etganlar kiradi, har xil sabablarga odamlarning hayvonlar tomonidan o'ldirilishi, tabiiy ofatlar va boshqalar.

Dunyoda aholining o'lim darajasi XVIII asrning ohirigacha juda yuqori bo'lgan va 40-50% ni tashkil etgan. Asta-sekin davlatlarning taraqqiy etishi va tibbiy xizmatning rivojlanishi bilan o'lim darajasi pasayib keldi. Asosan rivojlangan mamlakatlarda aholining o'lim darajasi pasayib bordi. Lekin so'nggi yillarda aksariyat rivojlangan mamlakatlarda ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan o'lim darajasi yuqori bo'lmoqda. Internet ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniyada so'nggi yillarda aholining o'lim darajasi 10-11% ga teng, bu esa Meksika va Venesuela mamlakatlari o'lim ko'rsatkichlariga nisbatan qariyb 2 marta yuqori. Buyuk Britaniyada 65 yosh va undan katta yoshdagilar 15-16%ni tashkil etadi. Meksikada esa bu ko'rsatkichlar bor yo'g'i 3% ga teng. O'lim darajasining eng yuqori ko'rsatkichlari Afrikaning eng qashshoq mamlakatlari – Serra-Leone, Efiopiya va Angola ajralib turadi. Bu mamlakatlarda ko'rsatkich 20-30% ga teng. SHuningdek, o'lim darajasining past ko'rsatkichlari neft qazib oluvchi arab mamlakatlaridan Quvayt va BAA hisoblanadi. Bu mamlakatlarda o'lim darajasi 3% ni tashkil etadi. Quvayt va BAA da yosh bolalar va qariyalar ulushi ozligi uchun o'lim darajasi pastdir. Bu mamlakatlar aholisining asosiy qismini boshqa qoloq mamlakatlardan ishga kelgan yaroqli o'rta yoshlilar ko'pchilikni tashkil etadi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda dunyo bo'yicha o'lim darajasi o'rtacha 8% ni tashkil etadi. SHuning uchun hozirgi sharoitni hisobga olib, dunyoda o'lim darajasi shkalasi quyidagicha qabul qilingan:

5‰ dan kam-past;

5-10‰ – o'rtacha;

10-15‰ o'rtachadan yuqori;

15-20‰ yuqori;

20% dan ortiq - juda yuqori (E.A.Antipova, 2003).

Dunyoda aholining o'sish darajasi 1950 yilda -20‰, 1990 yilda-10‰, 2002 yilda 9‰, 2016 yilda esa 8‰ ni tashkil etadi.

### 16-jadval

#### Dunyoning ba'zi mamlakatlarida aholining o'lim darajasi (‰ hisobida)

Mamlakatlar nomi	2010	2014
Ispaniya	9,0	9,1
SHveysariya	8,1	8,2
SHvetsiya	9,4	9,4
Ruminiya	11,8	11,9
Vengriya	12,7	12,8
Latviya	13,6	14,4
Rossiya	13,1	12,9
Bolgariya	14,3	14,5
Ukraina	15,7	14,4
Iordaniya	3,8	3,8
BAA	1,9	2,0
Quvayt	2,1	2,2
Baxrayn	2,6	2,7
Singapur	3,4	3,5
Namibiya	13,6	8,1
Angola	11,7	11,3
Nigeriya	13,1	12,7
Mozambik	12,3	11,9
O'zbekiston	5,3	5,3

Jadval wikipedia.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

16-jadval ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, Evropa mamlakatlarida aholi o'lim darajasining yuqoriligiga aholining qarishi ta'sir etmoqda. Afrika mamlakatlarida esa, mamlakatlarning qoloqliligi, tibbiy xizmatning nihoyatda pastligi, sanitariya-gigienaga amal qilmaslik va boshqalar ta'sir ko'rsatadi. Neft qazib oluvchi arab mamlakatlarida esa, aholining o'lim darajasi jihatidan eng past ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi. Bu mamlakatlarda aholi yashash tarzining yuqoriligi, tibbiy xizmatning rivojlanganligi hamda yuqorida aytilganidek, yosh bolalar va qariyalarning kamligi sababchidir. Bu mamlakatlarga rivojlanayotgan mamlakatlardan mehnatga yaroqli kishilar kelib ishlashadi, shular hisobidan aholisining asosiy qismini o'rta yoshdagilar tashkil etadi. Evropa mamlakatlarida o'lim darajasi o'rtacha o'lim darajasidan yuqoriroq hisoblanadi.

Evropaning ba'zi mamlakatlari jumladan, Lyuksemburg va Lixtenshteynda aholi o'lim darajasi 7% dan yuqoriroq bo'lsa, Bolgariya va Latviyada bu ko'rsatkich 14% dan yuqoridir. Xullas, Evropa mamlakatlarida o'lim darajasi o'rtacha 11% ga yaqin. SHarqiy Evropada joylashgan mamlakatlarda o'lim darajasi G'arbiy Evropa mamlakatlariga nisbatan balandroqdir. Bunga sabab, bu mamlakatlarda aholining turli xil kasalliklar bilan xastalanishi, ya'ni tug'ilgan bolalar o'rtasida Evropaning boshqa joylariga nisbatan o'lim darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishda ishlovchilarning jarohatlarinishi, alkogolizm, giyohvandlikning rivojlanganligi, o'zaro urushlar va boshqalar ta'sir etadi.

Osiyo mamlakatlarida ham aholi o'lim darajasi uning turli qismlarida farq qiladi. Masalan, 2014 yil ma'lumotiga ko'ra, Qatarda o'lim darajasi 1,5% bo'lsa, Afg'onistonda bu ko'rsatkich 13,7% ga teng. Osiyoning janubiy-g'arbiy qismidagi arab mamlakatlarining asosiy qismida o'lim darajasi past, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa o'lim darajasi nisbatan yuqori. Osiyo mamlakatlarida aholining o'lim darajasiga asosan tibbiy xizmat holati, ayollarning yosh turmushga chiqib, ko'p bola ko'rishi natijasida sog'lig'i yomonlashib, o'lim darajasigacha etishi, ya'ni tug'ilgan chaqaloqlar orasida o'lim darajasining nisbatan yuqoriligi ta'sir etadi. O'lim darajasi Osiyoning yirik mamlakatlarida quyidagicha: YAponiya-

9,6%, Hindiston-7,3%, Xitoyda-7,7% ni tashkil qiladi. Osiyo mamlakatlarida o'lim darajasi o'rtacha 7% ga teng.

SHimoliy Amerika mamlakatlarida o'lim darajasi AQSH da -8,2%, Kanadada-8,5% ni tashkil etadi. SHimoliy Amerika mamlakatlarida Evropa mamlakatlariga nisbatan o'lim darajasi pastroqdir. Lotin Amerikasi mamlakatlarida so'nggi yillarda tibbiy xizmatning yaxshilanishi, mamlakatlarning iqtisodiy-siyosiy jihatdan rivojlanib borishi, o'lim darajasining pasayib borishiga ta'sir etmoqda. Masalan o'lim darajasi Braziliyada-6,6%, Meksikada-5,3%, Argentinada-7,5%, Boliviya-6,5% va h.k. Lotin Amerikasi mamlakatlarida o'rtacha o'lim darajasi 6,5% ni tashkil qiladi.

Afrika mamlakatlarining asosiy qismi qoloq mamlakatlar bo'lib, bu erda aholining o'lim darajasi dunyoda eng yuqori joy hisoblanadi. Afrikaning shimoliy qismlarida joylashgan mamlakatlarda, jumladan Jazoirda o'lim darajasi 4,3%, Misrda 4,7%, Liviyada 3,6% bo'lsa uning markaziy va janubiy qismlarida bu ko'rsatkich yuqoriroqdir. Masalan, Sudanda 7,5%, Namibiyada 8,1%, Ugandada 10,4%, Nigerda 12,1% va x.k. Afrikada aholining o'rtacha o'lim darajasi -13,5% ga teng. Bu hududda aholining o'lim darajasining yuqoriligiga asosiy sabablar quyidagilar: hali ham ayollarning huquqsiz ekanligi, yosh turmushga chiqishi, ko'p farzand ko'rishi, tibbiy xizmatning pastligidir. BMT ma'lumotiga ko'ra, Afrika aholisining 28 mln dan ortiq qismi OITS kasalligi bilan chalingan. Ko'p yillar davomida Afrikaning Sahroi Kabirdan janubda joylashgan mamlakatlarida OITS kasalligi tufayli aholi o'lim darajasi yuqori bo'lmoqda.

Avstraliyada tug'ilish ham, o'lim darajasi ham o'rtacha bo'lib, bu erda aholining o'lim darajasi 7,3% ni tashkil etadi.

Aholining o'rtacha umr ko'rishi muddati deganda, aholining dunyoga kelib yashagan davriga tushuniladi. Insoniyatning o'rtacha umr ko'rishi muddatiga birinchi navbatda o'lim darajasi ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo aholisining o'rtacha umr ko'rish muddati XX asr boshlarida aholi o'rtacha 35-40 yilni, so'nggi yillarda esa o'rtacha 63-68 yilni tashkil etadi. Aholining o'rtacha umr ko'rishi muddatiga juda ko'p omillar ta'sir etadi. Bulardan

eng asosiysi go‘daklar o‘limi hisoblanadi. Qaysi mamlakatda go‘daklar o‘limi yuqori bo‘lsa, o‘sha joyda aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati qisqa bo‘ladi. SHu bilan birga, aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddatiga-albatta, aholining yashash sharoiti, moddiy jihatdan ta‘minlanishi, tibbiy jihatning holati, ijtimoiy tarkibi, ayollarning jamiyatdagi tutgan o‘rni va boshqa omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddatini aniqlashda ayniqsa go‘daklar o‘limi alohida ahamiyatga egadir. Go‘daklar o‘limining yuqori bo‘lishi aholi o‘rtasida umr ko‘rish muddatini ko‘rsatkichlarini qisqarishiga olib keladi. Go‘daklar o‘limi deganda, har 1000 ta tug‘ilgan bolaga nisbatan 0 dan 1 yoshgacha bo‘lgan o‘lim soni tushuniladi. XIX asr va XX asrning birinchi yarmida go‘daklar o‘limi rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori bo‘lgan. 1900 yilda G‘arbiy Evropa davlatlarida har 1000 ta tirik tug‘ilgan chaqaloqdan 140 tasi, Markaziy Osiyo davlatlarida esa 500-600 tasi hayotdan ko‘z yumgan. 1950 yillarda go‘daklarning o‘lim holati birmuncha kamaydi. Evropa davlatlarida go‘daklar o‘limi 45 % ni (eng yuqori 69 %-Gretsiyada, eng past-22 % SHvetsiyada), sobiq SSSR tarkibiga kirgan davlatlarda esa 80-83 % ni tashkil etgan (Bo‘rieva, 2011). XIX asrning 2-yarmidan boshlab, dunyoda go‘daklar o‘limini kamaytirish uchun juda ko‘p ishlar qilindi. Natijada go‘daklar o‘limi kamayib bordi.

So‘ngi yillar ma‘lumotlariga ko‘ra, SHvetsiya va YAponiyada go‘daklar o‘limi 3% bo‘lsa, AQSHda -7 %, Rossiyada-13 % ga teng. Bu ko‘rsatkich rivojlanayotgan mamlakatlarning ba‘zilarida juda baland. Liberiya -139%, Afg‘onistonda – 154 % ni tashkil qiladi. Dunyoning turli qismlari va mamlakatlari orasida aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati jihatidan keskin farqlar mavjud. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati jihatidan dunyoda eng yuqori ko‘rsatkichlar bilan Evropa, Amerika va Avstraliya hududlari ajralib turadi. 2015-yil statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, eng uzoq yashaydiganlar Gangkongda- 84 yosh, 2- YAponiyada – 83,5 yosh, 3- Italiyada 83,1 yosh va h.k.

**17-jadval**

**Dunyo aholisining o‘rtacha umr ko‘rish muddati eng yuqori bo‘lgan mamlakatlari (2015 y)**

<b>Reyting</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>O‘rtacha umr ko‘rish muddati (yil)</b>
1	Gonkong	84,0
2	YAponiya	83,5
3	Italiya	83,1
4	Singapur	83,0
5	SHveysariya	83,0
6	Islandiya	82,6
7	Ispaniya	82,6
8	Avstraliya	82,4
9	Isroil	82,4
10	Fransiya	82,2
11	SHvetsiya	82,2
12	Kanada	82,0

Jadval wikipedia.org sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, asosan Evropa mamlakatlarida aholining o‘rtacha umr ko‘rish yuqoridir. Jadvalda keltirilgan 12 ta mamlakatlardan 6 tasi Evropa hududida joylashgan. Bu hududda joylashgan mamlakatlarda o‘rtacha umr ko‘rish muddati o‘rtacha 82,4 yoshni tashkil etadi. AQSH, Kanada aholisining o‘rtacha umr ko‘rish muddati 79,1 va 82 yoshga teng. Markaziy Amerika mamlakatlarida ham bu ko‘rsatkich nisbatan yuqoridir. Bu erda aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati 79 yoshni tashkil qiladi. Bu hududda eng yuqori ko‘rsatkich bilan Kosta Rika va Kuba 79,4 yosh bilan ajralib turadi. Osiyo mamlakatlari aholisining o‘rtacha umr ko‘rish muddati jihatidan, uning turli hududlari orasida farqlar kattadir. Masalan, Gangkongda 84 yosh, YAponiyada 83,5 yosh, Singapurda 83 yosh, Isroilda 82,6 yosh o‘rtacha umr ko‘rish muddati bo‘lsa, Afg‘onistonda bu ko‘rsatkich eng past bo‘lib, 60,4 yoshni, Papua-YAngi Gvineyada 62,6 yoshni tashkil etadi. Osiyo mamlakatlarida aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati o‘rtacha 72,7 yoshga teng. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati eng past ko‘rsatkichlar Afrika hududida joylashgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Afrika aholisining o‘rtacha umr ko‘rish o‘rtacha 59,9 yoshni tashkil etadi. Bu hududda uzoq umr ko‘ruvchilar Jazoir va Tunisda yashaydiganlar, bu erda aholining o‘rtacha umr ko‘rishi 74,8 yoshga teng. Eng past ko‘rsatkich Lesoto - 49,8 yosh va Svazilend 49 yosh bilan ajralib turadi. SHu bilan birga, dunyo



aholisining o'rtacha umr ko'rishi jihatidan erkaklar va ayollar o'rtasida farqlar mavjud. Ko'pgina mamlakatlarda, ya'ni asosan rivojlangan mamlakatlarda ayollar erkaklarga nisbatan ko'proq yashaydi. Masalan, Evropa mamlakatlarida erkaklarning o'rtacha umr ko'rishi 70 yosh bo'lsa, ayollarda 78 yosh (70/78). Qoloq mamlakatlarda, asosan Afrika mamlakatlarining ba'zilarida ayollarning huquqsizligi, savodsizligi, og'ir mehnat bilan shug'ullanishi, ochlik ta'sirida ayollarning o'rtacha umr ko'rishi erkaklarga nisbatan qisqaroq. Afrikaning Mozambik, Botstvana, Lesoto va Malavida esa, erkaklarning o'rtacha umr ko'rishi qisqaroqdir. Bu mamlakatlarda erkaklarda bu ko'rsatkich o'rtacha 35-36 yosh bo'lsa, ayollarda 37-38 yosh hisoblanadi. Amerika mamlakatlarida, Osiyo mamlakatlarining asosiy qismida ham o'rtacha umr ko'rish muddati uzoqligi ayollar hissasiga to'g'ri keladi.

#### **2.4. Aholining mexanik harakati**

##### **Reja:**

1. Aholining mexanik harakati tushunchasi.
2. Migratsiya turlari va hususiyatlari.
3. Aholi migratsiyasining yuzaga kelish sabablari.
4. Halqaro migratsiyaning guruhlanishi.

Aholining mexanik harakati aholining tabiiy harakatidan farq qilib, aholining mexanik harakati yoki migratsiya aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtincha(BMT me'yori bo'yicha 6 oydan kam bo'lmagan vaqt davomida)<sup>2</sup> o'zgartirish maqsadida bir joydan ikkinchi joyga ko'chishiga aytiladi. Aholi migratsiyasi bu ijtimoiy jarayon bo'lib, u ishlab chiqarish kuchlarining joylashishi va aholi sonining o'sishi bilan bevosita bog'liq. Migratsiya aholining joylashuvi va uning hududiy tarkibiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHu bilan birga aholi migratsiyasi chuqur geografik jarayon hisoblanib, regionlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

---

<sup>2</sup> Демографический энциклопедический словарь. М.,1985. ст.606.

sharoitida ichki farqlarni ifodalaydi. Migratsiya ishlab chiqarishning hududiy tarkibi va aholi joylashuvi o'rtasidagi munosabatlarga qulay sharoit yaratishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Dunyo aholisining ko'payishiga faqat tabiiy o'sish ta'sir etsa, dunyo mamlakatlari aholisining o'sishiga tabiiy o'sish hamda mexanik o'sish, ya'ni aholi migratsiyasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Aholi migratsiyasi ichki, ya'ni bir mamlakat doirasida, yoki tashqi, ya'ni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga aholining ko'chishi tushiniladi. Bundan tashqari migratsiya doimiy yoki vaqtincha bo'ladi. SHuningdek aholi bir yorig'lik kun davomida, ya'ni shahardan qishloqqa yoki qishloqdan shaharga ishga borib kelishi mayatniksimon harakat deyiladi. Bu jarayon mayatniksimon migratsiya emas, balki mayatniksimon harakat, chunki aholi yashash joyini o'zgartirgani yo'q. Ilmiy adabiyotlarda aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini aholi migratsiyasi yoki aholining mexanik harakati deyiladi.

Dunyoning turli mamlakatlarida ko'chib kelgan va ko'chib ketgan aholini har xil nomlaydi. Ba'zi mamlakatlarda ko'chib kelganlarni migrantlar, ba'zilarida immigrant, ba'zi joylarda emigrantlar deb ataladi. Aholining mexanik harakati demografik jarayon hisoblanib, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatiga tez ta'sir etadi. SHu bilan birga, aholi migratsiyasi-aholi sonining ko'payishi yoki kamayishiga, aholining yosh tarkibi va jinsiy tarkibining o'zgarishiga, ba'zi mamlakatlarda jamiyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Aholi migratsiyasi har xil sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Ularning eng asosiylari quyidagilar:

- iqtisodiy sabablar, aholining hayot darajasini yaxshilash maqsadida boshqa rivojlangan mamlakatlarga yoki qishloqlardan shaharga ish qidirib borishi va h.k;
- siyosiy sabablar, urushlar, davlat to'ntarishlari, revolyusiya paytida aholi boshqa joyga ko'chishga majbur bo'lishi;
- ekologik sabablar, aholi hayotiga xavf bo'lish;

- demografik sabablar, masalan, oilaviy sharoit tufayli erining yashash joyiga xotining ko‘chib o‘tishi;
- diniy sabablar, masalan, Hindistondan musulmonlarning Pokistonga ko‘chishi;
- milliy sabablar, davlatlar o‘rtasidagi chegaralar o‘tkazishda o‘zining davlatiga aholining o‘tishi va h.k.

Antik davrning oxiri va o‘rta asrlarning boshlarida ruy bergan hamda adabiyotlarda “xalqlarning buyuk ko‘chish davri” deb nomlangan migratsion harakatlar Evropa va Osiyodagi ko‘p xalqlarning etnik tarkibiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy va shimoliy Evropaga german xalqlarining joylashuvi, ularning Britaniya orollariga kirib borishi, shu davrga to‘g‘ri keladi. SHu davrda slavyan xalqlari SHarqiy Evropa hamda Bolqon yarim orollarini egalladi( Asanov, 1978).

XV-XVI asrlardagi bo‘lgan geografik kashfiyotlar, ya’gi dunyo-Amerikani ochilishi, Evropa mamlakatlaridan inglizlar, fransuzlar, ispanlar, portugallar va boshqalarning Amerikaga ko‘chib o‘tishi, keyinchalik Avstraliyaning kashf etilishi, bu erga ham evropaliklarning ko‘chib o‘tishi va egallashini aytish mumkin. SHuningdek, yangi erlarning kashf etilishi bilan faqatgina Evropa xalqlari aholi migratsiyasiga qatnashmasdan, ular asosan Amerikaga Afrikadan negrlarni qul qilib olib kelishgan, demak Afrika aholisi ham majburiy migratsiyaga qatnashgan.

XVIII va XIX asrlardagi eng yirik migratsiya Evropadan boshqa joylarga ko‘chib ketish bilan bog‘liq bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya’ni Rossiyada kapitalistik ishlab chiqarishning rivojlanib borishi bilan mamlakatlarning Evropa qismidan Osiyo qismi(Sibir, Qozog‘iston, O‘rta Osiyo) ga ko‘chib o‘tish ancha kuchaydi. 1861-1914 yillar davomida Rossiyaning g‘arbidan sharqiga 5 ming kishiga yaqin aholi, asosan ruslar, ukrainlar, belaruslar, tatarlar ko‘chib o‘tdi. XIX asr va XX asr boshlarida Xitoydan Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari(Malayziya, Tailand, Indoneziya va boshqalar) ga, YAponiyadan Gavayi orollariga, AQSHga va ayniqsa, SHimoliy-SHarqiy Xitoy hamda Koreyaga, Hindistondan SHri-Lankaga, Janubiy va SHarqiy Afrika

mamlakatlarga, Janubi-SHarqiy Osiyo(Myanna, Malayziya)ga va boshqa joylarga aholi ko'chib o'tdi (Asanov, 1978).

Aholi migratsiyasi tufayli mamlakatlar aholining milliy tarkibi, yosh-jinsiy tarkibida katta o'zgarishlar bo'ladi.

Migratsiyada asosan o'rta yoshdagi erkaklar ko'proq qatnashadi. Bu esa o'sha ko'chib borgan mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirishga olib keladi.

Turkistonni Rossiya bosib olishini, birinchi va ikkinchi jahon urushlari ham aholi migratsiyasining kuchayishiga olib keldi. Jumladan, O'rta Osiyo hududida ham juda ko'p millatlar –ruslar, ukrainlar, tatarlar va boshqalar ko'chib kelgan.

So'nggi yillarda AQSH, Kanada, Koreya, Isroil, BAA, Rossiya va boshqa Evropaning ko'p mamlakatlarida aholi migratsiyasi rivojlangan. Bu davlatlarda aholi asosan ishlash uchun, hayotini yaxshilash maqsadida bormoqda.

XXI asr boshlarida dunyo hududlarida xalqaro migratsiya jarayoni kuchaydi. Mutaxassislar xalqaro migratsiyada ishtirok etayotgan aholini asosan 6 guruhga ajratganlar.

1. Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan boshqa davlatga ketgan immigrantlar.
2. Migrant-mehnatkashlar.
3. Nolegal-immigrantlar.
4. Qochoqlar.
5. Talabalar, stajyor-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar.
6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar-turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarda qatnashuvchilar va h.k (Bo'rieva, 2011).

Aholi migratsiyasi har 100 kishi yoki 1000 kishi hisobida hisoblab boriladi. Migratsiya saldosi deganda, bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan aholining nisbati(ayirmasi)ga tushuniladi. Migratsiya saldosi musbat va manfiy bo'ladi. Masalan, O'zbekistoda 2013 yilda 155084 kishi kelgan, shu yili 189650 kishi ketgan. YUqorida aytilganidek, kelganlar sonidan ketganlar sonini ayiramiz, ya'ni  $155084 - 189650 = -34566$ . Demak, 2013 yilda kelganlarga nisbatan

ketganlar ko'pligi sababli, migratsion o'sish - 34566 kishini tashkil etadi. Migratsiya saldosi esa manfiy hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning aksariyatida aholi migratsiyasi saldosi musbat hisoblanadi, chunki bu mamlakatlarda keluvchilar ketuvchilarga nisbatan ko'pdir. Bunday mamlakatlar aholisi faqatgina tabiiy o'sish orqali ko'paymasdan, balki mexanik ravishda ham ko'payib boradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligida esa, aholi migratsiyasi manfiy bo'lib, bu mamlakatlardan mehnatga yaroqli bo'lgan aholi boshqa mamlakatlarga vaqtincha yoki doimiy ko'chib ketsa, bu mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etadi.

### 18-jadval

#### Aholi migratsiya saldosi musbat bo'lgan mamlakatlar(2015)\*

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>Migrantlar soni %o hisobida</b>
1	Avstraliya	5.65
2	AQSH	3.86
3	Bahrayn	13.09
4	Belgiya	5.87
5	Botsvana	4.56
6	Buyuk Britaniya	2.54
7	Bruney	2.43
8	Gretsiya	2.32
9	Jibuti	6.06
10	Isroil	2.24
11	Irlandiya	4.09
12	Islandiya	4.43
13	Ispaniya	8.31
14	Italiya	4.10
15	Kanada	5.66
16	Qatar	22.39
17	Kipr	9.48
18	Liviya	7.80
19	Lixtenshteyn	5.08
20	Lyuksemburg	17.16
21	Monako	3.83
22	Malta	1.98
23	Nepal	3.86
24	Niderlandiya	1.95

\* [https:// ru. Wikipedia.org/w/index.php](https://ru.wikipedia.org/w/index.php).

25	YAngi Zelandiya	2.21
26	Norvegiya	7.25
27	BAA	12.36
28	Portugaliya	2.67
29	Rossiya	1.69
30	San –Marino	8.03
31	Singapur	14.05
32	Turkiya	2.16
33	Finlyandiya	3.10
34	Fransiya	1.09
35	Xorvatiya	1.39
36	CHexiya	2.33
37	SHveysariya	4,74
38	SHvetsiya	5,42
39	JAR	2,42

Jadval wikipedia.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

18-jadvalda aholi migratsiya saldosi musbat bo'lgan mamlakatlar 2015 yil ma'lumoti bo'yicha berilgan. Jadval tahlili shundan dalolat beradiki, dunyo mamlakatlarining 40 dan ortig'ida aholi migratsiyasi musbat bo'lib, Qatar-22,39%, Lyuksemburg-17,16%, Singapur-14,05%, Baxrayn-13,09%, BAA-12,36% eng yuqori ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi. Keyingi o'rinlarda Norvegiya, San-Marino, Liviya va boshqa davlatlar egallaydi. Jadvalga qarab shunday xulosa qilish mumkinki, bu jadvalga keltirilgan mamlakatlarning asosiy qismida yashash tarzining yuqoriligi, ishlab chiqarishning rivojlanganligi sababli bu mamlakatlarda aholi migratsiyasi musbat hisoblanadi. Iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanganligi tufayli, bu mamlakatlarga ishchi kuchi etishmaydi. SHuning uchun boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan mehnatga yaroqli kishilar kelib ishlashadi. Dunyoda mashhur bo'lgan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Rossiya, SHveysariya va boshqa davlatlarda ham aholi migratsiyasi musbat bo'lib, bu davlatlarda migratsiya saldosi o'rtacha 3,52% ni tashkil qiladi.

**19-jadval**

**Aholi migratsiya saldosi manfiy bo'lgan mamlakatlar (2015)\***

\* [https:// ru. Wikipedia.org/w/index.php](https://ru.Wikipedia.org/w/index.php).

	<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>Migrantlar soni %hisobida</b>
1	Albaniya	-3,30
2	Armaniston	-5,80
3	Afg'oniston	-1,51
4	SHarqiy Timor	-3,86
5	Gaiti	-2,76
6	Gayana	-8,06
7	Gambiya	-2,12
8	Gana	-2,02
9	Grenlandiya	-5,98
10	Gruziya	-2,70
11	Dominika	-5,30
12	Indoneziya	-1,16
13	Iordaniya	-13,24
14	Kuba	-3,66
15	Quvayt	-1,58
16	Laos	-1,09
17	Latviya	-6,25
18	Lesoto	-7,36
19	Litva	-6,27
20	Maldiv	-12,68
21	Marokash	-3,36
22	Meksika	-1,68
23	Maldaviya	-9,67
24	Nauru	-13,63
25	Nikaragua	-3,00
26	Pokiston	-1,54
27	Peru	-2,53
28	Respublika Kongo	-5,90
29	Salvador	-8,28
30	Samoa	-9,78
31	Suriya	-19,79
32	Somali	-8,49
33	Sudan	-4,29
34	Tojikiston	-1,15
35	Tuvalu	-6,81
36	Tunis	-1,73
37	Turkmaniston	-1,84
38	O'zbekiston	-2,37
39	Ukraina	-2,25
40	Mikroneziya federativ shtatlari	20,95
41	Filippin	-2,09

42	CHad	-3,60
43	SHri-Lanka	-1,35
44	Estoniya	-3,60
45	YAmayka	-4,66

Dunyo mamlakatlari ichida aholi migratsiya saldosi manfiy bo‘lgan mamlakatlar ham mavjud bo‘lib, eng yuqori ko‘rsatkichlar bilan Mikroneziya federal shtatlari -20.95%, Suriya-19,79%, Nauru-13,63%, Iordaniya-13,24%, Maldiv respublikasi-12,68%, Maldaviya-9,67% bilan ajralib turadi. SHu bilan birga, Gayana, Salvador, Lesoto va Somalida ham aholi migratsiyasi manfiyligi yuqoridir. 19-jadvalda faqatgina rivojlanayotgan mamlakatlar nomi keltirilgan. Bu mamlakatlarda qariyb hammasida aholining tug‘ilishi va tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lib, mehnat resurslarining bir qismi, ba’zi mamlakatlarda esa, asosiy qismi ishsiz hisoblanadi. SHuning uchun ular boshqa rivojlangan mamlakatlarga yaxshi hayot kechirish uchun, ishlab oilasini boqish uchun boradi. Ba’zi mamlakatlar, jumladan Afg‘oniston, Suriya fuqarolari urushdan qochib, tinch yashash uchun yashash joyini o‘zgartirishga majbur bo‘ladilar. 19-jadvalga keltirilgan mamlakatlar ichida sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan respublikalar: Armaniston, Latviya, Litviya, Moldova, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Ukraina, Estoniya ham bor.

## 20-jadval

### Aholi migratsiyasi saldosi 0% bo‘lgan mamlakatlar (2015)\*

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>№</b>	<b>Mamlakatlar nomi</b>
1	Ozarbayjon	14	Liberiya
2	Andorra	15	Mavrikiy
3	Argentina	16	Madagaskar
4	Beliz	17	Malavi
5	Benin	18	Monserrat
6	Burkina-Faso	19	Namibiya
7	Burundi	20	Papua-YAngi Gveniya
8	Butan	21	Koreya respublikasi
9	Venesuela	22	Svazilend
10	Gveniya-Bisau	23	Serbiya

\* [https:// ru. Wikipedia.org/w/index.php](https://ru.Wikipedia.org/w/index.php).



11	Gveniya	24	Tailand
12	Zimbabve	25	YAponiya
13	Kot-d' Ivuar		

Jadval wikipedia.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Bu mamlakatlarning ba'zilarida aholi migratsiya saldosi -6% dan yuqori bo'lsa, ba'zilarida -1% dan ortiqroqdir. Dunyo mamlakatlari ichida aholi migratsiya saldosi musbat va manfiy bo'lgan mamlakatlar bilan bir qatorda aholi migratsiya saldosi nol bo'lgan mamlakatlar ham mavjud. 20-jadvalda ko'rsatilganidek, dunyo mamlakatlarining 25 tasida aholi migratsiya saldosi nol promilliga teng. Bu mamlakatlarda qancha aholi chiqib ketgan bo'lsa, shuncha aholi kelgan, shuning uchun bu mamlakatlarda aholi migratsiya saldosi 0% ga tengdir. SHuningdek, jadvalda nomi keltirilgan mamlakatlarda aholi migratsiyasi sust rivojlangan. Bu mamlakatlar ichida rivojlangan mamlakatlardan YAponiya, Andorra va Koreya ham bor. Qolgan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlar hisoblanadi. Bu rivojlanayotgan mamlakatlar Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlardir.

SHunday qilib, aholini mexanik harakatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholi yashash sharoitining yuqori darajada ekanligi, ishlab chiqarishni rivojlanganligi, bo'sh ish o'rinlarining borligi sababli boshqa rivojlanayotgan mamlakatlardan ish izlab, yaxshi yashashni xoxlab, asosan mehnatga yaroqli aholi tashqi migratsiyaga faol qatnashadi. Rivojlangan mamlakatlarda kelgan fuqarolar asosan og'ir ishlarni bajarishadi. SHuning uchun rivojlangan mamlakatlarda aholi migratsiya saldosi musbat, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich manfiy hisoblanadi.

## **2.5. Aholining hududiy taqsimlanishi va zichligi**

### **Reja:**

1. Aholi zichligi areallari
2. MDH mamlakatlarida aholi zichligi.
3. Aholi zichligi yuqori bo'lgan mamlakatlar.

Ma'lumki, jahon aholisi tabiiy o'sish hisobiga ko'payib bormoqda, ammo hududiy taqsimlanishi notekisdir. Odamlar qadimdan yashash sharoiti qulay bo'lgan joylarda, suv manbalari, soylar, daryo va uning irmoqlari, ko'llar, tuprog'i unumdor bo'lgan hududlarda yashab kelishgan. Dastlab aholi Nil daryosi deltasida, Xuanxe-YAnsizi, Hind-Gang, Tigr-Evfrat, Amudaryo va Sirdaryo vodiylarida, keyinchalik sanoat rivojlanish bazasida G'arbiy Evropada, so'ngra AQSHning sharqiy qismida aholi zich joylashgan. Aholi joylashuvi va zichligiga faqatgina aholining tarixan tarkib topishi emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy omillar ham ta'sir ko'rsatgan. Odatda aholining zichligi  $\text{km}^2$  ga to'g'ri keladigan aholi soni bilan ko'rsatiladi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 54,2 kishini tashkil etadi (2016). Lekin dunyoning turli qismlarida aholi zichligi har xildir. Professor YU.G.Caushkin aholining qadimdan o'zlashtirilgan va sug'oriladigan erlarda zichligi yuqoriroq bo'lgan. G.R.Asanov er sharida aholi zichligi bo'yicha eng yirik to'rtta arealga ajraladi:

Birinchi arealga Hindiston yarim orolini, Janubiy-SHarqiy Osiyoni, Xitoyning sharqiy qismini, Koreya yarim orolini va YAponiya kiradi. Bu hududga Gang daryosi vodiysi, YAva oroli, YAnsizi havzasi va boshqa joylarda zichlik juda yuqori bo'lib, bu erda aholi  $1 \text{ km}^2$  da 300 kishidan ortiqdir. Faqat tog'li hududlarda zichlik pastroq. Bu arealda bir nechta millioner shaharlar - Tokio, SHanxay, Kalkutta, Bombay, Osaka va boshqalar joylashgan. Hozirgi vaqtda bitta Xitoy davlatining o'zida 116 ta millioner shaharlar mavjud.


Aholi zich joylashgan ikkinchi areal Evropa hisoblanadi. Bu arealda Evropa sovuq iqlimli joylaridan tashqari qolgan hududlari kiradi. Ushbu hududda aholi zichligi 200 kishidan ortiqdir. Evropada ham millioner shaharlar soni ko'p bo'lib, ularning soni 35 taga etadi.

Aholi zich joylashgan uchinchi areal AQSHning Atlantika sohili bo'lib, bu erda ham bir nechta millioner shaharlar vujudga kelib, aglomeratsiyalar va megapolislar paydo bo'lgan.

Aholi zich joylashgan to'rtinchi areal Nil daryosi quyi oqimi va deltasini o'z ichiga oladi. Bu erda ham millioner shaharlar paydo bo'lgan.

Dunyo aholisi zich joylashgan areallar bilan birga, aholi siyrak joylashgan hududlar ham bor. Bular sovuq iqlimli va cho'lli mintaqalar hisoblanadi. Sovuq mintaqalarga SHimoliy Amerikaning shimoliy qismlari, Grenlandiya oroli hamda Evrosiyo materigining shimoliy qismlari kiradi. CHO'l mintaqalarga Sahroi Kabir, Avstraliya cho'llari, Gobi, Taklamakon cho'llari va boshqalar kiradi. SHuningdek, aholi siyrak joylashgan hududlarga tog'li joylar baland tog'lar kiradi. Bundan tashqari, kam o'zlashtirilgan hududlarda ham aholi siyrak joylashgan bo'ladi (Asanov, 1978).

Dunyo bo'yicha aholining joylashuvi xarakterini uning zichligi, tekis yoki notekis joylashganidan bilish mumkin. Bu jarayonlarni A.YAgelskiy yozishicha, uchta asosiy omillar aniqlab beradi. Birinchi omilga, tabiiy muhitning roli katta bo'lib, bu erda aholi zich joylashgan bo'ladi va qishloq xo'jaligi mehnati bilan band bo'ladi. Bunday joylarga YAnsi, Xuanxe, Gang, Nil daryolarining vodiylari kiradi.



**3-rasm. Dunyo aholining zichligi.**

Tuproqlarning joylashishi shuni aniqlab berdiki, soʻngi yuz yillarda qishloq xoʻjaligi Evropa, Ural orti va SHimoliy Amerika dashtlari tekisliklari va pasttekisliklarida qishloq xoʻjaligi keng tarqalgan va rivojlangan.

Ikkinchi omilga, sanoatning joylashishi va rivojlanishi tufayli aholi zich joylashadi. Boshlanish fazasi manufaktura (kapitalistik ishlab chiqarishning mashinalashgan yirik sanoat paydo boʻlmasdan oldingi shakli) ishlab chiqarish, asosan toʻqimachilik va shisha buyum ishlab chiqarish sanoati va boshqalar aholi joylashuviga taʼsir koʻrsatgan. Bu korxonalar togʻoldi hududlarda asosan rivojlangan. Chunki, bu joylarda oqayotgan suvdan elektr-energiya olgan hamda bu joylarda chorvachilik rivojlanishi asosida jun olingan. Manufaktura ishlab chiqarishi koʻp hududlarda aholi joylashuvi va shaharlarining paydo boʻlishiga sabab boʻlgan. Bunday joylarga Bavariya, Appalachi, Ural va boshqalar misol boʻla oladi. XIX asrning boshlarida temir rudalari va koʻmir joylashgan hududlarda ogʻir sanoat rivojlanishi bilan Markaziy Angliya, Lotaringi, AQSHning shimoliy-sharqiy shtatlarida aholi zich joylashuviga baza boʻlib xizmat qildi.

Uchinchi omilga, xalqaro savdo va dengiz yoʻli orqali yuk tashish aholining zich joylashishiga sababchi boʻladi. Koʻpgina dunyo mamalakatlarida dengiz sohillarida yirik portlar paydo boʻlgan. Bu portlar yaqinida ishlab chiqarish korxonalari koʻpaygan. Masalan, YAponiyada boshqa mamlakatlardan xom ashyo va yoqilgʻini olib kelib, YAponiyada ishlab chiqarish rivojlanadi. XX asrga kelib, bu omil yanada rivojlanadi, dengiz sohillarida joylashgan mamlakatlarda rekreatsiya markazlari Oʻrta er dengizi, Qora dengiz, Florida, Kaliforniya, Karib dengizi orollarida vujudga keladi. Bu jarayon ham aholi joylashuviga bevosita oʻz taʼsirini koʻrsatadi (YAgenskiy, 1980).

SHu bilan birga aholi joylashuviga tarixiy, demografik, migratsion, ekologik, lokal (kichik hudud) omillar va tashqi omillar taʼsir etadi. Demak, aholining notekis joylashuviga yuqorida keltirilgan barcha omillar taʼsir koʻrsatadi. Dunyo aholisi joylashuvi xarakterini aholi zichligi koʻrsatadi. Dunyo aholisi zichligi xaritasiga nazar tashlasak buni yaqqol koʻrish mumkin. YUqorida aytilganidek, dunyo aholisi zichligi boʻyicha toʻrt asosiy arealga boʻlinadi:

- 1) Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlari ( Xitoy, Korea va YAponiya) kiradi.
- 2) Hindiston yarim oroli, Gang va Braxmaputra vodiylarida aholi zich joylashgan.
- 3) Evropa-Belgiya, Daniya, SHveysariya, Avstriya, Italiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, SHimoliy-sharqiy Fransiya kiradi.
- 4) AQSHning SHimoliy-sharqiy qismlari va Kanadaning janubiy-sharqiy qismlari kiradi.

SHuningdek bu areallardan tashqari YAva orolida va Nil daryosining quyi qismlarida ham aholi zichligi yuqori hisoblanadi.

Dunyo aholisi siyrak joylashgan hududlarga-SHimoliy Muz okeani, SHimoliy Amerika va Evrosiyo materiklari qirg'oqlarini yuvib turadigan sovuq iqlimli joylar kiradi. SHimoliy Afrika, Markaziy va G'arbiy Avstraliya, Markaziy Osiyo yo'llari kiradi. Amazonkaning ekvatorial o'rmonlari kiradi. Arabiston yarim oroli kiradi (Antipova, 2003).

Dunyo mamlakatlarida aholi zichligi har xil bo'lib, eng yuqori aholi zichligi bilan Bangladesh ajralib turadi, bu erda zichlik 1 km<sup>2</sup>da 1108 kishiga to'g'ri keladi. SHuningdek, Tayvan, Janubiy Korea, Puerto-Riko, Niderlandiya, Livan, Belgiya, YAponiya, Hindiston va Salvadorda ham aholi zichligi yuqori hisoblanadi (23-jadvalga qarang).

Aholisi siyrak joylashgan mamlakatlarga Mo'g'uliston, Botsvana va Surinam davlatlari kiradi. Bu erda aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> da 2 kishini tashkil etadi. 2-jadvalda MDH davlatlari aholisining zichligi ko'rsatilgan bo'lib, bu mamlakatlar ichida aholi zichligi yuqoriligi bilan Ozarbayjon- 111,8 kishi 1 km kv da, Moldaviya- 105,2 kishi, Armaniston- 100,8 kishi, Ukraina-70,9 kishi bilan ajralib turadi. MDH mamlakatlari orasida aholi zichligi pastligi bilan, Qozog'iston (6,5 kishi 1 kv.km da), Turkmaniston (9,1 kishi), Rossiya (8,6 kishi) ni ko'rsatish mumkin. Bu mamlakatlarda aholi siyrak joylashganligiga sabab, katta hududi cho'llardan iborat, shuningdek, aholi soni kam. Bundan tashqari, Rossiya aholisi ham ko'p bo'lganligi bilan maydoni ham katta shuning uchun aholi zichligi pastdir va h,k

Dunyo aholisi qit'alar bo'yicha notekis taqsimlangan bo'lib, aholining asosiy qismi ya'ni 60 % dan ortig'i Osiyoda, 15 % afrikada, 13% Amerikada, 11% Evropada va qolgan qismi Avstraliya va hamda Okeaniyada yashaydi. 2050 yilga kelib, BMTning bashoratiga ko'ra, dunyo aholisi yarmidan ko'pi Osiyoda, 25% Afrikada, 8,2% Lotin Amerikasida, 7,4 % Evropada, 4,7 % SHimoliy Amerika va qolgan qismi Avstraliya hamda Okeaniyada yashaydi<sup>3</sup>.

## 21- jadval

### Aholining dunyo qismlari bo'yicha taqsimlanishi (2011 yil)

Dunyo qismlari	Aholi zichligi kv. km, kishi	Aholisi ming kishi	Aholisi eng ko'p bo'lgan mamlakat, ming kishi	Aholisi eng ko'p bo'lgan shahar, ming kishi
Osiyo	86,7	4140336	Xitoy-1341403	Tokio-35676
Afrika	32,7	994527	Nigeriya-152217	Qohira-19439
Evropa	70	738523	Rossiya-143300	Moskva-14837
SHimoliy Amerika	22,9	528720	AQSH-313485	Mexiko-21163
Janubiy Amerika	21,4	385742	Braziliya-190732	San-Paulu-19672
Okeaniya	4,2	36102	Avstraliya-22612	Sidney-4575

Jadval wikipedia.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

21-jadval tahlili shundan dalolat beradiki, bu jadvalda keltirilgan barcha ko'rsatkichlar bo'yicha Osiyo birinchi o'rinni egallaydi. Bu erda dunyo aholisining 4,1 mlrd.dan ortiq kishi joylashgan bo'lib, o'rtacha zichlik 86,7 kishini tashkil etadi. Osiyoning eng katta davlati Xitoyda 1,3 mlrd.dan ko'p aholi istiqomat qiladi. Bu qit'aning aholisi eng ko'p shahri Tokio bo'lib, bu shaharda 35,6 mln kishi yashaydi. Aholi zichligi bo'yicha 2-o'rinni Evropa egallaydi, bu erda aholi zichligi 1 kv.km da 70 kishi bo'lib dunyo aholisining 738,5 mln kishisi shu erda joylashgan.

Dunyoning qismlarida aholi zichligi bo'yicha 3- o'rinni Afrika egallaydi. Afrika aholisi zichligi qariyb 33 kishiga teng. Bu erda dunyo aholisining 994,5 millioni joylashgan bo'lib, eng katta mamlakati aholi soni bo'yicha Nigeriya

<sup>3</sup> Интернет маълумотлари-Википедия

bo‘lib, aholisi 152,2 mln kishini tashkil etadi. Afrikaning eng katta shahri Qohira hisoblanadi, bu shaharda qarib 20 mln aholi yashaydi. Aholi zichligi bo‘yicha keyingi o‘rinlarni SHimoliy Amerika, Janubiy Amerika va so‘nggi o‘rinni Avstraliya va Okeaniya egallaydi (qarang 3-jadval). SHunday qilib dunyo aholisining joylashuvi va zichligiga bir nechta omillar, ya’ni tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, tarixiy, demografik omillar ta’sir etadi.

## 22- jadval

### MDH mamlakatlarida aholi zichligi (2015 y).

Mamlakatlar	Maydoni, ming km.kv.	Aholi soni ming kishi.	Aholi zichligi 1 km.kv da kishi.
Rossiya	17075,4	146495	8,6
Ozarboyjon	86,6	9687	111,8
Armaniston	29,8	3004	100,8
Belorussiya	207,6	9494	45,7
Gruziya	69,7	3729	53,5
Qozog‘iston	2717,3	17651	6,5
Qirg‘iziston	199,9	5957	29,8
Maldaviya	33,8	3555	105,2
Tojikiston	143,1	8352	58,3
Turkmaniston	491,2	4451	9,1
O‘zbekiston	447,4	31022	69,3
Ukraina	603,7	42789	70,9

Jadval wikipedia.org sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

## 23-jadval

### Aholi zichligi yuqori bo‘lgan mamlakatlar (2016 y)

Davlatlar	Maydoni ming km. kv.	Aholi soni ming kishi	Aholi zichligi 1 km. kv. da, kishi
Bangladesh	144	159685	1108
Tayvan	36	23476	652
Janubiy Koreya	98,5	51529	523



Puerto-Riko	9,1	3474	382
Niderlandiya	41,5	16982	409
Livan	10,4	4168	400
Belgiya	30,5	11291	370
YAponiya	377,8	126880	336
Hindiston	3287,6	1282790	390
Salvador	21	6520	310

Jadval wikipedia.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

### Glossariy

**Aholini hisobga olish** – har yili tug‘ilganlar, o‘lganlar, kelganlar, ketganlar hokimiyatlar va statistika boshqarmalari tomonidan hisobga olinadi.

**Aholi ro‘yxati** – ma’lum dastur asosida aholiga doir barcha ma’lumotlar yig‘iladi.

**Antropoidlar** – 7-3 mln. yil oldin paydo bo‘lgan odamsimon maymunlar.

**Neandertal** – 300-100 ming yil oldin paydo bo‘lgan ibtidoiy odamlar.

**Kro-Manonlar** – 30-40 ming yil oldin paydo bo‘lgan hozirgi zamon kishisi shunday nomlangan.

**Aholining takror barpo bo‘lishi** - har yili vafot etgan aholi o‘rnini, yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borish jarayoni.

**Promille** – mingdan bir ulushi ma’nosini beradi.

**Tug‘ilish koeffitsienti** – tug‘ilganlar sonining aholi o‘rtacha sonidagi har 1000 kishiga nisbati.

**Migratsiya** – aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o‘zgartirish maqsadida, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi.

**Migratsiya saldosi** -bir yil davomida ko‘chib kelgan aholi bilan, ko‘chib ketgan aholining nisbati.

**Musbat saldo migratsiyasi** – keluvchilar ketuvchilarga nisbatan ko‘p bo‘ladi.

**Manfiy saldo migratsiyasi** – ketuvchilar keluvchilarga nisbatan ko‘p bo‘ladi.

### Nazorat savollari

1.Aholini hisobga olish qanday ahamiyatga ega?

2. Aholi nima uchun ro'yxatga olinadi?
3. Qadimda qaysi mamlakatlarda aholi ro'yxati o'tkazilgan?
4. O'zbekiston hududida qaysi yillarda aholi ro'yxati o'tkazilgan?
5. A.P. Kuznetsovning fikricha qadimda odamlar qachon va qaerda paydo bo'lgan?
6. 2011-2016 yillarda er sharida qancha aholi yashagan?
7. Qadimda nega aholi soni sust o'sgan?
8. Dunyoda qaysi mamlakatlar aholi soni bo'yicha oldingi o'rinlarni egallaydi?
9. Aholining takror barpo bo'lishi nima ?
10. Aholining tabiiy o'sishi deb nimaga aytiladi?
11. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qaysilar kiradi?
12. Demografik omillarga qaysilar kiradi?
13. Rivojlangan mamlakatlarda aholining tabiiy o'sishi qanday?
14. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tabiiy o'sishi qanday?
15. Aholining tug'ilish darajasiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
16. Aholining o'lim darajasiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
17. Aholi migratsiyasi nima ?
18. Rivojlangan mamlakatlar aholi migratsiyasi haqida gapirib bering?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Barcha reja dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. –T. : O'zbekiston. 2011. -48 b.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T. : O'zbekiston. 2017.
3. O'zbekistonda 1897, 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989 yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati malumotlari.
4. Asanov G.R. Aholi geografiyasi. – T.: O'qituvchi. 1978. - 222 b.
5. Antipova E.N. Geografiya naseleniya mira. Kurs leksiy. – Belarus. 2003. – 189 s.
6. Bo'rieva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi rivojlanishi jarayonlari. – T. : Fan, 2008, - 157 b.

7. Bo‘rieva M.R., Tojjeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.:Tafakkur, 2011. – 156 b.
8. Gulshanbarov S.G. Ekonomicheskiy obzor Turkistanskogo rayona. V 2-x chastyax – Ashxabad. 1913. – 476 s.
9. Корылов V.A. Geografiya naseleniya. 2-e izd., pererab. i dop. – M., 2005. – 164 s.
10. [WWW.Wikipedia.org](http://WWW.Wikipedia.org)
11. [WWW.cisstat.org](http://WWW.cisstat.org)
12. V.S. and World Population Clock”

### **III BOB. AHOLINI TARKIBI VA MEHNAT RESURSLARI**

#### **3.1. Aholining yosh-jinsiy tarkibi**

##### **Reja:**

1. Aholining yosh va jinsiy tarkibi va xususiyatlari.
2. G.Sundbergning aholini yosh tarkibi jihatdan tiplarga bo‘lishi.
3. Dunyo mamlakatlari aholisi jins tarkibidagi geografik farqlar.

Aholini ijtimoiy geografik jihatdan o‘rganishda uning yosh va jinsiy tarkibini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu mehnat resurslarining sonini, kelajakda ularning o‘rishini aniqlashda va bilishda, ishlab chiqarish kuchlarini to‘g‘ri joylashtirishda katta rol o‘ynaydi. SHuningdek, nomoddiy ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ta‘lim-tarbiya va boshqa sohalar istiqbolini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, aholi tarkibini o‘rganishi

kelajakda maktabgacha tarbiya muassasalari va maktabning birinchi sinfiga boradigan bolalar sonini bilish uchun ham zarurdir.

Dunyo aholisining yosh va jinsiy tarkibi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bir-biriga o'xshamaydigan xususiyatlarga egadir. SHuningdek, har bir mamlakatlar orasida ham hududiy tafovutlar mavjud. Aholining yosh tarkibi mamlakatlarni asosiy demografik va iqtisodiy xarakteristikasining biri hisoblanadi<sup>4</sup>.

Aholi geografiyasi va demografik adabiyotlarda aholining yosh tarkibini o'rganishda uchta asosiy yosh guruhga ajratish qabul qilingan, bular: bolalar 0-14 yoshgacha, kattalar 15-64-yoshgacha, qariyalar 65 yosh va undan yuqori. Dunyo aholisining yosh tarkibiga tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish darajalari, migratsiya, urushlar va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi.

XX asrning boshida shved demografi G.Sundberg aholining yosh tarkibini uchta asosiy tipiga bo'lgan: progressiv, statsionar, regressiv. Progressiv yosh tarkibida bolalar salmog'i (0-14 yosh) qariyalarga (60 va undan yuqori) nisbatan yuqori bo'ladi. Bu tipda aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'ladi.

1. Statsionar yosh tarkibida bolalar va qariyalar salmog'i teng bo'ladi, tabiiy o'sish past yoki bo'lmaydi.

2. Regressiv yosh tarkibida qariyalar salmog'i bolalar salmog'iga nisbatan yuqori bo'ladi, aholi qarib boradi.<sup>5</sup>

YUqorida qayd etilganidek, aholining yosh tarkibi asosan aholining tabiiy o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. SHuning uchun, dunyo aholisini yosh tarkibi jihatidan mamlakatlarni ikki guruhga ajratib o'rganish maqsadga muvofiq, bular:

1. Rivojlangan mamlakatlarda aholining yosh tarkibi
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining yosh tarkibi

Rivojlangan mamlakatlarda aholining yosh tarkibi o'ziga xos bo'lib, bu mamlakatlarda aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishi darajalari past bo'lganligi sababli bu mamlakatlarda yosh bolalar salmog'i past (odatda 20%

---

<sup>4</sup> Демографический энциклопедический словарь. М., 1985. ст.606.

<sup>5</sup> Демографический энциклопедический словарь. М., 1985.

atrofida) bo‘ladi. Mehnat resurslari salmog‘i esa ko‘p bo‘ladi. SHu bilan birga qariyalar salmog‘i ham yuqoridir (20% atrofida). Bu mamlakatlar aholisining o‘rtacha umr ko‘rish muddati uzoq bo‘ladi.

**24-jadval**  
**Dunyo hududlarida aholining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi (2014 y)**

Hududlar	% hisobida		
	15 yoshgacha	15-64 yoshgacha	65 yosh va yuqori
MDH	25.1	64.0	10.9
Xorijiy Evropa	19.0	66.9	14.1
Xorijiy Osiyo	32.2	62.4	5.4
Afrika	44.8	52.1	3.1
SHimoliy Amerika	21.8	65.6	12.6
Lotin Amerikasi	33.8	61.1	5.1
Avstraliya va Okeaniya	26.4	64.1	9.5


Jadval internet [www.statdat.ru](http://www.statdat.ru) ma’lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa aksincha. Aholining tug‘ilishi, o‘limi, tabiiy o‘sishi yuqori bo‘lganligi sababli, bu mamlakatlarda aholi yosh tarkibida bolalar salmog‘i yuqori bo‘ladi (odatda 38-40%), ba’zi mamlakatlarda esa, 50% gacha bo‘ladi. Bu mamlakatlarda ham o‘rta yoshdagilar, ya’ni mehnat resurslari salmog‘i yuqori bo‘ladi, lekin qariyalar salmog‘i kamchilikni tashkil etadi (odatda 5-6%). SHuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining o‘rtacha umr ko‘rish muddati ancha past hisoblanadi.

Ma’lumki, aholining jinsiy tarkibi deganda, erkaklar va ayollar salmog‘ining tarqalishiga tushunamiz. M.Bo‘rieva aholining jinsiy tarkibiga asosan uch omil ta’sir etadi, deb hisoblaydi. Bular, yangi tug‘ilganlar orasidagi jinsiy tarkib, o‘limdagi jinsiy farq va aholi migratsiyasidagi jinsiy farq. Haqiqatdan ham aholi tug‘ilganida uning jinsiy tarkibida o‘g‘il bolalar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, dunyoda 100 ta qiz bola tug‘ilsa 104-107 ta o‘g‘il bola tug‘iladi, lekin dunyo mamlakatlarida bu ko‘rsatkich har xildir.

2016 yil ma'lumotiga ko'ra, er sharida 7388068705 aholi yashaydi, shundan 50,4 % ini erkaklar, qolgan 49,6 % ni ayollar tashkil qiladi.<sup>6</sup>

Osiyo mamlakatlarida erkaklar salmog'i ko'pchilikni tashkil qiladi. Asosan erkaklar salmog'i Janubiy va Janubiy-sharqiy Osiyoda – Xitoy, Hindiston, Pokistonda hamda Janubiy-G'arbiy Osiyo va SHimoliy Afrika arab mamlakatlarida yuqori hisoblanadi. SHu mamlakatlar hisobidan dunyoda taxminan ayollarga nisbatan erkaklar soni 63 mln ko'pdir. Bu mamlakatlarda erkaklar salmog'ining ko'pligiga asosiy sabab, bu erda ayollarning huquqsizligi, tug'ilish yuqoriligi tufayli sog'lig'i yomonlashishi, og'ir qishloq xo'jaligi mehnati bilan shug'ullanishi sababli ayollar o'rtasida o'lim darajasi yuqori bo'ladi.



**4-rasm. Aholining yosh-jinsiy tarkibi piramidasi**

<sup>6</sup>www.stadata.ru интернет маълумотлари.

Ayollar salmog'ining yuqoriligi bilan Evropa mamlakatlari ajralib turadi. Bu mamlakatlarda ayollarning ijtimoiy mehnatda jalb etilganligi, kech turmushga chiqishlari, kam yoki umuman farzand ko'rmasligi hamda erkaklarning urushlarda va avariyalarda halok bo'lishi sababchidir.

Afrika, Lotin Amerikasi mamlakatlarining ko'pchiligida erkaklar va ayollar salmog'i deyarli tengdir. Dunyoning hamma qismlarida erkaklar salmog'i 14 yoshgacha ko'p bo'ladi. Bu yoshdan keyin erkaklar soni kamayib boradi, chunki erkaklar shamollash xastaliklari oqibatida, og'ir mehnat bilan shug'ullanishi, ular o'rtasida bo'lib turadigan urush va janjallar tufayli, giyohvand moddalarini va alkogol ichimliklarini iste'mol qilishi sababli erkaklar o'rtasida o'lim darajasi ayollarga nisbatan yuqori bo'ladi. Dunyoning barcha regionlarida qariyalarning asosiy qismini ayollar tashkil etadi. Odatda ayollar erkaklarga nisbatan uzoqroq yashaydi.

## 25-jadval

### Dunyo hududlari bo'ylab aholining jinsiy tarkibi (1000 ta ayolga nisbatan erkaklar soni)\*

Hududlar	Jami	1970 yil jumladan, yosh guruhlarida			Jami	1985 yil jumladan, yosh guruhlarida		
		0-14	15-64	65 va yuqori		0-14	15-64	65 va yuqori
Dunyo bo'yicha	1002	1039	1005	757	1009	1040	1020	742
Sobiq SSSR	855	1038	843	441	891	1029	937	444
Evropa	945	1047	965	670	952	1060	1000	649
Osiyo	1041	1045	1050	898	1042	1050	1049	879
Afrika	989	1017	976	841	986	1008	979	889
Amerika	985	1031	983	767	982	1029	990	741
Okeaniya	1027	1055	1054	742	1016	1059	1039	818

\* Naselenie mira. M., 1989. S. 275

(Jadval M.R. Bo'rieva va D.N. Egamova tomonidan tuzilgan)

25-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 1970, 1985 yillarda dunyo bo'yicha 1000 ayolga nisbatan 65 yosh va undan yuqori yosh guruhlaridan tashqari hamma yosh guruhlarida erkaklar soni ko'pdir. Masalan, 1970 yilda 1000 ayolga 1002 ta erkak

to'g'ri kelgan, bu ko'rsatkich 1985 yilga kelib yanada oshgan va erkaklar 1009 tani tashkil etgan. Eng yuqori ko'rsatkich 1970 yilda 0-14 yosh guruhlarida 1039 ta, 1985 yilda shu yosh guruhida 1040 ta erkak to'g'ri keladi.

SHu yillar ma'lumotiga ko'ra, Sobiq SSSR, Evropa, Afrika va Amerikada faqatgina 0-14 yosh guruhlarida erkaklar soni ko'p bo'lib, bu yuqorida aytilganidek, dunyoda 100 ta qiz bola tug'lsa 104-107 ta o'g'il bola tug'ilishi bilan bog'liq. Dunyoning bu hududlarida qolgan yosh guruhlarida ayollar soni ko'payib borgan, chunki 15 yoshdan boshlab, erkaklar orasida o'lim darajasi ko'p bo'ladi. Dunyoning Osiyo va Okeaniya hududi boshqa hududlardan farq qilib, bu erda faqat 65 yosh va undan yuqori guruhida ayollar ko'p, chunki ayollar erkaklarga nisbatan uzoq yashaydi. Osiyoda 1970 yilda 1000 ayolga nisbatan 1041 ta, Okeaniyada 1027 ta erkak to'g'ri kelgan bo'lsa, 1985 yilda bu ko'rsatkich Osiyoda 1042, Okeaniyada 1016 ni tashkil etadi. Bu hududlarda 0-14 va 15-64 yosh guruhlarida ham erkaklar soni ko'pdir.

4-rasmdagi piramida shuni ko'rsatadiki, 1950 yilda dunyo aholisining yosh tarkibi jihatidan 0-4 yoshgacha bo'lganlar 350 mln. kishini tashkil etgan, shundan yarmini erkaklar va qolgan yarmi ayollar salmog'iga to'g'ri keladi. Piramidada ko'rsatilgan yosh tarkibi jihatidan eng ko'p sonliklar shu yoshga tegishlidir. Aholining yoshi ko'tarilib borgan sari aholi soni kamayib borgan. Masalan, 0-4 yoshlilar – 350 mln. kishi bo'lsa, 5-9 yoshdagilar – 280 mln. kishi, 10-14 yoshdagilar – 278 mln. kishi, 15-19 yoshlilar – 274 mln. kishi va h.k.

Dunyo aholisining jinsiy tarkibi 1950 yilda 50 yoshgacha erkaklar va ayollar salmog'i deyarli teng bo'lgan. Aholi 50 yoshdan boshlab, to umrining oxirigacha ayollar salmog'i erkaklarga nisbatan yuqori bo'lib borgan. Jumladan, dunyo aholisi 80 yoshdan o'tganda, erkaklar soni taxminan 1 mln. bo'lsa, ayollar soni taxminan 4 mln. tashkil etgan. Bu albatta erkaklarga nisbatan ayollarning uzoq umr ko'rishi bilan bog'liqdir. Dunyo aholisining yosh va jinsiy tarkibi piramidasiga nazar tashlasak, 1950 yilda aholi tug'ilish darajasining yuqoriligi sababli yosh bolalar salmog'i yuqoriligiga amin bo'lamiz. Aholining yosh tarkibi kattalashib borgan



sari, ularning soni kamayib borgan va bu rasm haqiqiy piramidaga aylangan. Lekin 2012 yilga kelib, bu piramida shakli butunlay o'zgargan.

2012 yilda dunyo aholisi 29 yoshgacha barcha yosh guruhlarida aholi soni deyarli bir xil bo'lgan. Bu albatta aholi tug'ilishi darajasining pasayib borishi bilan bog'liq. 1950 yilda ayollar salmog'i 50 yoshdan ko'payib borgan bo'lsa, 2012 yilda kelib, ayollar salmog'i 60 yoshdan boshlab ko'payib borgan. Bunga dunyo urushlari ta'sir etgan. SHu bilan birga, ayollar erkaklarga nisbatan uzoq umr ko'rishadi.

Ikkinchi rasmda O'zbekiston aholisining yosh va jinsiy tarkibi ko'rsatilgan bo'lib, unda 20-24 yoshliklar eng ko'p sonli hisoblanadi, bu albatta 23 yil oldin tug'ilish va tabiiy o'sish darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. So'nggi yillarda aholi tug'ilish darajasining nisbatan pasayganligi sababli 0-14 yoshdagilar salmog'i nisbatan kamroqdir.

O'zbekiston aholisining jinsiy tarkibi jihatidan erkaklar va ayollar salmog'i qariyb hamma yosh guruhlarida teng hisoblanadi. Erkaklar salmog'i 65 yoshdan boshlab, ayollar salmog'iga nisbatan kamayib borgan.

Rossiya, Kanada, Germaniya, AQSH, YAponiya, Braziliya mamlakatlari aholisining yosh va jinsiy tarkibi piramidasini tahlili shuni ko'rsatadiki, bu mamlakatlar orasida faqatgina Braziliya aholisining yosh va jinsiy tarkibi piramida shakliga o'xshaydi. Qaysi mamlakatda aholining tug'ilish va tabiiy o'sish darajalari mo'tadil bo'lsa, o'sha mamlakat aholisining yosh va jinsiy tarkibi piramidasi mo'tadil holatda bo'ladi.

Rossiya, Kanada, Germaniya va YAponiyada 2009 yil ma'lumotiga ko'ra, yosh bolalar salmog'i, ya'ni 0-14 yoshgacha bo'lganlar taxminan jami aholining 14 % ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich AQSH va Braziliyada yuqoriroqdir. Bu mamlakatlardan asosan Rossiya va Kanadada 35 yoshdan boshlab ayollar salmog'i ko'payib borgan. AQSH, Braziliya, YAponiya va Germaniyada ayollar salmog'i asosan 70 yoshdan boshlab ko'payib borganligini piramidadan ko'rishimiz mumkin.

### **3.2. Aholining milliy tarkibi**

## **Reja:**

1. Urug‘, qabila, elat va millat haqidagi tushunchalar
2. Yirik va kichik millatlar
3. Milliy-etnik jarayonlar
4. Evropa, Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari aholisining milliy tarkibi.

Aholining milliy tarkibini asosan etnostatistika fani va aholini ro‘yxatga olish tadbirlarida chuqur o‘rganiladi. Dunyo aholisining milliy tarkibini, millatlarining vujudga kelishi va shakllanishini juda ko‘p olimlar E.L.SHuvalov, G.R.Asanov, A.S.Soliev, S.A.Kovalev, N.YA.Kovalskaya, M.R.Bo‘rieva, E.A.Antipova, V.A.Kopilov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Bu olimlar kishilarning etnik birliklari: urug‘, qabila, elat va millat haqidagi fikrlari birbirlariga o‘xshash va yaqin hisoblanadi.

Er yuzida ibtidoiy odamlar paydo bo‘lganda, ular birgalikda ov qilib, jamoa bo‘lib yashashgan. Bu ularning dastlabki etnik birligidir. Kishilar etnik umumiyligining birinchi bosqichi urug‘lar deb ataladi. G.R.Asanovning yozishicha: urug‘chilik asosan ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelib, ana shu formatsiyaning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy yacheykasi bo‘lgan va u odamlarning qonqardoshligiga asoslangan. Urug‘chilik kishilarni xo‘jalik va ijtimoiy jihatdan bir-biri bilan bog‘lagan. Urug‘chilikning asosiy belgilari quyidagilar:

- 1) Urug‘ a‘zolarining bir-biri bilan qon-qardoshligi;
- 2) Urug‘ a‘zolari xo‘jalik faoliyatining birligi;
- 3) Ijtimoiy hayotning, turmush-tarzining va vujudga kelayotgan madaniyatning birligi.

Hozirgi fan-texnika rivojlangan davrda ham Osiyo, Afrika va Amerikaning ba‘zi tog‘li hududlari va o‘rmonlarida urug‘lar va qabilalar mavjud. Kishilar etnik umumiyligining ikkinchi yuqoriroq bosqichi qabila deb ataladi. Qabilalar urug‘larning birlashishi ta‘sirida vujudga kelgan. Qabilalar urug‘lardan farq qilib, ularning o‘z tili yoki shevasi va alohida hududi bo‘lgan, ularni maxsus kengash

boshqarib borgan. Urug' va qabililar ibtidoiy jamoada paydo bo'lgan kategoriya bo'lib, ulardan keyin kishilar etnik umumiyligining uchinchi bosqichi elatlar vujudga kelgan. Elatlar ba'zi joylarda quldorlik davrida, asosan feodalizm davrida paydo bo'lgan. Bu davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti, ya'ni dehqonchilikning chorvachilikdan ajralishi va ulardan hunarmandchilik ajralgan. Geografik mehnat taqsimoti vujudga kelishi bilan maxsulot ayriboshlash, savdo va boshqa iqtisodiy munosabatlar orqali kishilar bir-biri bilan bog'lanib, kishilar etnik birligining yangi shakli elatlar vujudga kelgan. Elatlarning o'z nomlari, tili, madaniyati, va iqtisodiy aloqalar qila boshlaydi. Kapitalizmning rivojlanishi bilan kishilar etnik umumiyligining eng yuqori bosqichi millatlar paydo bo'lgan. Millatlarning vujudga kelishida elatlar baza bo'lib xizmat qilgan. Masalan, bitta elatdan ikki millat, yoki aksincha ikki elat qo'shilishidan bitta millat paydo bo'lgan. Millatlar kishilar etnik umumiyligining boshqa kategoriyalaridan farq qilib, millatlarda hududiy birlik, iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkam o'rin oladi, yagona til tashkil topadi, milliy ong rivojlangan bo'ladi (Asanov, 1978).

Mutaxassislar etnik birlashishni ikki turga bo'ladilar: konsolidatsiya va assimlyasiya. Konsolidatsiya, ya'ni qarindosh etnoslarning birlashib, yirikroq etnoslarning vujudga kelishi, jumladan, slavyan qabilalardan rus, ukrain va belorus millatlari shu yo'l bilan paydo bo'lgan.

Assimlyasiya yirik va taraqqiy etgan etnos tomonidan kichik etnosni qamrab olishi tushiniladi. Assimlyasiya majburiy yoki etnik o'tish yo'li bilan bo'ladi. Masalan Rossiyada inqilobgacha podsho hukumati boshqa millatlarni majburiy ruslashtirgan, rus tili, rus yozuvi, pravoslav dinini joriy qilgan. (Kopilov, 2005)

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari hududida uzoq vaqt davomida murakkab etnogenez (xalqlarning kelib chiqishi) jarayonlari bo'lib o'tgan. Ular o'zining moddiy, ma'naviy va madaniy jihatdan yuqori darajada rivojlanganligi bilan boshqa dunyo xalqlaridan ajralib turgan. Ular tomonidan dehqonchilik o'choqlari yirik sug'orish tizimlari va katta shaharlar yaratilgan. Bir necha bor

bosqinchilar tomonidan bu hududda yashagan xalqlar sivilizatsiyasi vayron qilingan (Kovalev, 1980).

Eramizning birinchi asrida SHarqiy Evropa tekisligi hududida sharqiy slavyan qabilalari joylashgan va VII asrda bu erda yirik qabilalar ittifoqi tashkil topadi. Ular markazlari Kiev va Novgorod atroflari bo‘lgan. IX asrda bu erda qadimiy rus davlati tashkil topgan (Kovalev, 1980 str. 135 – 136).

Millatlar bir-biridan asosan tili bilan farq qiladi, lekin bitta tilda gapiradigan juda ko‘p halqlar mavjud. Masalan, ingliz tilida Buyuk Britaniyaliklar, amerikaliklar, avstraliyaliklar va boshqa xalqlar gaplashadi. SHunday odamlar borki, masalan, millati o‘zbek, lekin faqat rus tilida gaplashadi. Odamlar uyida qaysi tilda gaplashsa, o‘sha til ularning ona tili hisoblanadi. Mutaxassislarning fikricha, er sharida 3000 dan ortiq xalqlar bo‘lib, ular 2000 xil tilda gaplashadilar.

## 26-jadval

### Evropa davlatlari aholisining milliy tarkibi<sup>7</sup>.

Davlatlar	Asosiy millati (foiz hisobida)	Boshqa ko‘p sonli millatlar
Avstriya	Avstriyaliklar - 99,3	Xorvatlar, slovenlar, yugoslovlar
Albaniya	Albanlar - 93	greklar, valaxlar, siganlar
Andorra	Andorlar-30	Ispanlar, fransuzlar,
Belarusiya	Belaruslar - 77	Polyaklar, ukrainlar
Belgiya	Flamandlar - 55	Vallanlar, nemislar
Bolgariya	Bolgarlar - 85	Turklar, siganlar
Bosniya va Gersegovina	Bosniyaliklar - 44	Serblar, Xarvatlar
Buyuk Britaniya	Inglislar - 78	SHOTlandlar, irlandlar
Vatikan	Italyanlar	shveysarlar
Vengriya	Vengerlar - 90	siganlar, nemislar
Germaniya	Nemislar - 93	Avstriyaliklar, turklar
Gibraltar	Italyanlar	Inglislar, ispanlar
Gretsiya	Greklar - 95	Turklar, albanlar
Daniya	Daniyaliklar - 98	Nemislar, frizlar
Irlandiya	Keltlar	Inglislar
Islandiya	Islandlar-99	Inglislar
Ispaniya	Ispanlar - 73	Katalonlar, galasiylar
Italiya	Italyanlar - 98	Nemislar, fransuzlar

<sup>7</sup>Страны мира. М., 2007 г. С 3-134

Latviya	Latishlar - 57	Ruslar, beloruslar
Litva	Litvaliklar - 80	Ruslar, polyaklar
Lixtenshteyn	Lixtenshteynliklar-95	Italyanlar, shveysarlar
Lyxsemburg	Lyxsemburgliklar	Nemislar, fransuzlar
Makedoniya	Makedonlar - 66	Albanlar, turklar
Malta	Maltaliklar	Italyanlar, fransuzlar
Moldaviya	Moldavanlar - 65	Ukrainlar, ruslar
Monako	Fransuzlar - 68	Italyanlar, monegaslar
Niderlandiya	Gollandlar - 90	Frizlar, turklar
Norvegiya	Norveglar - 98	Saamilar, shvedlar
Polsha	Polyaklar - 97	Nemislar, ukrainlar
Portugaliya	Portugallar - 99	Afrikaliklar,
Rossiya	Ruslar - 81	Tatarlar, ukrainlar
Ruminiya	Ruminlar - 90	Vengerlar, siganlar
San - Marino	Sanmarinlar - 80	Italyanlar
Serbiya va CHernogoriya	Serblar - 63	Albanlar, chernogoriylar
Slovakiya	Slovaklar - 87	Vengerlar, ukrainlar
Sloveniya	Slovenlar - 91	Xorvatlar, serblar
Ukraina	Ukrainlar - 73	Ruslar, moldavanlar-
Finlyandiya	Finlar - 93	SHvedlar, saamlar
Fransiya	Fransuzlar - 95	Bretaniyaliklar, basklar
Xorvatiya	Xorvatlar - 78	Serblar, bosniyaliklar
CHexiya	CHexlar - 94	Slovanlar, polyaklar
SHveysariya	Nemislar - 65	Fransuzlar, italyanlar
SHvetsiya	SHvedlar - 91	Finlar, saamilar
Estoniya	Estonlar - 62	Ruslar, ukrainlar

Страны мира. М., 2007.г. s 3 – 134

Evropa aholisi milliy tarkibi jihatidan uch guruxga bo‘linadi: bir- millatli davlatlar, ko‘p millatli davlatlar va oraliq davlat. Evropada dunyoning boshqa qismlariga qaraganda bir millatli davlatlar ko‘pdir. Bir millatli davlatlarda o‘zining asosiy millati jami aholisining 90% ini yoki undan ko‘p qismini tashkil etadi.

Jadvalda ko‘rsatilganidek, Evropada bir millatli davlatlarga Avstriya, Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Islandiya, Italiya, Lixtenshteyn, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Ruminiya, Sloveniya, Finlyandiya, Fransiya, CHexiya, SHvetsiya kiradi. Bu mamlakatlar aholisining 90% yoki undan ko‘proq qismini o‘zining asosiy aholisi tashkil etadi. Masalan, Germaniya aholisining 93% ini nemislar tashkil qiladi. Bu mamlakatlarda o‘zining

asosiy millatidan tashqari boshqa millatlar xam yashaydi. Evropaning ko‘p millatli davlatlariga bu erda joylashgan qolgan mamlakatlar kiradi. Ko‘p millatli mamlakatlarga, masalan Ispaniya kiradi, bu erda jami aholining 73% ini ispanlar, qolgan qismini katalonlar 16%, galasiylar – 8%, basklar – 3% va boshqalar tashkil etadi. Demak ko‘p millatli davlatlarda o‘zining asosiy millati 90% dan kam bo‘ladi. Evropada ko‘p sonli millatlarga nemislar, fransuzlar, inglislari, ispanlar, polyaklar va boshqalar kiradi. Bu ko‘p sonli millatlar faqatgina o‘zining milliy hududida yashashidan tashqari Evropaning boshqa mamlakatlarida xam yashashadi. Evropaning oraliq davlatiga SHveysariya mamlakatini kiritish mumkin. SHveysariyaning markazi va sharqida – german shveysarlari, g‘arbida – fransuz shveysarlari janubi – sharqida italyan shveysarlari yashaydi. Bu millatlar xammasi yagona shveysar millati xisoblanadi.

Osiyo aholisini milliy tarkibi jihatidan ikki guruxga ajratish mumkin: bir millatli va ko‘p millatli mamlakatlar. Osiyoda bir millatli mamlakatlar kam bo‘lib, bir millatli mamlakatlarga YAponiya, Koreya, YAman Saudiya Arabistoni va Iordaniya kiradi. Osiyoning ko‘p millatli mamlakatlariga asosan Turkiya, Eron, Xindiston, Indoneziya, Pokiston va boshqalar kiradi.

**27-jadval**

**Osiyo mamlakatlari aholisining milliy tarkibi\*.**

<b>Davlatlar</b>	<b>Asosiy millati (foiz xisobida)</b>	<b>Boshqa ko‘p sonli Millatlar</b>
Armaniston	Armanlar – 91	Ozarbayjon, ruslar, kurdlar
Afg‘oniston	Afg‘onlar – 50	Tojiklar, o‘zbeklar
Bangladesh	Bengallar – 98	CHakmalar, santallar
Baxrayn	Arablar – 73	Eronilar, pokistonliklar
Bruney	Malayliklar – 68	Xitoylar, xindlar
Butan	Bxotiyalar – 50	Tibetliklar, nepallar
Vetnam	Vetnamliklar – 88	Kxmerlar, xitoylar
Gruziya	Gruzinlar – 70	Armanlar, ruslar
Isroil	YAxudiyalar – 85	Arablar
Indoneziya	Malaylar	Xitoylar, yavaliklar
Iordaniya	Arablar	Kurdlar, armanlar
Iroq	Arablar – 79	Kurdlar, eronilar

Kambodja	Kxmerlar – 91	Vetnamlar, xitoylar
Kipr	Grek - kiprliklar	Armanlar, turklar
Koreya XDR	Koreyslar – 99	Xitoylar
Laos	Lao – 50	Kxmerlar, taylar
Livan	Arablar – 95	Armanlar, yaxudiyar
Malayziya	Malaylar – 50	Xitoylar, xindlar
Maldiv Respublikasi	Xindlar	Singallar, arablar
Mug‘uliston	Xalxa-mug‘ullar va buriyat-mug‘ullar-90	Kozoqlar, xitoylar
Myanma	Birmanlar - 60	Karenlar, shanlar
Nepal	Hind – nepalliklar-80	Tibet - nepallar
Ozarbaydjon	Ozorbayjonlar – 83	Ruslar, armanlar
Pokiston	Panjobliklar – 66	Sindxlar, urdular
Saudiya arabistoni	Saudiya arablari – 82	YAmanlar, arablar
Singarur	Xitoylar – 77	Malaylar, tamillar
Suriya	Arablar – 85	Kurdlar, armanlar
Tojikiston	Tojiklar – 65	O‘zbeklar, ruslar
Tailand	Taylar – 75	Xitoylar, malaylar
Turkmaniston	Turkmanlar – 77	O‘zbeklar, ruslar
Turkiya	Turklar – 80	Kurdlar, arablar
Xitoy	Xitoylar (xanlar) 93	Mug‘ullar, tibetliklar
Filippin	Malaylar-95	Xitoylar, amerikaliklar
SHarqiy timor	Tegumlar – 46	Mambailar, papualar
SHrilanka	Singallar – 73	Tamillar, arablar
Eron	Eronilar – 51	Kurdlar, ozarbaydjonlar
O‘zbekiston	O‘zbeklar – 80	Tojiklar, ruslar
Janubiy Koreya	Koreyslar	YAponlar
Qazoqiston	Qozoqlar – 42	Ukrainlar, nemislar
Qatar	Qatar – arablari – 40	Pokistonliklar, eronilar
Qirg‘iziston	Qirg‘izlar – 52	Ruslar, o‘zbeklar
Quvayt	Arab quvaytliklar – 45	Arablar, xindlar
YAman	Arablar	Xindlar, afrikaliklar
YAponiya	YAponlar – 99	Koreyslar, xitoylar

\*Strany mira. M., 2007. s. 137-277.

Osiyo dunyodagi eng ko‘p millatli qit‘a bo‘lib, unda 1000 dan ortiq xalq vakillari istiqomat qiladi va ular etnik rivojlanishining turli bosqichlaridadir. Osiyoda umumiy soni xatto 100 kishidan iborat kichik qabilalardan tortib, dunyodagi eng katta – 100 milliondan ortiq xalqlar ham yashaydi. Umumiy soni 1 milliondan ortiq 107 ta xalq qayd etilgan (Bo‘rieva, 2008). Dunyodagi umumiy

soni 100 milliondan ortiq 12 ta xalqning 6 tasi – xitoy, hind, indoneziyaliklar, bengallar, yaponlar va malay xalqlari Osiyoda joylashgan va ular Osiyo aholisining asosiy qismini tashkil etadi.

27-jadvalda Osiyo mamlakatlari aholisining milliy tarkibi ko'rsatilgan bo'lib, bir millatli mamlakatlarga YAponiya, Koreya, YAman, Saudiya Arabistoni, Iordaniya, Armaniston, Kambodja, Livan, Mug'uliston kiradi. Armaniston aholisining 91% ini armanlar tashkil etadi, shu bilan birga bu erda ozarbayjonlar, ruslar va kurdlar ham yashaydi. Bangladeshning maydoni kichik bo'lsa ham aholisi soni 160 mln. dan ortiq. Bu mamlakatning 98% aholisi bengallardan iborat, shuningdek bu erda chakmalar, santallar, kxasilar yashaydi. Kombodja, Koreya, Livan, Filippin davlatlarida ham o'zining asosiy aholisidan tashqari boshqa millatlar istiqomat qiladi. Xitoy aholi soni jihatidan dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. SHunga qaramasdan, Xitoy aholisining 93% ini xitoylar (xanlar) tashkil etadi. SHuningdek, bu erda mo'g'ullar, tibetliklar ko'pchilikdir. Bundan tashqari, Xitoyda uyg'urlar, chjuanlar, myaolar, manchjurlar, koreyslar, qozoqlar, qirg'izlar va boshqalar yashashadi. YAponiyada esa aholisining 99% yaponlardan iborat, shu bilan birga, koreyslar, xitoylar, aynlar ham bor. YAponiyada yapon tilidan tashqari ayn tili ham mavjud.

Osiyoda aholisi soni ko'p bo'lgan mamlakatlardan biri Hindiston hisoblanib, bu erda dunyo aholisining 17,5%i, ya'ni qariyb 1,3 mlrd. kishi yashaydi. Hindiston aholisining 72%ini xindariy xalqlaridan iborat bo'lib, darvid xalqlari mamlakat aholisining 25%ini tashkil qiladi va ular Hindistonning janubiy qismlarida istiqomat qilishadi. Bu mamlakatda Xitoy va Filippin davlatlari singari juda ko'p millatlar yashaydi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari- Qozog'iston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'iziston aholisining milliy tarkibi tahlili shundan dalolat beradiki, bu mamlakatda o'zining asosiy aholisi salmog'ining yuqoriligi jihatidan O'zbekiston birinchi o'rinni egallaydi, bu erda aholining 80% o'zbeklardan iborat, bu ko'rsatkich Qozog'istonda – 42%, Qirg'izistonda – 52%, Turkmanistonda – 77%, Tojikistonda – 65%ga tengdir. O'zbekiston ham ko'pmillatli mamlakat



bo‘lib, o‘zbeklar bilan bir qatorda tojiklar, ruslar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, tatarlar, koreyslar, qirg‘izlar, turkmanlar, turklar, ukrainlar va boshqalar istiqomat qiladi.

Osiyoning ko‘pchilik mamlakatlarida milliy masalalar yaxshi ahvolda emas. Ayrim xalqlar bir necha davlatlarga bo‘linib ketgan. Masalan, kurdlarning etnik hududi Turkiya, Eron, Suriya, Iroq o‘rtasida bo‘lib olingan, balujlar etnik hududi Eron, Afg‘oniston, Pokiston o‘rtasida, afg‘onlar (pushtunlar) Afg‘oniston bilan Pokiston, panjoblar-Pokiston bilan Xindiston o‘rtasida bo‘lib olingan va h.k. Bunday hol milliy o‘zaro hamkorlikni qiyinlashtiradi va davlatlar o‘rtasidagi munosobatlarda ayrim nizolarni vujudga keltiradi. Osiyoda bunday misollar ko‘p. Kurd va pushtun muammolari milliy masala negizida kelib chiqqan, murakkab va keskin siyosiy muammoga aylangan. Xitoyda mayda millatlarni “xitoylashtirish” siyosati, shuningdek, yaxudiy-arab nizolari ana shunday muammolardandir (Asanov, 1978). Osiyoda bu muammolar sababli shu hududlarda ham haligacha milliy nizolar xal etilmagan.

Afrika aholisi milliy tarkibining shakllanishida bu hududa uzoq davom etgan, mustamlakachilik, ularning millat va elatlarga birlashuviga xalaqit berdi. SHu bilan birga, Afrikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga to‘sqinlik qildi. Bir qator aholishunos olimlar, jumladan G.R.Asanov tomonidan Afrika aholisini milliy tarkibi jihatdan 3 qismga ajratadi:

- 1) SHimoliy Afrika va qisman SHimoli-SHarqiy Afrika.
- 2) SHarqiy va G‘arbiy Sudan.
- 3) Tropik va Janubiy Afrika.

SHimoliy Afrika va qisman SHimoliy-sharqiy Afrikada asosan arablar va barbarlar - Tunis, Jazoir, Liviya, Misr, Marokash va boshqa davlatlarda yashaydi. Sudanda asosan arablar, shuningdek nubalar va bedjalar istiqomat qiladi. Antantika sohili mamlakatlaridan Mavritaniyada arablar va barbarlar avlodlari 80%ni tashkil etadi. Bundan tashqari, voloflar, tukuperlar va boshqalar yashaydi. SHuningdek, okean sohilida Senegal, Gvineya, Liberiya, Serra – Leone va boshqa mamlakatlarda voloflar, fulbalar, sererlar, limbalar, temnelar, fulanilar, malinkelar, susular va boshqalar istiqomatqilishadi. Gvineya qo‘ltig‘i sohilida joylashgan

mamlakatlar Kot – Divuarda baule, bete, senufo va boshqalar, Ganada – 75 dan ortiq xalqlar, Togoda togolar, yorubalar, evelar, evropaliklar va boshqalar, Beninda – 42 ta afrika xalqlari, Nigeriyada yorubalar, ibolar va boshqalar yashaydilar, Sudanning sharqiy qismi Efiopiya va Somalida qadimiy aralash irqalar – xabashlar avlodlari, ya’ni asosan somaliyliklar–kushitlar Somali davlatida, Efiopiyada oromolar, amxaralar, tigrelar va boshqalar, Eritreyada – tigrelar, xedareblar, ofaralar va boshqalar yashaydilar. Afrika aholisining milliy tarkibi jixatidan uchinchi tropik va janubiy Afrikada asosan materikning tub aholisi xisoblangan, bantu tilida so‘zlashuvchi xalqlar yashaydi. Masalan, Angolada aholining 37% ini orimbuntalar 25% ini lebanda xalqlari, shuningdek, bakongolar, lunda – gokvelar va boshqalar tashkil etadi. Kongo Demokratik Ruspublikasida 200 xil etnik guruhlar bilan birga, yana Sudan qabilalari xam yashaydi. Zambiyada esa Bantu til oilasining 70 xil guruxiga kiruvchilar va oz miqdorda evropaliklar ham yashaydi. Janubiy Afrika Respublikasining 77% ini afrikaliklar, qolgan qismi esa evropaliklar va metislarga to‘g‘ri keladi.

## 28- jadval

### Afrika mamlakatlari aholisining milliy tarkibi\*.

<b>Davlatlar</b>	<b>Asosiy millati (%) hisobida</b>	<b>Boshqa ko‘p sonli millatlar</b>
Angola	Arimbunta – 37 Umbanda – 25	Bakongo, lunda - gokve
Benin	42 xil afrika xalqlari	Yoruba, evropaliklar
Botsvana	Tevana – 90	Kung, kalanga
Burkina – Faso	Mosi – 50	Lobi, bobo
Burundi	Xutu – 85	Tutsi, pigmey
Gabon	Fang – 25	Bapunon, eshira
Gambiya	Mandingo – 42	Fulani, uolof
Gana	72 xil xalqlar aku-opemtvi	Dag-bani, eve
Gvineya	Fulanlar – 35	Malinke, susu
Gvineya-Bisau	Balante – 27	Fula, manjak
Zambiya	Bantu oilasining 70 guruhi – 98	Evropaliklar
Zimbabve	SHona – 71	Matabele, osiyoliklar
Kabo-Verde	Kreollar – 60	Afrikaliklar, evropaliklar

Kamerun	Gorslar – 31	Bontu, kirdi
Keniya	Kikuiyu – 21	Luxya, luo
Kongo	Bakongo – 45	Bateke, mboshi
Kongo DR	200 xil etnik guruhlar	Sudan qabilalari
Kot-D’Ivuar	Baule – 23	Bete, senufo
Lesoto	Bantu	Basuto, nguni
Liberiya	Kkele – 95	Kru, gola
Liviya	Arablar va barbarlar – 97	Greklar, italyanlar
Mavrikiy	Indomavrikiy-67	Kreollar, xitoylar
Mavritaniya	Mavriylar – 80	Volof, tukuper
Madagaskar	Merina – 26	Betsilo, telmixeti
Malavi	geva – 90	Nyandja, tukibuka
Mali	Malinke	Bambara, senufo
Marakash	Arablar, barbarlar	YAxudiy, fransuzlar
Misr	Arablar – 93	Nubidiylar, barbarlar
Mozambik	Makua	Malavi, shona
Jazoir	Arablar – 83	Barbarlar, evropaliklar
Namibiya	Avambo – 50	Kavango, xerero
Niger	Xausa	Derma – songai fulba
Nigeriya	Xausa – 21	Yoruba, ibo
Ruanda	Xutu – 84	Tutsi, pigmey
Svazilend	Svazi	Zulu, tongo
Seyshel orollari	Kreollar va seysshelliklar-95	Evropaliklar, xindlar
Senegal	Volof – 36	Fulba, sererlar
Somali	Kushitlar – 84	Arab, xind
Sudan	Arablar – 48	Nuba, bedja
Serra – Leone	Mende limba va temne – 70	Afrikaboshqa xalqlari
Tanzaniya	130 ta qabila	Sukuma, nemvezi
Togo	Togo	Yoruba, chokossi
Tunis	Tunislik arablar	YAxudiy, fransuz
Uganda	Ganda va boshqalar-70	Akoli, dongo
Markaziy Afrika respublikasi	Gbaya – 34	Banda, mandja
CHad	Sara, tubu	Bagirlsh
Ekvatorial Gvineya	Fang – 80	bubi
Eritreya	Tigre	Xedarab, afar
Efiopiya	Oromo – 40	Amxara, tigre
Janubiy Afrika Respublikasi	Afrikaliklar – 77	Evropaliklar, metislar

\*Страны мира. М. 2007. стр. 283 – 445

Afrika mamlakatlarining ba'zilarida juda ko'p xalqlar birgalikda yashaydilar. Masalan, Beninda – 42 xil, Kanada 72 xil, Zambiyada 70 xil, Kongo DR 200 xil, Tanzaniyada 130 xil xalqlar va qabilalar istiqomat qiladilar.

Dunyo qit'alari va mamlakatlari aholisining milliy tarkibi o'ziga xos bo'lib, ularning paydo bo'lishi, shakllanishi ko'p jixatlari bilan farq qiladi.

Amerika aholisi milliy tarkibining vujudga kelishi va shakllanishiga, birinchi navbatda Amerikaning tub joy aholisi xindular va Evropaliklarning Amerikaga ko'chib kelishi sababchi bo'lgan. Keyinchalik amerikaliklar Afrikadan negrlarni qul qilib olib kelishi natijasida, Amerika aholisi yanada aralashib ketgan. Buning natijasida hozirgi vaqtda Amerikada evropaliklar, xindular, metislar, mulatlar, sambolar va boshqa ko'plab xalqlar yashaydi.

## 29-jadval

### Amerika mamlakatlari aholisining milliy tarkibi\*.

Davlatlar	Asosiy millati ( %) hisobida	Boshqa ko'p sonli millatlar
Angiliya	Negrlar, mulatlar	Evropaliklar
Antigua va Barbuda	Afrika mamlakatlari xalqlari	Afrika xalqlari
Antil orollari	Negrlar	Mulatlar
Bagam orollari	Afrika xalqlari – 85	Amerikaliklar, inglislari
Barbados	Afrika xalqlari – 80	Metislar, evropaliklar
Beliz	Kreolitlar	Metislar, xindular
Bermud orollari	Afrika xalqlari-60	Afrika xalqlari
Gaiti	Afrika xalqlari-95	Mulatlar evropaliklar
Gvadelupa	Negrlar va mulatlar-90	Fransuzlar
Gvatemala	Xindular, metislar	Evropaliklar afrikaliklar
Gonduras	Metislar-90	Gvatemalaliklar
Grenada	Afrika xalqlari va mulatlar	Xindular, evropaliklar
Grenlandiya	Grenlandiya eskimoslari- 90	Daniyaliklar
Dominika	Afrika xalqlari	Hindular
Dominika Respublikasi	Mulatlar – 73	Evropaliklar, afrikaliklar
Kanada	Inglislari-45	Fransuzlar, italyanlar
Kosta – Rika	Metislar - 97	Yamayka negirlari,

		hindular
Kuba	Ispanlar	Mulatlar, negrlar
Martinika	Negrlar va mulatlar-90	Evropaliklar, hindular
Meksika	Metislar – 60	Hindular, evropaliklar
Montserrat	Afrika xalqlari	Aralash xalqlar
Nikaragua	Metislar – 69	Evropaliklar, negrlar
Panama	Metislar – 70	Vest – xindular, oq amerikaliklar
Puerto – Riko	Kreollar-73	Mulatlar, negrlar
Salvador	Metislar – 92	Xindular evropaliklar
AQSH	Evropaliklar avlodlari-amerikaliklar – 83	Irlandlar, italyanlar, ruslar
Yamayka	Afrikaliklar – 76	Metislar, evropaliklar
Argentina	Evropaliklar avlodlari-85	Ispanlar avlodlari
Boliviya	Xindular – 55	Metislar, evropaliklar
Braziliya	Evropaliklar avlodlari-55	Metislar, negrlar
Venesuela	Metislar – 67	Evropaliklar, italyanlar
Gayana	Xindistonliklar avlodlari – 51	Afro-gayanaliklar, xindular
Gviana	Kreollar	Negrlar xindular
Kolumbiya	Metislar – 58	Evropaliklar, mulatlar
Paragvay	Metislar – 95	Ispanlar, yaponlar
Peru	Xindular – 45	Metislar, evropaliklar
Surinam	Xindlar 37 Kreollar 31	Indoneziyaliklar, negrlar
Urugvay	Evropaliklar – 88	Mulatlar, negrlar
CHili	Metislar-65	Evropaliklar, xindular
Ekvador	Metislar – 65	Xindular, ispanlar

\*Страны мира . М., 2007. стр. 446 – 561.

SHimoliy Amerikaning katta mamlakatlaridan AQSHda aholisining 83% ini asosan Evropadan ko‘chib kelganlar avlodlari amerikaliklar tashkil etadi. SHuningdek, AQSHda irlandlar, italyanlar, ruslar, yaxudiyalar, polyaklar, ukrainlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Bundan tashqari, mamlakat aholisining 12,4% ini afroamerikaliklar, ya’ni XVIII asrda Afrikadan olib kelingan qullarning avlodlari, shu bilan birga Osiyolik Tinch okeani orollari aholisi, Amerika tub joy aholisi – xindular yashaydilar. SHimoliy Amerikaning yana katta mamlakatlaridan Kanadada aholining 45% ini inglislilar, 29% ini fransuzlar, qolgan qismi esa boshqa

Evropa xalqlari – 23% ini tashkil etadi, bular: italyanlar, nemislar, gallandlar, polyaklar, vengerlar, ukrainlar. Bular bilan birga, Kanadaning tub joy aholisi xindular, eskimoslar jami aholisining bor yo‘g‘i 3% ini tashkil qiladi.

SHimoliy Amerikada yana bir katta mamlakat Meksika joylashgan. Bu mamlakat aholisining 60% i metislardan va 30% i xindulardan iborat. Bu erda qolgan aholini evropaliklar tashkil etadi.

Janubiy Amerika mamlakatlari ichida eng kattasi Braziliya xisoblanadi. Bu mamlakat aholisining 55% ini evropaliklar avlodlari, ya’ni ispanlar, portugallar, italyanlar, nemislardan iborat. Bundan tashqari aholisining 38% i metislardan iborat, shuningdek, aholining 6% ini qora afrikaliklar tashkil qiladi. Argentina xam janubiy amerikaning katta mamlakatlaridandir. Argentina aholisining 85% ini kelib chiqishi evropalik bo‘lganlardan iborat bo‘lib, ularning asosiy qismi ispaniyaliklarning avlodlari xisoblanadi. Aholining qolgan qismi 15% i ni metislar tashkil qiladi.

Amerikaning tub joy aholisi xindular ko‘p joylashgan mamlakatlarga Boliviya – 55%, Peru45%, Gvatemala kiradi.Qolgan mamlakatlarda ularning salmog‘i kamdir. Ba’zi bir mamlakatlar, jumladan Antigua va Barbudada, Bagam orollarida, Barbadosda, Bermud orollarida, Gaitida, Grenadada, Dominikada, Montserratda, YAmaykada asosan Afrika xalqlari yashaydi Metislar va mulatlarning asosiy qismi esa Angiliya, Gvadelupa, Gvatemala, Gonduras, Grenada, Dominika Respublikasida, Kosta – Rika, Martinika, Meksika, Nikaragua va boshqa mamlakatlarda yashaydi.

Avstraliya va Okeaniya aholisini milliy tarkibi jixatidan G.R. Asanov ikki guruxga bo‘lgan:

1) Avstraliya va YAngi Zelandiya davlatlari.

Bu mamlakatlar aholisining milliy tarkibi bir xil bo‘lib, Avstraliyada Avstraliya inglislari, YAngi Zelandiya zelandiyalik inglislari yashaydi. Bu mamlakatlarda tub joy aholisi aborigentlar kam qolgan.

2) Polineziya, Meloneziya va Mikroneziya orollari.

Bu orollarda aholi xali ham qabila – qabila bo‘lib yashaydiganlar mavjud.

## Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari aholisining milliy tarkibi

<b>Davlatlar</b>	<b>Asosiy millatlar (%) hisobida</b>	<b>Boshqa ko‘p sonli millatlar</b>
Avstraliya	Inglislar va irlandlar-95	Osiyoliklar, aborigentlar
Vanuatu	Melaneziyaliklar – 95	Evropaliklar, vetnamliklar
Tuam	Tub joy aholisining avlodlari – 50	Indoneziyaliklar, filipinliklar
Kiribati	Mikroneziyaliklar	Polineziyaliklar, xitoylar
Marshal orollari	Mikroneziyaliklar – 97	Polineziyaliklar
Mikroneziya	Mikroneziyaliklar-41	Ponape
Nauru	Nauranliklar – 58	Tinch okeani orollari xalqlari xitoyliklar
YAngi Zelandiya	Evropalikliklar – 88	Maori, Tinch okeani orollari aholisi
YAngi Kaledaniya	Melaneziya, kanaklari-42	Fransuzlar, uollisiylar
Palau	Mikroneziyaliklar-80	filippinlar
Papua – YAngi Gvineya	Papuaslar – 84	Melaneziyaliklar, pigmeylar
G‘arbiy Samoa	Samoaliklar – 90	Evroneziylar, evropaliklar
Solomonovlar orollari	Melaneziyaliklar – 93	Polineziyaliklar, mikroneziyaliklar
Tongo	Tongoliklar – 98	Evropaliklar
Tuvalu	Tuvaluliklar	Evropaliklar
Fidji	Fidjiliklar-49	Xindlar, evropaliklar
Fransuz,Polineziyasi	Polineziyaliklar	Fransuzlar, xitoylar

\*Страны мира .М. 2007. стр 563 – 599

A.Antipova va M.R.Bo‘rievlar Avstraliya va Okeaniya aholisini milliy tarkibini ikki guruhga bo‘lgan: tub joy aholisi va evropadan kelganlar. Bu hududning o‘zining tub joy aholisi kam qolgan. Ular aholisining 15% ini tashkil etadi, qolganlari Evropadan ko‘chib kelganlar, asosan inglizlardan iborat. SHuningdek fransuzlar, italyanlar, ispanlar va boshqalar ham yashaydi.

Avstraliya mamlakatining 95% aholisini inglizlar va irlandlar tashkil etadi. SHu bilan birga bu erda Osiyo mamlakatlardan kelganlar va aborigenlar

yashashadi. Yangi Zelandiya aholisining 88%ini evropaliklardan iborat bo'lib, qolgan qismini tub joy aholisi maoriylar hamda Tinch okeani orollari xalqlari tashkil qiladi. Okeaniyada joylashgan mamlakatlarning barchasida aholining milliy tarkibida aholisining asosiy qismini tub joy aholilari mikroneziyaliklar, melaneziyaliklar, polineziyaliklar tashkil etadi.

### **3.3. Aholining diniy tarkibi**

#### **Reja:**

1. Dunyoviy dinlar
2. Mahaliy dinlar
3. Evropa, Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya va Okeaniya mamlakatlari aholining diniy tarkibi.

Aholining diniy tarkibini geografik jihatidan o'rganish muhim masalalardan biridir. Binobarin, jahon aholisi diniy e'tiqotiga ko'ra geografik tarqalishi turlicha bo'lib, ular biri-biridan farq qiladi.

Hozirgi vaqtda ham ibtidoiy jamoaga xos bo'lgan, magiya, animizm, totemizm, fetishizm kabi din shakllari saqlanib qolgan (Asanov, 2003). Masalan, totemizm diniga e'tiqod qiluvchilar, o'zini biron-bir o'simlik yoki hayvonlardan paydo bo'lganmiz, deb ishonadilar. SHuning uchun Avstraliyada yashovchi aboragen qabilalari kenguru, tuyaqushni o'ldirmaydilar va go'shtini ham emaydilar. Er shari aholisining asosiy qismi e'tiqod qiladigan dinlar uchta bo'lib, ular xristian, islom va buddizmdir. Bu dinlar «Dunyo dinlari»,- deb ataladi. Taxminiy hisob – kitoblarga ko'ra, dunyo aholisining 33% ini xristianlar, 20% ini musulmonlar, 6% buddistlar va induistlar, qolgan qismini mahalliy dinlarga e'tiqod qiluvchilar hamda ateistlar, ya'ni hech bir dinga e'tiqod qilmaydigan aholi kiradi. Dunyoda eng katta din xristian dini hisoblanadi. Bu dinga dunyo aholisining 2,4 mlrd.dan ortig'i e'tiqod qiladi. Xristian dinining paydo bo'lishi qadimiy din iudaizm bilan bevosita bog'liq bo'lib, iudaizm eramizdan oldingi VII asrda paydo bo'lgan. Keyinchalik xristian va iudaizm dinlari Evropa



mamlakatlarda keng tarqalgan. Iudaizm dini eramizning 700-1000 yillarida Ierusalimdan Konstantinopol, Rim, Lissabon, Parij, London, Jazoir va Aleksandriyada keng tarqalgan. Eramizning 1000-1500 yillarida Evropa mamlakatlaridan yahudiylar haydab chiqarilgan (Kuznetsov, 2000). Xristianlik oʻrta asr boshidayoq, Evropaning barcha xalqlari diniga aylangan. Xristianlikning dunyoning boshqa qismlariga kirib borishi koʻproq buyuk geografik kashfiyotlar XVI asrga toʻgʻri keladi. Xristianlik bir necha tarmoqlarga boʻlinadi. XI asr oʻrtalarida xristianlik ikki tarmoqqa provaslav va katoliklarga ajraladi.

### 31-jadval

#### Xristian diniga eʼtiqod qiluvchi mamlakatlar geografiyasi

<b>№</b>	<b>Mamlakatlar</b>	<b>Aholining diniy tarkibi foiz hisobida</b>
1.	Avstraliya	Protestant- inglizlar – 26,1 katoliklar – 26, boshqa xristianlar – 24,3, boshqalar 23,6
2.	Avstriya	Katoliklar - 78, protestantlar- 5, musulmonlar va boshqalar 17.
3.	Andorra	Katoliklar - 99,2
4.	Angilya (Buyuk Britaniya)	Protestantlar - 85, boshqa dinlar -15
5.	Antigua va Barbuda	Asosan protestanlar, katoliklik
6.	Aruba (Niderlandiya)	Katoliklar - 80, protestonlar -8 va boshqalar.
7.	Bagam orollari	Protestantlar - 64, katoliklar - 19 va boshqalar
8.	Beliz	Katoliklar – 50, pratestantlar -49 va boshqalar
9.	Belorussiya	Provaslavlar – 80 va boshqalar
10.	Belgiya	Katoliklar – 75, pratestantlar va boshqalar - 25
11.	Bermud orollari (Buyuk Britaniya)	Protestanlar – 66, katoliklar - 15 va boshqalar
12.	Bolgariya	Provaslav - 84 , musulmonlar – 12 va boshqalar
13.	Boliviya	Katoliklar - 95, protestontlar – 5
14.	Braziliya	Katoliklar - 80 va boshqalar
15.	Bagam orollari	Protestantlar - 64, katoliklar -19 va boshqalar
16.	Vatikan -	Katoliklar

17.	Buyuk Britaniya	Protestantlar - 90 va boshqalar
18.	Vengriya	Katoliklar - 67,5, protestantlar -25, ateistlar - 7,5
19.	Venesuela	Katoliklar -96, va boshqalar
20.	Virgin orollari (Buyuk Britaniya)	Protestantlar - 59 , katoliklar 34.
21.	Virgin orollari (AQSH )	Protestantlar - 80 katoliklar - 20.
22.	SHarqiy Timor	Katoliklar 90 va boshqalar
23.	Gabon	Xristianlar -55 – 75 va mahalliy dinlari .
24.	Gaiti	Katoliklar - 80, protestantlar -16 va boshqalar
25.	Gayana	Xristianlar - 50, induistlar 35, musulmonlar – 10 va boshqalar
26.	Gvadelupa (Fransiya)	Katoliklar – 95 va boshqalar
27.	Gvatemala	Katoliklar, protestantlar va boshqalar
28.	Gviana ( Fransiya)	Katoliklar
29.	Germaniya	Protestantlar -34, katoliklar – 34 va boshqalar
30.	Gibraltar (Buyuk Britaniya)	Katoliklar – 77 va boshqalar
31.	Gonduras	Katoliklar - 97, protestantlar - 3
32.	Grenada	Katoliklar 53, protestantlar -47
33.	Grenlandiya	Protestantlar
34.	Gretsiya	Provaslavlar - 98 va boshqalar
35.	Gruziya	Provaslavlar - 65, musulmonlar -11 va boshqalar
36.	Daniya	Protestantlar - 95 va boshqalar
37.	Dominika	Katoliklar- 77, protestantlar – 15 va boshqalar
38.	Dominika Respublikasi	Katoliklar - 95 va boshqalar
39.	Irlandiya	Katoliklar - 92, protestantlar – 3 va boshqalar
40.	Ispaniya	Katoliklar - 94 va boshqalar
41.	Islandiya	Protestantlar – 93 va boshqalar
42.	Italiya	Katoliklar – 84, protestantlar -5 va boshqalar
43.	Kabo – Verbe	Asosan katoliklar , protestantlar
44.	Kanada	Katoliklar – 46 , protestantlar -36 va boshqalar
45.	Keniya	Protestantlar – 45, katoliklar – 33 va boshqalar
46.	Kipr	Provaslavlar – 78, musulmonlar – 18 va boshqalar
47.	Kalumbiya	Katoliklar – 90 va boshqalar

48.	Kongo (Brazzavil)	Xristianlar – 50, mahalliy dinlar – 48, musulmonlar – 2
49.	Kongo (Kinshaca)	Katoliklar – 50 protestontlar – 20 va boshqalar
50.	Janubiy Koreya	Xristianlar – 49 buddistlar – 47 va boshqalar
51.	Kosta – Rika	Katoliklar – 76 , protestontlar – 15 va boshqalar
52.	Kuba	Katoliklar – 85 va boshqalar
53.	Latviya	Protestantlar, katoliklar , provaslavlilar
54.	Lesota	Xristianlar – 80 va maxalliy dinlar.
55.	Litva	Katoliklar, protestantlar, pravoslavlilar.
56.	Lixtenshteyn	Katoliklar, protestantlar va boshqalar
57.	Lyuksemburg	Asosan katoliklar, protestantlar va boshqalar
58.	Makedoniya	Pravoslavlilar – 67, katoliklar – 20, musulmonlar – 20 va boshqalar.
59.	Malavi	Protestantlar – 55, katoliklar–20, musulmonlar-20
60.	Malta	Katoliklar – 95 va boshqalar
61.	Martinika (Fransiya)	Katoliklar – 95 va boshqalar
62.	Marshall orollari	Asosan protestantlar
63.	Meksika	Katoliklar – 89 va boshqalar
64.	Mikroneziya	Katoliklar – 50 protestantlar – 47
65.	Maldaviya	Provaslavlilar – 98 va boshqalar
66.	Manoko	Katoliklar – 90
67.	Namibiya	Xristianlar 80 – 90 va boshqalar
68.	Niderlandiya	Katoliklar – 31 protestontlar – 21 va boshqalar
69.	Nikaragua	Katoliklar – 85 va boshqalar
70.	YAngi Zelandiya	Protestantlar – 52, katoliklar – 15 va boshqalar
71.	YAngi Kaledoniya (Fransiya)	Katoliklar – 60, protestantlar – 30 va boshqalar
72.	Norvegiya	Protestantlar – 86 va boshqalar
73.	Palau	Katoliklar – 49 va boshqalar
74.	Panama	Katoliklar – 85, protestantlar – 15
75.	Papua – YAngi Gvineya	Protestantlar – 44, katoliklar – 22 va boshqalar
76.	Paragvay	Katoliklar – 90 va boshqalar
77.	Peru	Katoliklar – 90 va boshqalar
78.	Polineziya (Fransiya)	Protestantlar – 54 katoliklar – 30 va boshqalar
79.	Polsha	Katoliklar – 95 va boshqalar
80.	Portugaliya	Katoliklar – 94 va boshqalar

81.	Puerto Riko (AQSH)	Katoliklar – 85 va boshqalar
82.	Rossiya	Asosan provoslavlar, musulmonlar , buddistlar va boshqalar
83.	Ruminiya	Pravoslavlar – 70 va boshqalar
84.	Salvador	Katoliklar – 83 va boshqalar
85.	San – Marino	Katoliklar va boshqalar
86.	Slovakiya	Katoliklar – 61, ateistlar – 10 va boshqalar
87.	Sloveniya	Katoliklar – 71 va boshqalar
88.	AQSH	Protestantlar – 56, katoliklar – 28 va boshqalar
89.	Tuvalu	Protestantlar – 97 va boshqalar
90.	Uganda	Katoliklar – 33, protestantlar – 33 va boshqalar
91.	Ukraina	Pravoslavlar va boshqalar
92.	Urugvay	Katoliklar – 66 va boshqalar
93.	Filippin	Katoliklar – 83 va boshqalar
94.	Finlyandiya	Protestantlar – 90 va boshqalar
95.	Fransiya	Katoliklar – 88 va boshqalar
96.	Xorvatiya	Katoliklar – 76 va boshqalar
97.	CHexiya	Katoliklar – 39, ateistlar – 40 va boshqalar
98.	CHili	Katoliklar – 89 va boshqalar
99.	SHvetsyariya	Katoliklar – 46, protestantlar – 40 va boshqalar
100.	SHvetsiya	Protestantlar – 87 va boshqalar
101.	Ekvador	Katoliklar – 95
102.	Estoniya	Asosan protestantlar, provoslavlar va boshqalar
103.	Janubiy Afrika Respublikasi	Xrestianlar – 68 va boshqalar
104.	Yamayka	Protestantlar – 61 va boshqalar.

Jadval internet ma'lumotlari: files. school – collection, edu. gu. asosida muallif tomonidan tuzilgan.

XVI asrdagi feodalizm krizisi dinga ham ta'sir qilib, Rim - katolik dinining reformasiga olib keladi. Lyuter Martin ( 1483-1546 xristian dinining protestantlik mazxabi asoschisi sifatida uning reformasi tufayli xristianlikning uchinchi asosiy tarmog'i – protestantlik paydo bo'ldi. Protestantlikni Rim papasi tan olmasa ham, bu din tarmog'i Skandinaviya mamlakatlarida, Niderlandiya va nemislar orasida keng tarqalgan (Asanov, 1978 ).

YUqorida aytilgandek, dunyo aholisining 33% yoki 2,4 mln. kishi xristian diniga e'tiqod qiladi. 31-jadvalda xristian dini keng tarqalgan mamlakatlar ko'rsatilgan bo'lib, ularni tahlili shundan dalolat beradiki, xristian diniga e'tiqod qiluvchi dunyo mamlakatlari aholisining asosiy qismi katoliklar hisoblanadi. Katolik diniga e'tiqod qiluvchilar asosan Evropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida keng tarqalgan.

Avstraliya aholisining 78%, Andorra–99%, Aruba–82%, Vatikan – 100%, Vengriya – 67%, Venesuela – 96%, Beliz – 50%, Belgiya – 75%, Boliviya – 95%, Braziliya – 80%, SHarqiy Timor – 90%, Gaiti, Gvatemala, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Kosta – Rika, Kuba, Litva, Gonduras, Dominika, Kanada, Kolumbiya, Meksika, Manoko, Nikaragua, Polsha, Portugaliya, Salvador, Filippin, Fransiya, CHili, SHveysariya va boshqa mamlakatlar aholisi katoliklar hisoblanadi.

Bu mamlakatlarda katoliklardan tashqari protestantlar, musulmonlar, o'zining mahalliy diniga e'tiqod qiluvchilar ham yashashadi. Masalan, Vengriyada aholining 67% katoliklar bo'lsa, qolgan 25% protestantlar va 8% ga yaqin qismini ateistlar tashkil etadi. Belgiya, Boliviya, Irlandiya, Italiya, Litva, Kanada, Niderlandiya, Fransiya, SHveysariya va boshqa mamlakatlarda ham katoliklar bilan birga, protestantlar, musulmonlar va boshqa dinga e'tiqod qiluvchi kishilar yashashadi. Katolik dini butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Bu asosan evropaliklarning buyuk kashfiyotlari hamda Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlariga boylik izlab borishlari, u mamlakatlarni o'zining mustamlakasiga aylantirilganligi sababli bo'lgan.

Xristian dinining protestantlik tarmog'iga e'tiqod qiluvchilar soni va er shari bo'yicha tarqalishi jihatidan 2-o'rinda turadi. Protestantlik asosan Evropa va orollarda joylashgan mamlakatlarda keng tarqalgan, chunki orollardagi mamlakatlarning ko'pchiligi Evropa mamlakatlariga qarashli hisoblanadi. Buyuk Britaniya aholisining 90%, Islandiyaning 93%, Daniya 95%, Norvegiya 86%, Finlyandiya – 90%, SHvetsiya 87% ini protestantlar tashkil etadi. SHuningdek, protestantlik Avstraliya, Latviya, Grenlandiya, Keniya, Kanada, YAngi

Zelandiya, Papua - Yangi Gvineya, Estoniya, Yamaykada ham keng tarqalgan. Protestantlik dini boshqa dinlarga qaraganda, orollarda joylashgan mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan: Angilya, Bagam, Virgin, Bermud, Marshall orollari va boshqalar.

AQSH aholisining 56%i protestantlar, 28% aholisi esa katoliklar va qolgan qismi boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchilardir. Germaniya aholisining 34% protestantlar 34% katoliklar, Kanada aholisining 36%i protestantlar, 46% katoliklardir.

Xristian dinining pravoslav tarmog'i e'tiqod qiluvchilar soni va tarqalishi jixatidan so'ngi o'rinni egallaydi. Taxminiy xisoblarga ko'ra, xristianlarning 56% ini katoliklar, 34% protestantlar va qolgan 10% ini pravoslavlar tashkil etadi.

Xristian dinining pravoslav tarmog'i asosan Belorussiyada aholisining 80%, Bolgariyada 84%, Gretsiyada 98%, Gruziyada 65%, Kipr 78%, Makedoniyada 67%, Maldaviya 98%, Ruminiya 70%, Rossiya va Ukrainada ham asosiy dini hisoblanadi. Boltiq bo'yi respublikalari asosiy dini protestantlik va katolik bo'lishiga qaramasdan, bu erda pravoslav diniga ham e'tiqod qiluvchilar mavjud.

Dunyoviy dinlar ichida ikkinchi katta din islom dini hisoblanadi. Islom dini paydo bo'lishi jihatidan eng yoshidir. Bu din VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Islom dinini musulmonlar dini ham deb aytishadi. Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning asosiy qismi Arab mamlakatlarida, kichik Osiyo, Eron, Arabiston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya, Malayziya, Afrika mamlakatlarida yashaydi (Kopilov, 2005).

Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning hayot mazmuni shundan iboratki, odam o'z hayotida halol – pok bo'lishi insofli, diyonatli bo'lishi, o'g'irlik qilmasligi, er-xotin bir-biriga xiyonat qilmasligi lozim. Musulmonlar bu hayotda mehmon hisoblanadi va odamlar er yuziga sinov uchun yuborilgan. Gunoh qilganlar o'limidan keyin do'zoxga, gunohsiz odamlar jannatga tushadi degan aqidalar islom dinida mavjud. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar uchun muqaddas joylarni ziyorat qilish islom dinining asosiy shartlaridan biridir. Bunday

muqaddas joylarining eng asosiysi Saudiya Arabistoni davlatida joylashgan Makka va Madina shaharlaridir. Musulmonlarning asosiy qismini sunniylar tashkil etadi. SHialar asosan Eron, Iroq, Baxraynda yashaydi, shu bilan birga, shialar Afgʻaniston, Ummon, BAA, Pokiston, Yaman, Quvayt musulmonlarining 15–20% ini tashkil qiladi.

### 32-jadval

#### Islom diniga eʼtiqod qiluvchi mamlakatlar geografiyasi

Mamlakatlar	Aholining diniy tarkibi, foiz hisobida
Albaniya	Musulmonlar – 70, pravoslav – 20 va boshqalar
Afgʻoniston	Musulmonlar sunniylar – 84, musulmon shialar 15, boshqalar -1
Bangladesh	Musulmonlar – 83, induistlar – 16 va boshqalar
Baxrayn	Musulmon shialar – 70, musulmon sunniylar – 30
Bosniya va Gersegovina	Musulmonlar– 40, pravoslavlar – 30 va boshqalar
Bruney	Musulmonlar – 67, buddistlar – 13 va boshqalar
Gambiya	Musulmonlar – 90, xristianlar – 9 va boshqalar
Gvineya	Musulmonlar – 85, xristianlar – 8 va boshqalar
Jibuti	Musulmonlar – 94, xristianlar – 6
Misr	Musulmon sunniylar – 94, xristianlar – 6
Gʻarbiy Saxara	Musulmonlar.
Indoneziya	Musulmonlar – 88, xristianlar – 8 va boshqalar
Iordaniya	Musulmonlar sunniylar – 92 , xristianlar – 6 va boshqalar
Iroq	Musulmonlar sunniylar – 35, shialar – 62 va boshqalar
Eron	Musulmon shialar – 89, musulmon sunniylar – 10 va boshqalar - 1
Yaman	Asosan musulmonlar xristianlar va boshqalar
Qozoqiston	Musulmonlar – 47 pravoslavlar – 44 va boshqalar
Qatar	Musulmonlar – 95 va boshqalar
Qirgʻiziston	Musulmonlar – 75 provoslovlar – 20 va boshqalar
Komor orollari	Musulmonlar sunniylar – 98 kotoliklar – 2
Kot - d Ivuar	Musulmonlar – 35 – 40 xristianlar 20 – 30 va boshqalar
Quvayt	Musulmon sunniylar – 60 musulmon shialar – 25 va boshqalar
Livan	Musulmonlar – 70, xristianlar – 30
Liviya	Musulmon suniylar – 97 va boshqalar
Mavritaniya	Musulmonlar – 100
Malayziya	Musulmonlar – 55 buddistlar – 30 va boshqalar

Myami	Musulmonlar – 90, mahalliy dinlar – 10
Maldiv orollari	Musulmon sunniylar
Marokash	Musulmonlar – 99 va boshqalar
Niger	Musulmonlar – 80 , mahalliy dinlar
Nigeriya	Musulmonlar – 50, xristianlar – 40 va boshqalar
BAA	Musulmon sunniylar – 80 , musulmon shialar – 16 va boshqalar
Ummon	Musulmonlar.
Pokiston	Musulmon sunniylar – 77, musulmon shialar – 20 va boshqalar
Falastin Iordan daryosi g'arbiy qirg'og'i	Musulmonlar – 75 induistlar – 17 va boshqalar
Falastin gaz sektori	Musulmonlar – 99 va boshqalar
Saudiya Arabiston	Musulmonlar – 100
Senegal	Musulmonlar – 94 mahalliy dinlar
Suriya	Musulmon sunniylar – 74 boshqa musulmonlar – 16 va boshqalar
Somali	Musulmon sunniylar
Sudan	Musulmon sunniylar – 70 , mahalliy dinlar – 25 va boshqalar
Tojikiston	Musulmon sunniylar – 85, musulmon shialar – 5 va boshqalar
Tunis	Musulmonlar – 98 va boshqalar
Turkmaniston	Musulmonlar – 89, pravoslav – 9, va boshqalar
Turkiya	Asosan musulmon sunniylar – 99,8 va boshqalar
O'zbekiston	Musulmon sunniylar – 88, pravoslav – 9 va boshqalar
CHad	Musulmonlar – 51, xristianlar – 35, mahalliy dinlar
Ozarbayjon	Musulmonlar – 93, xristianlar – 5 va boshqalar
Jazoir	Musulmon sunniylar – 99, va boshqalar
Eritriya	Musulmonlar, xristianlar
Efiopiya	Musulmonlar – 45 – 50, xristian – 35 40 va mahalliy dinlar


Jadval internet ma'lumotlari: files. school – collection , edu. gu. asosida tuzildi.

Jadval tahlili shundan dalolat beradiki, dunyo mamlakatlarining 50 dan ortig'i musulmon davlatlari hisoblanadi. Mavritaniya, Marokash, Maldiv va Komor orollari, Ummon, Falastin gaz sektori, Saudiya Arabistoni, Somali, Tunis, Turkiya va Jazoirda aholisining 98 – 100% musulmonlardir. O'rta Osiyo mamlakatlari orasida O'zbekistonda musulmonlar salmog'i ko'p bo'lib, 88%



aholi islom diniga e'tiqod qiluvchilardir, bu ko'rsatkich Tojikistonda 85%, Turkmanistonda 89%, Qirg'izistonda 75% ni tashkil etadi. Arab va O'rta Osiyo mamlakatlaridan tashqari, islom diniga Osiyoning janubiy – sharqiy qismida joylashgan mamlakatlar - Indoneziya, Malayziya ham musulmon davlatlari hisoblanadi. Afrika mamlakatlaridan Gambiya, Gvineya, Jibuti, Kot–d Ivuar, Niger, Nigeriya, Senegal aholisining asosiy qismi ham islom diniga e'tiqod qiluvchilardir.

Dunyoviy dinlarning uchinchi eng qadimiysi, eng kichigi buddizm dini hisoblanadi. Bu din eramizdan avvalgi VI - V asrlarda shimoliy Hindistonda vujudga kelgan. Hozir bu dinga Makao aholisining 50%, Vetnam – 55%, Butan – 75%, Kombodja – 96%, Myanma – 89%, Singapur –



5-rasm. Dunyo dinlari. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

30%, Tailand – 95%, SHri – Lanka – 70% e'tiqod qiladi. Bu uchta dunyoviy dinlarga dunyo aholisining 50% dan ortiq qismi e'tiqod qiladi. Buddistlarning ziyorat uchun muqaddas joyi Buddaning tug'ilgan joyi Lumbini qishlog'i (Himolayning tog' oldi) hisoblanadi, lekin bu erda hamma buddistlar kelmaydi (kelishi shart emas).

**33 – jadval.**

**Buddizm diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar geografiyasi**

<b>Mamlakatlar</b>	<b>Aholining diniy tarkibi, foiz hisobida</b>
Aomin yoki Makao	Buddistlar – 50, katoliklar – 15 va boshqalar
Butan	Buddistlar – 75, induistlar – 25
Vetnam	Buddistlar – 55%, xristianlar va boshqalar
Kambodja	Buddistlar – 55 xristianlar va boshqalar
Laos	Buddistlar – 60, mahalliy dinlar – 40
Mo'g'iliston	Buddistlar – 96, musulmonlar va boshqalar
Myanma	Buddistlar – 89, xristianlar va boshqalar
Singapur	Buddistlar – 30% musulmonlar – 4 va boshqalar
Tailand	Buddistlar – 95 musulmonlar – 4 va boshqalar
SHri – Lanka	Buddistlar – 70 induistlar – 15, va boshqalar

Jadval wikipedia.org sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

3 –jadvaldan ko'rinib turibdiki, buddizm diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar aholisi kamchilikni tashkil etadi. Aholisining asosiy qismi buddizmga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarga Kombodja, Mo'g'iliston, Myanma, Tailandni ko'rsatish mumkin. Bu mamlakatlar aholisining 90 – 95% buddistlardir. Bu erda buddistlar bilan birga musulmonlar, xristianlar va mahalliy dinlarga e'tiqod qiluvchilar ham yashaydi. Bu uchta dunyoviy dinlardan tashqari, dunyoda yirik mahalliy dinlar (bir mamlakat doirasida) mavjud. Bular konfutsiylik, sintoizm va induizmdir.



6-рasm. Динларнинг географик тарқалиши. Кarta [www.demography.narod.ru](http://www.demography.narod.ru) ма'лумотлари асосида муаллиф томонидан тuzилган.

Qadimiy mahalliy dinlardan induizm eramizdan oldingi VI asrda Hind daryosining oʻrta oqimi atrofida paydo boʻlgan. Bu dinning asosiy aqidasi yaxshi xulq – atvorni oʻqitish hisoblanib, bu Hindistonning boshqa qadimiy dinlarni va buddizm aqidalari bilan bogʻliqdir.

Eramizning III-IV asrlarida tabiiy va iqtisodiy omillar tasirida sharqiy Osiyo xalqlarining yirik koʻchishi yuz berdi, bu butun Xitoy va Moʻgʻiliston hududini qamrab oldi. SHu bilan birga, daosizm va konfutsiylik dinlarini oʻqitish rivojlandi. Bu dinlar xalqlarning koʻchishidan oldinroq vujudga kelgan. Daosizm xitoy tilidan olingan, dao-yoʻl konfutsiylik esa, dinlar asoschisi Konfutsiya nomi bilan bogʻliq. Keyinchalik buddizm Xitoy xududiga daosizm va konfutsiylik bilan birga kirib kelib, Koreya orqali YAponiyaga ham oʻtib ketdi. Oʻsha vaqtlar Koreya va YAponiya yozuvi yoʻqligi sababli buddizm dinni kirib keldi. VI – VII asrlarida sintoizm (tarjimasi xudolar yoʻli) yaponlarning asosiy dini tashkil topdi. Qadimiy mahalliy dinlardan yana biri iudaizm hisoblanadi, bu din yaxudiyalar eʼtiqod qiladigan din boʻlib, eramizdan avvalgi VII asrda paydo boʻlgan. Xristian dinining vujudga kelishi shu qadimiy din – iudaizm bilan bogʻliqdir (Kuznetsov, 2000 ).

### **3.4. Aholining irqiy tarkibi**

#### **Reja:**

1. Irq tushunchasi
2. Evropoid, mongoloid va negroid irqi
3. Aralash irqi
4. Dunyo mintaqalari boʻyicha aholining irqiy tuzilishi.

Qadimda odamlar dunyoning turli qitʼalarida bir-biridan ajralgan holda jamoa boʻlib yashagan, lekin hozirgi vaqtda xatto Afrikaning tropik oʻrmonlarida yashovchi pigmey qabilalari bilan ham aloqalar oʻrnatilgan boʻlib, ularning

yashash sharoiti va turmush tarzi bilan ko'pchilik davlat aholishunos olimlari hamda turli mutaxassislar xabardordir.

Jahondagi turli irqar va xalqlarning tarixi umumiydir. Mashxur demograf olim A.Gladkiy ta'biricha, «Hozirgi vaqtda insoniyatning umumiy maqsadlari mushtarak bo'la turib, xalqlar va milatlar orasida urushlar, vayronagarchiliklar bo'lmoqda. Vaholanki, dunyo aholisi bir odam ekanligini, ular yagona yaxlitligini hamda ularning taqdiri bir-birligi bog'liqligini qachon tushunib etar ekan?- deb ta'kidlaydi (Gladkiy, 2001).

Insoniyatning paydo bo'lishi va tarqalishini ikkita monotsentrik va politsentrik nazariya mavjud. Insoniyat paydo bo'lishining monotsentrik nazariyasi odamlar bir markazda paydo bo'lib, keyinchalik er shari bo'ylab tarqalgan, degan fikrga ko'pchilik olimlar qo'shilgan. Bu hududga O'rta er dengizi bo'yining sharqiy qismi, Janubiy Evropa, SHimoliy va SHarqiy Afrika va G'arbiy Osiyo kirgan. SHu hududlardan odamlar keyinchalik asta-sekin dunyoning turli qismlariga tarqalib, turli xil tabiiy sharoitlarga tushib qolishi natijasida, turli xil irqar paydo bo'lgan. Ikkinchi guruh olimlar politsentrik nazariyasini ilgari surib, odamlar qadimda bir nechta markazda paydo bo'lgan degan fikrni aytgan. Bu nazariyani kamchilik olimlar quvvatlaganlar. Demak, odamlar O'rta er dengizi atrofida paydo bo'lib, keyinchalik asta-sekin dunyoning boshqa qismlariga tarqalganlar. Aholishunos olim G.R.Asanov irqariga quyidagicha ta'rif bergan – **«irq bu odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lgan, tarixan tarkib topgan hududiy birligidir»**. Irqar bir-biridan kelib chiqishi, tashqi ko'rinishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshashligi bilan ajralib turishadi. SHu bilan birga irqar tanasining rangi, bosh suyagining shakli, soch va ko'zining rangi, sochining tekis to'lqinsimon yoki jingalak bo'lishi, burnining katta kichikligi va kengligi, ko'zining qisq yoki qisq emasligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, irqar milliy, til, dinga e'tiqodi jihatidan ham farq qiladi. Irqar bir-biridan qancha uzoqda joylashgan bo'lsa, ular o'rtasidagi farq katta bo'ladi. Aksincha bo'lsa buning teskarisidir.

Ma'lumki dunyo aholisi asosan uchta irqqa bo'linadi. Evropoid, mongoloid hamda negroid irqlaridir. So'nggi yillarda esa olimlar avstraloid-aralash irq ham mavjudligini, bu irqlararo nikohlarning ko'payishi bilan bog'liqligini ta'kidlashmoqda.

Evropoid irqi dunyo aholisining 42,3% ini tashkil etadi. Evropoidlar tanasining rangi oq yoki qorachadan kelgan sochlari sariq yoki qora sochlari to'liqsimon yoki to'g'ri, ko'zlari ko'k, kulrang yoki qora, lablari tor yoki o'rtacha, burunlari uchli kichik bo'ladi. Evropoid irqiga mansub kishilar asosan ikki guruhga bo'linadi. SHimoliy va janubiy evropoidlar bo'lib, ular o'rtasidagi oraliq evropoidlar ham ajratilgan. SHimoliy evropoidga mansub irq vakillari SHimoliy Evropada yashovchi xalqlar, jumladan, shvedlar, finlendiyaliklar, norveglar, inglizlar, shotlandlar, uelsliklar, irlandlar, islandlar, gollandlar, daniyaliklar, polyaklar, nemislar, latishlar, estonlar, beloruslar, ruslar va boshqalar kiradi. SHimoliy evropoidlarning o'zga xos belgilar mavjud. Bu belgilarning kelib chiqishi tabiiy sharoit hamda tashqi muhit bilan bog'liqdir. SHimoliy evropoidlar bo'ylari uzun, ko'zlari ko'k yoki kulrang, sochlari asosan sariq jingalak yoki to'liqsimon, lablari yupqa, tanasini rangi oq yoki sariq bo'ladi. SHimoliy evropoidlarning bunday belgilari ularning sovuq mintaqada yashashligi, quyoshdan keladigan ultra binafsha nurlarning ozligi, umuman olganda tabiiy sharoit ta'sir ko'rsatgan. Janubiy evropoidlarga janubiy Evropa xalqlari, SHimoliy Afrika arablari va barbarlar, Old Osiyo, SHimoliy Hindistonda yashovchi xalqlar kiradi. Bularning bo'ylari o'rtacha, ko'zlari qora, sochlari qora, to'liqsimon yoki to'g'ri, lablari shimoliy evropoidlarga nisbatan qalinroq, burunlari ham kattaroq, tanasining rangi qorachadan kelgan bo'ladi. Lotin Amerikasi aholisining ham yarmiga yaqin qismi janubiy evropoid irqiga mansub kishilar hisoblanadi. SHimoliy va Janubiy Evropa o'rtasida joylashgan Markaziy Evropada oraliq evropoidlar yashaydi. Ularning irqiy belgilari shimoliy va janubiy evropoidlardan farq qiladi. SHimoliy, Janubiy va oraliq evropoidlari kichik- kichik irqlarga bo'linadi. Mongoloid irqi dunyo aholisining 20%ini tashkil etadi. Mongoloidlar tanasini rangi sariq yoki bug'doy rang, ko'zlari qisq, sochlari qora, lablari qalinligi

o'rtacha, burunlari kengroq, erkaklar tanasida jun kam bo'ladi. Mongoloidlarning bunday ko'rinishga kelib qolishi ham, albatta tabiiy sharoit, bu erda bo'ladigan chang bo'ronlari, kuchli shamollar ularning ko'zini qisq bo'lib qolishiga ta'sir etgan. Mongoloid irqi ham ikki guruhga bo'linadi. Osiyo mangoloidlari va Amerika mangoloidlari. Osiyo mangoloidlariga Osiyoda yashovch xitoylar, mo'g'ullar, koreys, yaponlar, chukchalar, koryaklar, everilar, buryatlar, yoqutlar kiradi. Amerika mangoloidlariga amerika tub joy aholisi hisoblangan hindular, eskimoslar va aleudlar kiradi. Amerika hindulari Osiyo mongoloidlaridan tarqalgan, ular Amerikaga boshqa tabiiy sharoit va muhitga tushib qolishi natijasida ularning ko'zlari qisq emas va tanasining rangi ham qizg'ish bo'lib qolgan. Osiyo va Amerika mongoloidlari o'z navbatida bir nechta kichik guruhlarga bo'linadi. Negroid irqi dunyo aholisining 7%ini tashkil etadi. Negroid irqiga mansub kishilarning tanasining rangi qora-jigarrang yoki qop-qora, ko'zi qora, lablari qalin, burunlari keng, sochlari qora-jingalak bo'ladi. Ularning bunday tashqi ko'rinishiga quyoshdan keladigan ultrabinafsha nurlarning ko'pligi sababchi bo'lgan. Tanasining qoraligi quyoshdan keladigan zararli nurlarni qaytaradi. Negroid irqi 3 guruhga bo'linadi. Negrlar, negrillilar-bushmanlar va gottentotlar. Bushmenlar va gottentotlar Afrikaning janubiy qismida yashaydi. SHuningdek, Afrikaning shimoliy qismida yashovchi negrlarning ham tanasining rangi och qoradir. Bu Afrikada zonallik, havo harorati va quyosh nuri bilan bog'liq negril irqiga mansub bo'lgan pigmeylar Ruanda, Burundi, Kongoda yashaydi. Ularning bo'ylari 150 sm.gacha bo'ladi va olimlarning fikricha, pigmeylar bo'yining pastligiga, oziq-ovqatning etishmasligi sababchidir. Negrlar asosan Sahroi Kabirdan janubda yashaydi. Bushman va gottentotlarning ham bo'ylari 150-160 sm bo'ladi (Kopilov, 2005). Avstraloid irqi bu yaqin kungacha negroid irqi tarkibiga kirar edi. Avstraloid irqlari ichida eng yangi va kichigi hisoblanadi. Bu irqga dunyo aholisini 0,3% aholisi kiradi. Ularning tashqi ko'rinishi negroidlarga o'xshaydi, lekin ular negrlardan tanasining rangi ochroq. Ularning burunlari keng, lablari qalin, ko'zlari va sochlari qora bo'ladi. Avstroloid irqi quyidagi guruhlarga bo'linadi: avstraliya aborogenlari, popuaslar va meloneziyaliklar, veddoidlar,



aynlar va negritoslar. Avstroloid guruhlariga kiruvchilar bir-biridan sochi, burnining shakli, tanasining rangi bilan farq qiladi (Kopilov, 2005). Dunyo irqi ichida eng yirigi evropoid irqi, ikkinchi o'ringda mongoloid irqi, 3-o'ringda negroid va ohirgi o'ringda avstraloidlar egallaydi. Bu irqlardan tashqari aralash irqlar ham mavjud. Aralash irqlarning soni so'nggi yillarda tez sur'atlar bilan o'sib bordi. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 30,3% ini aralash irqga mansub bo'lgan kishilar tashkil etadi. Qadimiy aralash irqlarga Efiopiya va Somali aholisini kiritish mumkin. Ular janubiy evropoidlar, ya'ni Afrikaning shimoliy qismida yashovchi arablar bilan Afrika negrlarining nikohidan keyin tug'ilganlar hisoblanadi. O'rta Osiyo hududida juda qadimda Hind-Evropa til oilasining Eron guruhi tilida so'zlashuvchi, evropoid irqiga mansub bo'lgan, Y'rta Osiyo tub joy aholisi tojiklar yashagan. Ular boshqa joylar aholisidan moddiy-ma'naviy madaniyatining rivojlanganligi bilan ajralib turgan. Bu xalq tomonidan dehqonchilik o'choqlari, yirik sug'orish tizimlari, katta shaharlar yaratilgan.

Aralash irqiy formalarning ikkinchi katta guruhiga- o'rta asrlar va yangi davr aralash formalaridir. Bunday aralash formalar tarqalgan hududlardan biri Y'rta Osiyo respublikalaridir. Bu erdagi qadimgi tub evropoid aholi xalqlarining buyuk ko'chish davri (IV-VII asrlar) Markaziy Osiyodan kelgan mongoloidlar bilan aralashib ketgan. Ana shu aralashish natijasida vujudga kelgan formalarni o'z navbatida 2 tipga bo'lishadi. Birinchi tip turon tipi yoki Janubiy Sibir tipi-bu tipga asosan qozoqlar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar kiradi. Ikkinchi tip- Y'rta Osiyo tipi (o'zbeklar, turkmanlar va b.). Bularda evropoid irqining janubiy avlodiga xos belgilar ko'proq saqlangan bo'ladi (Asanov, 1978).

O'rta Osiyo va Qozog'iston hududida paydo bo'lgan aralash xalqlar 2 ta guruhga bo'linadi. Turon yoki Janubiy Sibir hamda O'rta Osiyo aralash tiplari. Turon aralash tipiga kiruvchi qoraqalpoq, qirg'iz, qozoqlar mongoloidlarga xos tashqi ko'rinish bilgilari ko'pdir. O'rta Osiyo aralash tipiga turkman va o'zbeklarda esa, evropoid irqiga xos bo'lgan tashqi ko'rinish belgilari ko'proq saqlangan. SHuningdek, Afrika Sohrai Kabirdan janubda ayniqsa arablar bosib olgan hududlarda shunday irqlar bor. Nil daryosini yuqori oqimidagi Sudan

mongoloidlar bilan mahalliy negroidlarning aralashuvidan malchasi antropologik tipi paydo bo'lgan (Asanov, 1978).

Bundan tashqari, Amerikada bir necha xalqlar aralashib, turli xil aralash tiplar paydo bo'lgan. Masalan, evropaliklar bilan amerikaning tub joy aholisi hindlar aralashib metislar, evropaliklar bilan negrlar aralashib mulatlar, hindular bilan negrlar aralashib sambo aralash irqiy tiplar vujudga kelgan. Bu aralash irqilar asosan Lotin Amerikasida yashaydi. Irqlarning va umuman dunyo aholisining bunday aralashuvi, er sharida yashovchi barcha aholi bir inson ekanligini, yuqori va past irqilar degan nazariya noto'g'ri ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Dunyoda yirik irqilar va aralash irqiy tiplardan tashqari yana bir nechta kichik irqiy tiplar mavjud. Masalan, Uzoq SHarq va SHarqiy Sibir tub joy aholilari mongoloid irqining Markaziy Osiyo, SHimoliy Osiyo va Arktika tarmoqlariga kiradi va h.k.

Dunyo aholisi irqiy tarkibi geografiyasini o'rganish shundan dalolat beradiki, er sharida son jihatdan eng katta irq evropoid irqi, ikkinchi o'rinda aralash irqiy tiplar, uchinchi o'rinda mongoloidlar, to'rtinchi o'rinda negroidlar va beshinchi o'rinni avstroloidlar egallaydi. MDH davlatlarida aholining 86,3% ini evropoidlar shuningdek, bu erning 13,1% aholisini aralash irqiy tiplar tashkil etadi. Xorijiy Evropa aholisining ham asosiy qismi, ya'ni 99,3% evropoidlarga to'g'ri keladi, lekin so'ngi yillarda Evropada negrlar salmog'i ko'payib bormoqda. Xorijiy Osiyoda esa, aholining 39,2%i aralash irqilar, 32,2% mongoloidlar, 29,2% evropoidlar xissasiga to'g'ri keladi. Afrika materigida aholisining 54% ini negroidlar, 27% ini evropoidlarga to'g'ri keladi. YAngi dunyo Amerikada esa, aholisining asosiy salmog'ini, ya'ni 52% ini evropoidlar, 35% ini esa, aralash irqiy tiplar tashkil etadi. Avstraliya va Okeaniyada asosan, ya'ni 75,4% ini evropoidlar, 18% ini avstroloidlar hissasiga to'g'ri keladi.

**34-jadval**

**Dunyo aholisi irqiy tarkibi geografiyasi va soni (% hisobida)**

<b>Katta irqlar</b>	<b>Butun dunyo</b>	<b>Sobiq Ittifoq</b>	<b>Xorijiy Evropa</b>	<b>Xorijiy Osiyo</b>	<b>Afrika</b>	<b>Amerika</b>	<b>Avstraliya va Okeaniya</b>
Jami aholi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Evropoidlar	42,3	86,3	99,3	29,2	27,0	52,0	75,4
Mongoloidlar	20,0	0,6	0,1	32,2	0	6,0	0,4
Negroidlar	7,0	0	0,2	0,1	54,0	7,0	0
Avstraloidlar	0,3	0	0	0,3	0	0	18,1
Aralash irqiy tiplar	30,3	13,1	0,4	39,2	19,0	35,0	6,1

Jadval V.A.Kopilov tomonidan tuzilgan (Geografiya naseleniya: Uchebnoe posobie. M., 2005)

YUqorida aytilganidek, dunyo aholisi qaysi irqga, millatga, qabilaga mansub bo‘lmasin barchasi professor A.S.Soliev ta’biri bilan aytganda, ular “Hazrati Inson”dir. Odamlarning tanasining sochining, ko‘zining rangi, lab va burunlarining shakli boshqa bo‘lishi mumkin, lekin ular hayvonlardan farq qilib, fikrlaydi, ijod qiladi, mehnat qiladi, ishlab chiqaradi, iste’mol qiladi, ixtiro qiladi va h.k. SHuning uchun, dunyo aholisining barchasi barobardir. Dunyoga kelgan barcha odamlar yaxshi yashashga, baxtli bo‘lishga xaqlidir.

AQSH davlati aholisining irqiy tarkibini o‘rganish shundan dalolat beradiki, bu davlatda yashovchi aholining 72,4% ini oq tanli amerikaliklar, 12,6% ini qora tanli amerikaliklar, 4,8% ini kelib chiqishi osiyolik amerikaliklar, 0,9% ini amerika tub joy aholisi va qolgan qismini boshqa aralash irq'larga mansub kishilar tashkil etadi<sup>8</sup>.

### **3.5. Xalqlar klassifikatsiyasi va geografiyasi**

#### **Reja:**

1. Halqlarni soniga qarab klassifikatsiyalash.
2. Lingvistik klassifikatsiyalash.
3. Geografik klassifikatsiyalash.

<sup>8</sup> Интернет маълумотлари. Википедия: 123.

Xalqlarni turli fanlar o'z nuqtai nazaridan o'rganadi. Xalqlarni geograflar, etnograflar, tarixchilar, arxeologlar, faylasuflar va boshqalar o'rganadi. Xalqlarni geograflar, ularning er shari bo'ylab tarqalishini, ularning o'tmishdagi va hozirgi sonini, ularning o'sishini, o'sishga ta'sir etuvchi omillarni, xalqlarning etnografik oblastlarga bo'linishini, qaysi tilda so'zlashishiga qarab lingvistik klassifikatsiyalarini va boshqalarni o'rganadi.

Er yuzida aholishunos olimlarning fikriga ko'ra 2000 dan ortiq xalqlar mavjud. Katta xalqlar bilan bir qatorda, mayda xalqlar ham mavjud. Ba'zi mayda xalqlar orollarda va o'rmonlarda haligacha qabila-qabila bo'lib yashaydi. Aholishunos olimlardan G.R.Asanov xalqlarni turli xususiyatlari va ko'rsatkichlariga qarab quyidagi klassifikatsiyalarga bo'lgan:

Xalqlarni soniga qarab klassifikatsiyalash;

Lingvistik klassifikatsiyalash (xalqlarni qaysi tilda gapirishiga qarab);

Geografik yoki hududiy klassifikatsiyalash;

Xalqlarni rus olimi professori V.V.Pokshishevskiy soniga qarab eng ko'p sonli xalqlarni ajratgan, bular: xitoylar, amerikaliklar, ruslar, hindlar, yaponlar. Bu xalqlarning soni 100 milliondan ortiq hisoblanadi.

Lingvistik klassifikatsiyalash – xalqlarni tiliga qarab guruhlariga ajratishda bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh tillar oilalarga birlashtiriladi, ular ham o'z navbatida guruhlariga ajratiladi. G.R.Asanovning aytishicha, xalqlarning lingvistik klassifikatsiyasi bilan tillar klassifikatsiyasi bir-biridan farq qiladi, bitta til amalda bir necha xalqlar uchun o'xshash ona tili bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilida faqat inglizlargina emas, balki amerikaliklar, avstraliyaliklar va boshqalar gaplashishadi.

O'zbekistonlik olim G.R.Asanov lingvistik klassifikatsiyaga muvofiq er shari aholisi 10 ta til oilaga ajratgan, bular quyidagilar:

Hind Evropa oilasi – Evropaning katta qismi, SHimoliy va Janubiy Amerika, SHimoliy Hindiston, eron xalqlari kiradi;

Kavkaz oilasi – asosan Kavkaz orti xalqlari kiradi;

Ural oilasi (fin va ural guruhlari bilan) – Evropaning baʼzi mamlakatlari, MDH ning Evropa qismi va Sibirning ayrim rayonlari kiradi;

Oltoy oilasi (turk, uygʻur va tungus guruhlari bilan)

Xitoy-Tibet oilasi – SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo xalqlari kiradi;

Malayya-Polineziya oilasi – Hindixitoy xalqlari kiradi;

Dravid oilasi – Janubiy Hindiston xalqlari kiradi;

Mon-kxmer oilasi – Hindi xitoy xalqlari kiradi;

Semit-xamit (som-xom) oilasi – Janubiy-Gʻarbiy Osiyo, SHimoliy Afrika xalqlari (eng keng tarqalganlari – arab va barbar tillari) kiradi;

Bantu oilasi – Janubiy Afrika tub xalqlari kiradi;

YApon va koreys tillari bu 10 ta til oilasiga kirmaydi, ular alohida yapon til oilasi va koreys til oilasini tashkil etadi.

Xalqlarning 3- klassifikatsiyasi geografik yoki hududiy klassifikatsiya deb nomlanadi. Bu klassifikatsiyaga binoan dunyo xalqlari tarixiy-etnografik oblastlarga boʻlinadi. Hududiy jihatdan yaqin boʻlgan va uzoq davrlar davomida bir-biri bilan mustahkam aloqa qilib yashagan xalqlarda xoʻjalik yuritish shakllari, turmush, madaniyat va din jihatidan bir-biriga oʻxshash va ayrim hollarda bir xil boʻladi. Mana shu belgi va xususiyatlari jihatdan oʻxshash boʻlgan guruhlar – tarixiy-etnografik oblastlar deb yuritiladi. Masalan, bunday oblastlarga Gʻarbiy Evropa, SHarqiy Evropa, Polineziya, SHimoliy Afrika, Qozogʻiston va Oʻrta Osiyo, Sibir va Uzoq SHarq, Kavkaz va Kavkaz oldi va boshqalar (Asanov, 1978).

Rus olimi E.A.Antipova va boshqalar dunyo xalqlarini quyidagicha klassifikatsiya qilgan:

Aholi soniga qarab;

Tiliga qarab;

Hududiy-geografik xususiyatlariga qarab;

Aholi joylashuvi xarakteriga qarab;

Xalqlarning etnik oʻzini-oʻzi anglashiga qarab.

Xalqlarni soniga qarab klassifikatsiyalash S.I.Bruk tomonidan quyidagicha ajratilgan: dunyoning yirik xalqlariga, yaʼni aholi soni 100 mlndan ortiq boʻlgan

xalqlarga: xitoylar, hindistonliklar, amerikaliklar, bengallar, ruslar, braziliyaliklar, yaponlar va panjobliklar kiritilgan. SHuningdek, xalqlar soni 50-100 mln kishini tashkil qiluvchi xalqlarga: bixarlar, meksikaliklar, yavaliklar, nemislar, koreyslar, italyanlar, tamillar, misrliklar va turklar kiritilgan. Bulardan tashqari xalqlar soni 20-50 mln kishi boʻlgan xalqlarga: fransuzlar, inglizlar, ukrainlar, polyaklar, ispanlar, kolumbiyaliklar, siamlar, afgʻonlar, argentinaliklar, myanmaliklar, forslar, oʻzbeklar va boshqalar kiritilgan.<sup>9</sup>

B.S.Urlanis va V.A.Borisov dunyo xalqlarini quyidagicha lingvistik klassifikatsiyaga ajratgan:

#### 1. Hind-Evropa til oilasi

Slavyan guruhi: sharqiy slavyan kichik guruhiga ruslar, beloruslar, ukrainlar kiradi; gʻarbiy slavyan kichik guruhiga polyaklar, chexlar, slovaklar kiradi; janubiy slavyan kichik guruhiga bolgarlar, makedonlar, serblar, xorvatlar, slovenlar, bosniyaliklar, chernogoriylar kiradi.

Baltika guruhi: litvaliklar va latishlar kiradi.

German guruhi: shvedlar, daniyaliklar, norveglar, islandlar, nemetslar, yaxudiyalar, avstriyaliklar, gollandlar, flamandlar, inglizlar, shotlandlar, inglizkanadaliklar, inglizamerikaliklar, inglizavtraliyaliklar, inglizyangizelandiyaliklar, yamaykaliklar, gayanaliklar va boshqalar kiradi.

Kelt guruhi: irlandlar, uelsliklar, bretanlar kiradi.

Roman guruhi: italyanlar, fransuzlar, vallonlar, fransuzkanadaliklar, ispanlar, fransuzshveysarlari, gaitiyaliklar, katalonlar, meksikaliklar, gvatemalaliklar, kubaliklar, venesuelaliklar, kolumbiyaliklar, chililiklar, argentinaliklar, portugallar, braziliyaliklar, kaboverdlar, ruminlar, moldovanlar, sardiniyaliklar, korsikaliklar kiradi.

Greklari guruhi: greklar kiradi

Alban guruhi: albanlar kiradi

Eron guruhi: eroniylar, tojiklar, baxtiyorlar, lurlar, kurdlar, balujlar, osetinlar, afgʻonlar kiradi

---

<sup>9</sup> Народы и религии мира, Энциклопедия.- М, 2000, 928 с

Arman guruhi: armanlar kiradi

Nuriston guruhi: nuristonlar kiradi

Hindariy guruhi: kashmirlar, maratxilar, panjobliklar, hindistonliklar, bixarlar, bengalliklar, maldivlar, siganlar va boshqalar kiradi.

2. Sino-Tibet til oilasi

Xitoy guruhi: xitoylar, xueylar, baylar, dunganlar kiradi

Tibet-birman guruhi: tibetliklar, nevarlar, myanmaliklar, xanlar, karenlar va boshqalar kiradi

Niger-Kongo til oilasi.

Atlanto-Kongo guruhi: fulbalar, voloflar, diolalar, kissilar, mosilar, gurmalar, yorubalar, binilar, kongolar, ruandalar, malavilar, pigmeylar va boshqa xalqlar kiradi

Semit til oilasi

SHimoli-Markaziy guruhi: isroil yaxudiyalar kiradi

Janubi-Markaziy guruhi: arablar (saudiyaliklar, suriyaliklar, iroqliklar, misrliklar, jazoirliklar, marokashliklar va boshqalar) kiradi

Efiosemit guruhi: tigrelar, tigralar, amxaralar, guragelar kiradi

Barbar til oilasi: kabillar, zenagalar, tuareglar kiradi

Kushit til oilasi: bedjalar, afarlar, somaliklar, oromolar, sidamolar kiradi

CHad til oilasi: xausalar, angaslar, buralar, kotokolar kiradi

Avstroneziya til oilasi:

Malayya-polineziya guruhi: tyamlar, malaylar, sundlar, yavanlar, baliylar, malagasiylar, tetumlar, marshallar, kiribatilar, nauruliklar, fidjiylar, samoaliklar, tuvaluliklar, gavayliklar va boshqalar kiradi

Tayvan guruhi: gaoshanlar kiradi

Dravid til oilasi: bragular, tamillar, kannaralar va boshqalar kiradi

Oltoy til oilasi:

Turk guruhi: turk, ozarbayjon, turkman, tatar, boshqird, qorachoy, balkar, qumiq, nogay, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, o'zbek, uyg'ur, oltoy, xakas, tuvaliklar, yoqut, chuvash, buryat, qalmiq va boshqalar kiradi.

Tungus-manjur guruhi: evenk, nanay, manchjur, koreys, yaponlar kiradi

Ural yukagir til oilasi: Ural guruxi: fin-ugor kichik guruxi: eston, saam, mordva, mariy, udmurt, komi, komi-permyak, xanti, mansi, vengerlar, fin, karellar kiradi.

Samodiyalar kichik guruhi: nenets, selkun, nganasanlar kiradi

YUkagir guruhi: yukagirlar kiradi

Avstroosiyo til oilasi:

Mon-kxmer guruhi: mon, kxasi, kxmer, vetnam va boshqalar kiradi

Munda guruhi: munda, santallar kiradi

Paratay til oilasi

Tay guruhi: siam, lao, txay, shan, chjuan, bui, yuon.

Kam-suy guruhi: dunlar kiradi

Li guruhi: lilar kiradi

Gelao guruhi: gelaolar kiradi

Nil-Saxara til oilasi: songai, tubu, maba, fur, sara, kunama va boshqalar kiradi

SHimoliy Kavkaz til oilasi

Abxaz-adigey guruhi: abxaz, adigey, cherkes, kabardinlar, kiradi

Nax-dog‘iston guruhi: chechen, ingush, avar, lak, darg‘in, lezginlar kiradi

Kartvel til oilasi: gruzinlar kiradi

Myao-yao til oilasi: myao, yaolar kiradi

Avstraliya til oilasi: avstraliya aborijenlari kiradi

Koysan til oilasi: gottentotlar va tog‘li dammaralar kiradi

Eskimos - aleut til oilasi: eskimoslar va aleutlar kiradi

CHukotka-Kamchatka til oilasi: chukcha, koryak, alyutors, itelmenlar kiradi

Papuas til oilasi: chimbu, dugum-dani, kapauku, burak, bongu, ternatlar kiradi

Hindu xalqlari til oilasi:

Na - dene oilasi: atapaski, navaxo, apachi, tlinkit, xayda

SHimoliy Amerika oilasi: algonkin, irokez, siu, mayya, kiche, kikche

Markaziy Amerika oilasi: shoshon, atsteki, otomi, mishteki, sapoteki

CHibcha-paes oilasi: chibcha, paes, lenka



And oilasi: kechua, aymara, araukan

Ekvatorial-tukanoan oilasi: aravaki, guarani, xibaro, tukano

Je-pano-karib oilasi: karib, pano, je

Alohida (ajratilgan) tillarda gapiradigan xalqlar:

Andamon til oilasi

Ayni til oilasi

Kusunda til oilasi

Nivxi til oilasi

Baski til oilasi

Enisey til oilasi

Burishi til oilasi

Xoti til oilasi (Antipova, 2003)

E.A.Antipova va boshqa olimlar tomonidan xalqlarni hududiy-geografik xususiyatlariga qarab klassifikatsiyasi boshqa olimlar klassifikatsiyasiga o'xshashdir.

Aholi joylashuvi xarakteriga qarab qilingan klassifikatsiyasi, dunyoning qaysi qismida aholi zich va siyrak joylashganligi ko'rsatilgan.

Dunyo xalqlari etnik o'zini-o'zi anglashiga qarab qilingan klassifikatsiyasi ham mavjud bo'lib, bu klassifikatsiya ham yaxshi o'rganilmagandir.

Er shari bo'ylab dunyo xalqlari notekis taqsimlangan. Xalqlar klassifikatsiyasi turlari orasida eng muhimi lingvistik klassifikatsiya hisoblanadi. Dunyo aholi zichligi xaritasiga nazar soladigan bo'lsak, jaxonning qaysi qismida aholi zich joylashgani ko'zga tashlanadi, ya'ni aholi eng zich joylashgan hududlardan biri Osiyo qit'asining sharqiy va janubi-sharqiy qismi hisoblanadi. Bu erda dunyo aholisining 18.8% ni tashkil etuvchi xitoyliklar yashaydi. Bu hududda yashovchilar Sino-Tibet til oilasiga mansub bo'lib, bu til oilasi ikki guruhga bo'linadi: Xitoy guruhi va Tibet-Birman guruhi. Xitoy guruhiga xitoylar, xuey, bay va dunganlar kiradi. Tibet-birman guruhiga tibetliklar, nevarlar, myanmaliklar, karenlar va boshqalar kiradi. Xitoyning janubiy va janubi-g'arbiy qismida myao-yao til oilasiga mansub xalqlar yashaydi. Osiyoning janubi-sharqiy qismida shu bilan

birga avstraosiy otil oilasiga kiruvchi xalqlar ham istiqomat qiladi. Bu til oilasi ham ikki guruhga bo'linadi: mon-kxmer va munda guruhlari. Mon-kxmer guruhiga vetnamliklar, monlar, kxmerlar va boshqalar kiradi. Munda guruhiga esa munda va santallar kiradi. Bundan tashqari Osiyoning bu hududida avstroneziya va paratay til oilalariga kiruvchi xalqlar joylashgan. Avstroneziya til oilasi ham ikki guruhga bo'linadi, bular – malayya-polineziya va tayvan guruhlari. Malayya-polineziya guruhiga o'ttizga yaqin xalqlar kiradi, bular – malagasiylar, malaylar, yavanlar, gavaylar va h.k.lar. Tayvan guruhiga faqat gaoshan xalqlari kiradi. Paratay til oilasi ham guruhlarga bo'linadi, bular – tay, kam-suy, li va gelao guruhlari. Bu til oila guruhlari siamlar, loalar, lilar va boshqa xalqlar kiradi. Osiyoning sharqiy qismida yashovchi koreyslar va yaponlar oldingi xalqlar klassifikatsiyasida alohida til oilalariga bo'lingan. So'ngi ma'lumotlarga ko'ra bu xalqlar Oltoy til oilasining tungus-manchjur guruhiga kiritilgan.

Mug'uliston davlatining tub joy aholisi bo'lgan mug'ullar ham oltoy til oilasining turk guruhiga mansubdir. Oltoy til oilasi ham yirik til oilalaridan hisoblanib, bu oila ikki guruhga bo'linadi: turk va tungus-manchjuriya guruhlari. Turk guruhiga Osiyoning juda ko'p xalqlari – turklar, ozarboyjonlar, turkmanlar, korachoylar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar, uyg'urlar, oltoyliklar, xakaslar, tualiklar, yoqutlar, buryatlar kiradi. Bu turk guruhiga, shuningdek, tatarlar, boshqirdlar, chuvashlar va boshqalar kiradi. Oltoy til oilasining tungus-manchjur guruhiga evenklar, nakaylar, manchjurlar va boshqa xalqlar mansub hisoblanadi. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Osiyoda juda ko'p xalqlar yashaydi.

Osiyoda shular bilan bilan birga Hind-Evropa til oilasiga mansub xalqlar ham yashaydi. Hind-Evropa til oilasining eron guruhiga – forslar, tojiklar, kurdlar, balujlar, afg'onlar, osetinlar va boshqalar kirsa, hind-ariy guruhiga – kashmirlar, panjoblar, hindistonliklar, nepalliklar, bengallar, siganlar va boshqalar kiradi.

Bundan tashqari Osiyoning shimoli-sharqiy qismida yashovchi xalqlar – chukchalar, qoryaklar va boshqalar chukotka-kamchatka til oilasiga mansub kishilardir. SHimoliy Kavkaz til oilasiga esa, Kavkazda yashovchi abxazlar,

adegiylar, cherkes va kabardinlar abxaz-adigey guruhiga kiruvchi xalqlar hisoblanadi. Nax-dog‘iston guruhiga esa, chechenlar, ingushlar, lezginlar, avarlar va boshqalar kiradi. Gruzinar kartvel til oilasiga kiruvchi yagona xalqlardir. Osiyoda yarovid til oilasi ham mavjud bo‘lib, bu oilaga janubiy Hindistonda yashovchi bragular, gondlar va boshqa xalqlar kiradi.

SHunday qilib Osiyoda turli xil til oilasiga kiruvchi xalqlar yashaydi. Ularning etnik rivojlanishi va soni bir-biridan farq qiladi. Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida asosan arablar – saudiyaliklar, iroqliklar, suriyaliklar yashaydi. Bu xalqlar semit til oilasi janubi-markaziy guruhini tashkil etadi. SHimoli-markaziy guruhiga esa faqatgina Isroil yahudiylari kiradi. Semit til oilasining uchinchi guruhi efiosemit deb nomlanadi, bu guruhga Afrikaning ba’zi xalqlari kiradi.

Evropa qit’asi ham o‘ziga xos region bo‘lib, bu erda bir millatli mamlakatlar ko‘p joylashgan. Evropa xalqlarining asosiy qismi Hind-Evropa til oilasiga mansubdir. Bu til oilasi dunyodagi eng yirik hisoblanadi.

Hind-Evropa til oilasi 11 ta guruhga ajraladi, bular – slavyan, baltika, german, kelt, roman, grek, alban, arman, eron, nuriston, xindariy. Bu til oilaning slavyan guruhi o‘z navbatida yana kichik guruhlariga bo‘linadi: sharqiy slavyan, g‘arbiy slavyan va janubiy slavyan kichik guruhlarini.

SHarqiy slavyan guruhiga – ruslar, beloruslar, ukrainlar kirsa, g‘arbiy slavyan guruhiga – polyaklar, cheklar, slovaklar mansub. Janubiy slavyan guruhiga-bolgarlar, makedonlar, serblar, chernogorlar, xorvatlar, slovenlar, bosniyaliklar kiradi.

Hind-Evropa til oilasiniing baltika guruhiga litvaliklar va latishlar, kelt guruhiga irlandlar, uelslar, bretonlar kiradi. Bu til oilaning german guruhi o‘z ichiga ko‘p xalqlarni qamrab oladi. Bular – shvedlar, daniyaliklar, norveglar, yaxudiyalar, avstriyaliklar, gollandlar, flamandlar, inglizlar, shotlandlar, ingliz kanadaliklar, ingliz amerikaliklar, ingliz yangi zelandiyaliklar, yamaykaliklar, gayanaliklar, surinamliliklar va boshqalar. Bu guruhga kiruvchilarning asosiy qismi Evropada yashaydi. Bundan tashqari Amerika, Kanada va Markaziy Amerika hududlarida ham yashaydi.

Hind-Evropa til oilasining roman guruhiga ham Evropa va Janubiy Amerika xalqlari mansubdir. Roman guruhiga italyanlar, fransuzlar, vallonlar, fransuzkanadaliklar, ispanlar, fransuz shveysarlari, katalonlar, meksikaliklar, gvatemalaliklar, kubaliklar, venesualiyaliklar, chililiklar, argentinaliklar, portugallar, braziliyaliklar, ruminlar, moldavanlar, sardiniyaliklar, korsikaliklar kiradi.

Grekk guruhiga – greklar, alban guruhiga albanlar, arman guruhiga armanlar, eron va hindariy guruhlariga Osiyo xalqlari kiradi.

Evropa xalqlarining ba'zilar Ural-yukagir til oilasiga mansub bo'lib, bu til oila ikki guruhga bo'linadi. Ural va yukagir guruhlar. Ural guruhi ikkita kichik guruhga: fin-ugor va samodiyga ajraladi. Fin-ugor kichik guruhiga – finlar, karellar, estonlar, saamlar, mordvalar, mariylar, komilar, komi-permyaklar, xantilar, mansilar, vengerlar kiradi. Samodiy kichik guruhiga nenetslar, selkunlar, va nganasanlar kiradi. Ural-yukagir til oilasining yukagir guruhiga faqat yukagir xalqlari mansubdir.

Afrikada 400 dan ortiq xalqlar mavjud bo'lib, bu erdagi xalqlar haligacha yaxshi o'rganilmagan. Afrikaning shimoliy qismida joylashgan arab mamlakatlari Marokash, Tunis, Jazoir, Liviya, Misrda semit va barbar til oilasiga kiruvchi misrlik, jazoirlik, liviyalik, tunislik, marokashlik arablar va barbarlar kiradi. Kushit til oilasiga kiruvchilar, materikning sharqiy qismida, niger-kongo til oilasiga kiruvchilar esa Markaziy Afrikada – Sahroyi Kabirdan janubda yashaydilar. Kamerun, Niger, Nigeriyada chad til oilasiga kiruvchi xalqlar yashaydi. Nil-saxara til oilasiga mansub xalqlar Niger vodiysi, yuqori Nil havzasi va Viktoriya ko'li hududida joylashgan. Afrikaning janubi-g'arbiy qismida niger-kongo til oilasiga kiruvchi xalqlar bilan birga kaysan til oilasiga mansub xalqlar ham yashaydi. Materikning kelgindi xalqlari – inglizlar, fransuzlar, ispanlar va boshqalar JAR, Namibiya, Zimbabve, Keniya va Jazoirda yashashadi.

Amerika qit'asining tub joy aholisi hindular hisoblanib, ular butun Amerika bo'ylab tarqalgan. SHuning uchun bu erda yashaydigan hindular 7 ta til oilasiga ajratilgan, bular: na-dene, shimoliy Amerika, markaziy Amerika, chibcha-paes,

and, ekvatorial-tukansan va je-panokarib til oilalaridir. Hindulardan tashqari eskimoslar ham Amerikaning tub joy aholisi hisoblanadi. Amerikada hindular va eskimoslar soni kamchilikni tashkil etadi. Qit'ada Evropadan ko'chib kelganlar avlodlari ko'pchilikdir. Bu erda dunyoning barcha til oilalarida gaplashuvchi xalqlar yashaydi. SHuning uchun Amerikada joylashgan barcha mamlakatlar ko'p millatli hisoblanadi. Bu hududda aholi soni 100 mln. dan ortiq bo'lgan mamlakatlar – AQSH, Braziliya, Meksika joylashgan.

Avstraliya va Okeaniya aholisini aborigenlar va kelgindi xalqlar, asosan Evropadan kelganlar tashkil qiladi. Bu hududda Avstroneziya, Avstraliya va Hind-Evropa til oilasiga kiruvchi xalqlar yashaydi.

### **3.6. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish**

#### **Reja:**

1. Aholining mehnat faoliyatiga qarab guruhlanishi.
2. Mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi tushunchalari.
3. Mehnat resurslaridan foydalanish xususiyatlari.

Ma'lumki, mehnat resurslari aholining ijtimoiy va ma'naviy imkoniyatlariga ko'ra mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan kishiga aytiladi. Odatda aholi mehnat faoliyatiga munosabati jihatidan uch guruhga bo'linadi:

- mehnat yoshigacha bo'lganlar;
- mehnat yoshidagilar;
- mehnat yoshidan o'tganlar.

Xalqaro statistikada, mehnat resurslariga ko'pgina mamlakatlarda 15 yoshdan 65 yoshgacha bo'lganlar kiradi. MDHning ko'pgina respublikalari, jumladan O'zbekistonda ham mehnatga yaroqli yoshdagi aholiga erkaklar 16 yoshdan 60 yoshgacha, ayollar 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lganlar kiradi.

Mehnat resurslarining salmog'iga aholining tug'ilish va tabiiy o'sish darajalari, aholining yosh tarkibi hamda aholi migratsiyasi bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda aholining tug'ilish va tabiiy o'sish

ko'rsatkichlari pastligi sababli aholi o'rtasida mehnatga layoqatli aholi ulushi yuqori hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, buni aksi, ya'ni bu mamlakatlarda aholining tug'ilishi va tabiiy o'sish ko'rsatkichlari yuqoriligi sababli aholi o'rtasida mehnat resurslari ulushi kam bo'lib, 14 yoshgacha bo'lgan bolalar ulushi yuqoridir.

Mehnat resurslari odatda ikki guruhga bo'linadi:

- iqtisodiy faol aholi;
- iqtisodiy faol bo'lmagan aholi.

Iqtisodiy faol aholiga asosan mehnatga qobiliyatli aholi kiradi. Mehnat resurslarining hammasi ham iqtisodiy faol aholi bo'lavermaydi. Chunki, ularning hammasi ish bilan band bo'lmaydi. Demak, iqtisodiy faol aholiga ijtimoiy mehnatda band bo'lgan (ishlaydigan) mehnat resurslari kiradi. SHuningdek, ijtimoiy faol aholiga ishlamoqchi bo'lgan, lekin vaqtincha ishlamayotgan, ish qidirayotgan mehnat resurslari ham kiradi. Iqtisodiy faol aholi – harbiy xizmatda bo'lgan, o'qiyotgan, o'zining tomorqasida ishlayotganlar va boshqalar kiradi. Nafaqada bo'lgan, nogironlik nafaqasida bo'la turib ishlayotgan aholi ham iqtisodiy faol aholi hisoblanadi.

Dunyo mehnat resurslari sonining o'sish yoki kamayishiga, faqatgina o'lim va va tabiiy o'sish ta'sir etmasdan, balki aholining mexanik harakati ham bevosita aloqadordir. Masalan, Evropaning rivojlangan mamlakatlari – Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Italiya, hattoki Ispaniya, Portugaliya, SHvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, SHveysariya va boshqa mamlakatlarida, Osiyo, Afrikaning rivojlanayotgan mamlakatlaridan mehnatga yaroqli aholi ish izlab, shu mamlakatlarda ishlashadi. Bu ishchilar eng og'ir ishlarni bajaradi, shu bilan birga arzon ishchi kuchi hisoblanadi. Evropa mamlakatlarida mexanik ravishda mehnat resurslarining ulushi oshadi. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlari AQSH, Kanada, YAponiya, Rossiyada ham mehnatga layoqatli aholi ishlash uchun boradi. Bundan tashqari, kichik rivojlangan mamlakatlar BAA, Isroil, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarga mehnat resurslari dunyoning rivojlanayotgan

mamlakatlardan ish izlab boradi. SHunday qilib, rivojlangan mamlakatlar mehnat resurslari ulushi yil sayin mexanik ravishda ortib bormoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismida 14-15 yoshdagi o'smirlar ham maktabdan keyin ishlashadi, ular ham iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda fan-texnikaning yuksak darajada rivojlanganligi, halq xo'jaligining hamma sohalari kompyuterlashtirilgani sababli, ko'p ishchilar va xodimlar qisqartiriladi. Ular ishsiz qoladi. Bu mamlakatlarda yoshlar o'rtasida ishsizlar soni ko'pchilikni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa halq xo'jaligining turli tarmoqlari yaxshi rivojlanmaganligi tufayli, ishsizlar soni ko'pdir. Bu mamlakatlarning ko'pchiligi agrar mamlakatlar hisoblanadi. SHuning uchun Osiyoning janubiy va janubi – sharqiy qismida joylashgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ishchilari ortiqchaligi seziladi. Masalan, Hindiston, SHri-Lanka, Filippin, Indoneziya, Tailand, Kambodja, Laos va boshqa mamlakatlarda 25-35% qishloq xo'jaligi ishchilari ortiqchadir. Lotin Amerikasi va Afrika mamlakatlarida xam bunday holat mavjud.

Dunyo mamlakatlarida mehnat resurslarining xalq xo'jaligi tarmoqlarida bandligi har xil. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy faol aholining asosiy qismi aholiga xizmat ko'rsatish sohasida (50-60%), sanoatda 20-30%, qishloq xo'jaligida 5-10% banddir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa iqtisodiy faol aholining asosiy qismi, ba'zi mamlakatlarda 80-90% qishloq xo'jaligida band hisoblanadi. So'nggi yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat va qurilish ishchilari soni ko'payib bormoqda. SHuningdek aholiga xizmat sohalari ham asta-sekin rivojlanmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda tabiiy o'sishning yuqoriligi sababli, aholining yosh tarkibida 14 yoshgacha bo'lgan bolalar salmog'i yuqori bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda 60 yosh va undan yuqori yoshdagilar salmog'i ko'payib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda aholi qarishi kuzatilgan bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining yasharib borishi kuzatilmoqda. Masalan, Nigeriyada 14 yoshgacha bo'lgan bolalar salmog'i 47% bo'lsa

Hindistonda bu ko'rsatkich 35%dan yuqoridir (1995y), O'zbekistonda bu ko'rsatkich 25%(2014y)ni tashkil etadi. BMT tashkiloti meyorlariga muvofiq bir mamalakat aholisining 60% va undan yuqori yoshdagilar 12% bo'lsa, bu mamlakatda aholi qarishi kuzatilmoqda, deb hisoblaydi. So'nggi yil ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich SHvetsiyada-22%ni, Germaniya va YAponiyada 20%ni, Rossiya-16,6%ni tashkil etadi.

Rivojlangan mamalakatlarda ishchilar, xizmatchilarning asosiy qismi o'qimishli hisoblanadi. Keyingi vaqtlarda bu mamlakatlarda malakali ishchilarga talab kattadir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa, ishchilar va xizmatchilarning asosiy qismi malakasiz hisoblanadi. So'nggi yillarda bu mamlakatlarda ham o'qimishli va malakali ishchilar va xizmatchilar tayyorlashga harakat qilinmoqda.

**35-jadval**  
**Mehnat resuslari soni eng ko'p bo'lgan dunyoning 20 mamlakati**

<b>№</b>	<b>Mamlakat</b>	<b>Mehnat resuslari soni mln.kishi</b>
1	Xitoy	807,3
2	Hindiston	523,5
3	AQSH	154,3
4	Indoneziya	112,0
5	Braziliya	93,7
6	Rossiya	75,7
7	Bangladesh	70,9
8	YAponiya	66,5
9	Nigeriya	51,0
10	Pokiston	50,6
11	Vetnam	47,4
12	Meksika	45,3
13	Germaniya	43,6
14	Efiopiya	37,9
15	Tailand	37,8
16	Filippin	36,8
17	Buyuk Britaniya	31,2
18	Myanma	30,0
19	Fransiya	28,0
20	Italiya	25,1

Jadval info tables.ru internet malumotlari asosida tuzilgan



Dunyo mamlakatlari bo'yicha mehnat resurslari notekis taqsimlangan. 36-jadvalda mehnat resurslari soni ko'p bo'lgan 20 ta mamlakatlar ko'rsatilgan. Bu jihatdan albatta birinchi o'rinni Xitoy davlati egallab, bu erda 807,3mln. kishi, ikkinchi o'rinda Hindiston-523,5 mln. kishi, uchinchi o'rinda AQSH egallaydi va bu erda 154,3 mln. kishi, mehnat resurslari hisoblanadi. Bu ro'yxatdan 20 ta davlat ichida Indoneziya, Braziliya, Rossiya, Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlar bor.

36-jadvalda esa mehnat resurslari soni ham bo'lgan 20 ta mamlakat ro'yxati keltirilgan. Bu jadvalda asosan aholi soni kam bo'lgan kichik mamlakatlar kiradi, jumladan mehnat resurslari eng kam bo'lgan mamlakat Tuvalu bo'lib, bu erda 3,6 ming kishi, Kiribatida-7,9 ming kishi, Palauda-9,8 ming kishi, mehnatga layoqatlidir.

### 36-jadval

#### Mehnat resurslari soni eng kam bulgan dunyoning 20 mamlakati

<b>№</b>	<b>Mamlakat</b>	<b>Mehnat resurslari ming.kishi</b>
1	Tuvalu	3,6
2	Kiribati	7,9
3	Palau	9,8
4	Mashrall orollari	14,7
5	Sent-Kits va Nevis	18,2
6	San-Marino	22,7
7	Dominik	25,0
8	Antigua va Barbuda	30,0
9	Lixteyshteyn	32,4
10	Seyshel orollari	39,6
11	Tonga	40,0
12	Andorra	42,2
13	Grenada	42,3
14	Monako	44,0
15	San-Tome va Prinsipi	52,5
16	Sent-Vinsent va Grenadshl	57,5
17	Samoa	66,3
18	Sent-Lusiy	79,7
19	Vanuatu	15,9

Jadval info tables.ru internet malumotlari asosida tuzilgan

SHu bilan birga bunday past ko'rsatkichlar bilan San-Marino, Dominika, Andorra, Vanuatu va boshqa mamlakatlar ajralib turadi.

Dunyo aholisining 60% ini mehnat resurslari tashkil etadi, shulardan 48%i iqtisodiy faol aholi hisoblanadi, jumladan bularning 60%i erkaklar, 40% ayollar salmog'iga to'g'ri keladi\*. Iqtisodiy faol aholining qolgan qismi yuqorida aytilganidek, ish izlayotganlar, o'zining uy xo'jaligida ishlaydi, o'qish va harbiy xizmat bilan banddir. Iqtisodiy faol aholining o'sishi yil sayin pasayib bormoqda, bu albatta dunyoda aholi tabiiy o'sishining pasayib borishi bilan bog'liqdir.

Dunyo mamlakatlarida aholining nafaqaga chiqadigan yoshi har xil belgilangan. Rivojlangan mamlakatlarda aholining qarishi hisobga olinib, bu mamlakatlarning ko'pchiligida nafaqa yoshi erkaklar va ayollarga ham 65yosh belgilangan. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida esa, nafaqa yoshi erkaklar uchun 60 yosh, ayollar uchun 55 yosh belgilangan.

### 37-Jadval

#### Ba'zi mamlakatlar aholisining nafaqa yoshi

Mamlakatlar	Erkaklar	Ayolar	Mamlakatlar	Erkaklar	Ayolar
Norvegiya	67	67	YAponiya	65	65
Islandiya	67	67	Germaniya	65	65
Finlyandiya	65	65	SHvetsariya	65	62
Kanada	65	65	Buyuk Britaniya	65	60
AQSH	65	65	Italiya	62	57
SHvetsiya	65	65	Fransiya	60	60
Ispaniya	65	65	Rossiya	60	65
O'zbekiston	65	65	Tojikiston	60	55

Jadval Kopilov V.A. ma'lumotlari asosida tuzilgan.- M., 2005.

37-jadval shuni ko'rsatadiki, Norvegiya, Islandiyada nafaqa yoshi erkaklar va ayollarda ham 67 yosh qilib belgilangan. Nomi keltirilganlardan tashqari qolgan mamlakatlarning asosiy qismida nafaqa yoshi 65 yosh hisoblanadi (erkaklarda ham, ayollarda ham). Rivojlangan mamlakatlarda nafaqa yoshini belgilashda faqatgina aholining qarishini hisobga olmasdan, balki aholining o'rtacha umr ko'rish muddatini ham e'tiborga olinadi. SHuning uchun Evropaning va boshqa

\* Шербанин Ю.А., Мировая экономика. М., 2012.

rivojlangan mamlakatlarda aholining o'rtacha umr ko'rish muddati uzoq bo'lganligi sababli nafaqa yoshi 65-67 yosh qilib belgilangan. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligida erkaklar va ayollar nafaqa yoshi bir xil belgilangan, bu mamlakatlarda yashaydigan ayollarning asosiy qismi turmushga chiqmaydi, turmushga chiqsa ham farzand ko'rishni xohlamaydi. Farzand ko'rmagandan keyin ular sog'lom bo'ladi va uzoq umr ko'radi.

Rivojlangan mamlakatlarda jumladan, AQSHda - 7%ga yaqin, SHvetsariyada-5%, Finlyandiyada-18% iqtisodiy faol aholi ishsizdir. Bu mamlakatlarda aholi o'zining mutaxassisligi bo'yicha ish topa olmaganligi sababli ishsizlik mavjud, ular boshqa sohada ishlashni xohlamaydi. Rossiyadagi ishsizlikka asosan eski texnologiya bilan ishlaydigan korxonalarni yopishi sabab bo'lgan.

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi jihatdan orqada qolgan rivojlanayotgan mamlakatlarda, aholining o'rtacha umr ko'rishning qisqaligi aholining yosh tarkibida yosh bolalar salmog'ining yuqoriligi tufayli bu mamlakatlarda mehnat resurslarining ulushi o'rtacha 45%ni tashkil etadi. SHu bilan birga rivojlanayotgan mamlakatlar ayollari ko'pchiligi ishlamaydi, ular uy ishlari, uyida bolalar tarbiyasi bilan band hisoblanadi, shuning uchun iqtisodiy faol aholi tarkibida ayollar ulushi taxminan 20-25%.

Dunyo aholisining bandligini to'rt davrga bo'lib o'rganish mumkin;

1) Dunyo aholisining ovchilik, baliqchilik va o'rmonlarda har xil meva-chevalar yig'ishdan-qishloq xo'jalik ishlariga o'tish davri;

2) Dunyo aholisining er qa'ridan qazib olingan foydali qazilmalarni qayta ishlash asosida sanoat tarmoqlarini rivojlanish davri;

3) Dunyo aholisining fan texnika rivojlanishi asrida aholiga xizmat qilish sohalarining rivojlanishi davri;

4) Dunyo aholisi kelajakdagi "axborotlar asri"da ma'naviy-aqliy sohalarining rivojlanishi davri.

SHunday qilib, mehnat resurslarining dunyo mamlakatlarida taqsimlanishi, ularning bandligi, o'sha mamlakatda hukmron bo'lgan siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq hisoblanadi.

### Glossariy

**Aholining jinsiy tarkibi** – aholining erkaklar va ayollarga bo'linishi.

**Aholining yosh tarkibi** – aholining yosh bolalar, o'smirlar, mehnatga layoqatli kishilar, qariyalarga bo'linishi.

**Mehnat resurslari** – aholining mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi.

**Progressiv** – aholi yosh tarkibida bolalar salmog'i (0-14 yosh) qariyalarga (60 yosh va undan yuqori) nisbatan yuqori bo'ladi.

**Statsionar** – aholi yosh tarkibida bolalar va qariyalar salmog'i teng bo'ladi.

**Regressiv** – aholi yosh tarkibida qariyalar salmog'i bolalar salmog'iga nisbatan yuqori bo'ladi.

**Aholining milliy tarkibi** – ma'lum bir hududda qaysi millat vakillari yashagan joyga aytiladi.

**Urug'lar** – ibtidoiy jamoa tuzumida paydo bo'lgan, odamlarning qon-qardoshligiga asoslangan, urug' a'zolarining xo'jalik faoliyati va turmushi bir bo'lgan.

**Konsolidatsiya** – qarindosh etnoslar birlashib yirikroq etnoslarning vujudga kelishi.

**Assimiletsiya** – yirik va taraqqiy etgan etnos tomonidan kichik etnosni qamrab olishi.

**Iudaizm** – yahudiylar e'tiqod qiladigan din.

**Sintoizm** – yaponlar e'tiqod qiladigan din.

**Konfutsiylik** – xitoylar e'tiqod qiladigan din.

**Irq** – bu odamlarning kelib chiqishi, gavda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligi.

**Iqtisodiy faol aholi** – ijtimoiy mehnat bilan band bo‘lgan, mehnatga qobiliyatli aholi kiradi, shuningdek, vaqtincha ishlamayotgan, ish qidirayotgan mehnat resurslari va boshqalar kiradi.

### **Nazorat savollari**

1. Aholining yosh – jinsiy tarkibi nima uchun o‘rganiladi?
2. Demograf G.Sundberg aholini yosh tarkibini uchta tipga bo‘lgan, ular qaysilar?
3. Rivojlangan mamlakatlarda nega qariyalar salmog‘i yuqori?
4. Rivojlanayotgan mamlakatlarda nima uchun yosh bolalar salmog‘i yuqori?
5. So‘nggi malumotlar bo‘yicha er shari aholisining qancha foizini erkaklar tashkil etadi?
6. Nima uchun Evropada ayollar salmog‘i yuqori?
7. Bir millatli mamlakatlarga qaysi mamlakatlar kiradi?
8. Qaysi mamlakatlar ko‘p millatli hisoblanadi?
9. Millat deb nimaga aytiladi?
10. Eronda qaysi millat vakillari yashaydi?
11. Qaysi dinlar dunyoviy din hisoblanadi, nima uchun ularni dunyoviy din deyiladi?
12. Islom dini qaerda va qachon paydo bo‘lgan?
13. Mahalliy dinlarning yiriklari qaysilar?
14. Xristian dini necha tarmoqga bo‘linadi?
15. Buddizm diniga qaysi mamlakatlar aholisi etiqod qiladi?
16. Mehnat resurslari deb nimaga aytiladi?
17. Iqtisodiy faol bo‘lmagan aholiga kimlar kiradi?
18. Irqlar qanday paydo bo‘lgan?
19. O‘zbeklar qaysi irqga mansub?
20. Dunyo aholisining necha foizini evropoid irqiga mansub kishilar tashkil etadi?

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. –T. : O‘zbekiston.2010. -79 b.
2. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha xarakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari to‘plami. 2017 y., 6-son. 70-modda.
3. Abdalova Z.T., Tojjeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. Iqtisod-moliya. – T., 2013. b.112-127.
4. Asanov G.R. Aholi geografiyasi. – T.: O‘qituvchi. 1978. - 222 b.
5. Gladkiy YU.N., Lavrov S.B. Globalnaya geografiya. M. : Arofa. 2001. 349 s.
6. Kadirov M.A. Samarqand viloyati aholi geografiyasi. Samarqand 2017. – 142 b.
7. Kovalev S.A., Kovalskaya N.YA. Geografiya naseleniya. M. : 1980. 285 s.
8. Корылов V.A. Geografiya naseleniya. 2-e izd., pererab. i dop. – M., 2005. – 164 s.
9. Kuznetsov A.P. Geografiya naseleniya i xozyaystva mira. M.: Drofa. 2000. 303 s.
10. Narodonaselenie mira. Naselenie i ekologicheskie izmeneniya. Otchet fonda OON v oblasti narodonaseleniya. Nyu-York.2001. 90 s.
11. Народы i religii mira. Ensiklopediya. M., 2000. 928 s.
12. Страны mira. Spravochnik. M., 2013. – 599 s.
13. <http://www.demoskope.ru>.
14. <http://www.demography.narod.ru>.
15. [files.school-collection.edu.ru](http://files.school-collection.edu.ru).2014y.
16. [info tables.ru](http://info.tables.ru).

## **IV BOB. AHOLI JOYLASHUVINING GEORAFIK FORMALARI VA MUAMMOLARI**

### **4.1. Aholi punktlari va ularning tiplari**

#### **Reja:**

1. Aholi punktlari tushunchasi.
2. Aholi punktlari turlari.
3. Aholi punktlarining joylashuvi.

Ma'lum bir shaklga ega bo'lgan aholining hududiy joylanishi aholi punktlari deyiladi. Aholi punktlari aholi geografiyasi fanining muhim kategoriyasi bo'lib, aholining egallaydigan joylarigina bo'lib qolmay, balki moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqariladigan va iste'mol qiladigan butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari hisoblanadi (Asanov, 1978).

Aholi punktlarining qiyofasiga, qurilishiga tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, shu bilan birga, urf odatlar, milliy an'analar hamda ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi punktlarini iqtisodiy geografik jihatdan o'rganishda, birinchi navbatda bu aholi punkti qaysi mamlakat tarkibiga kirishi, uning kelib chiqishi, tarixiy-taraqqiyot bosqichlari, aholisi soni, tarkibi, aholisining tabiiy va mexanik o'sishi, mehnat resurslari, kelajakdagi taraqqiyoti va muammolari o'rganiladi.

Aholi punktlari asosan 2 tipga bo'linadi: bular shaharlar va qishloqlardir. YUqoridagi boblarda aytilganidek, O'rta Osiyo hududida eramizdan avvalgi

yillarda, bu erning qadimiy tub joy aholisi tomonidan dehqonchilikning turli tarmoqlari barpo etilgan va asta-sekin rivojlanib borgan. Dehqonchilik, ovchilik va chorvachilik uchun mehnat qurollari kerakligi tufayli hunarmandchilik vujudga kelgan. Geografik mehnat taqsimoti dehqonchilikdan hunarmandchilikni ajralib chiqishi va savdo-sotiqning rivojlanishiga olib kelgan.

Dastlab dehqonlar bilan hunarmandlar orasida mahsulot ayirboshlash vujudga kelgan, keyinchalik mis, tilla tangalar paydo bo'lgan va pul muomalasi kelib chiqib, savdo-sotiq rivojlanib borgan. SHunday qilib, dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralgan va savdo sohasi ham paydo bo'lgan. Hunarmandchilik va savdo bilan shug'ullanadigan aholi punktlari shahar deb, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan joylar qishloqlar deb atala boshlangan. SHahar aholi punktlarida asta-sekin davlatni boshqaradigan hokimiyat, politsiya va armiya vujudga kelgan. SHunday qilib, boshqa joylarda ham shu tarzda shaharlar paydo bo'lgan. Dunyoning turli qismlarida har xil vaqtlarda shaharlar vujudga kelgan. Ba'zi joylarda ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlikka o'tish davrida paydo bo'lgan bo'lsa, boshqa joylarda quldorlik va feodalizm davrida shaharlar vujudga kelgan. Eng qadimiy shaharlarga CHirixon (Jordan daryosining g'arbiy sohili), Damashq (Suriya), Suzi (Eron), Sidon (Livan), Feyyum (Misr), Plovdiv (Bolgariya), Gaziantep (Turkiya), Bayrut (Livan), Ierusalim (Isroil) shaharlaridir. Masalan, Evropada asosan feodalizm davrida mashinasozlik sanoatining rivojlanishi shahar aholi punktlarining paydo bo'lishi va taraqqiy etishiga baza bo'lib xizmat qilgan.

Aholi punktlari faqatgina aholi yashaydigan joylar bo'lib qolmasdan, balki aholi mehnat faoliyatini olib boradigan ishlab chiqarish markazlari hamda iqtisodiy aloqalar qiladigan joylar hisoblanadi. Aholi punktlarida aholining hududiy yig'indisi to'plangan bo'ladi. Aholi punktlarida yashaydigan aholi tomonidan o'zi yashashi uchun uy joylar, ishlab chiqarish korxonalar, aholiga xizmat ko'rsatish korxonalar va umuman aholi hayoti uchun kerak bo'ladigan barcha inshootlar quriladi.

Har bir aholi punkti bu tizim hisoblanadi. Bu tizim kichik qishloq yoki yirik shahar bo'lish mumkin. Qishloqlar joylashuvi tizimi kichik bo'lsa, shaharlarda bu



tizim katta bo‘ladi. Masalan: katta shaharlarda joylashuv tizimiga aholining guruhli to‘planib yashashi, yashaydigan uylar, ishlab chiqarish ob‘ektlari, birlashgan kommunikatsiya va har xil ishlab chiqarish aloqalari, inshootlarning yig‘indisi, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari kiradi. SHaharlarda aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining hamma turi rivojlangan bo‘ladi. SHuningdek, barcha kommunikatsiya turlari yo‘llar, elektr uzatish liniyalari, suv va gaz, kanalizatsiya quvurlari o‘tkazilgan bo‘ladi. Odatda shaharlarda uy joylar, korxonalar va inshootlar zich joylashgan bo‘ladi. Qishloq aholi punktlari esa aksincha tarqoq va alohida joylashadi.

Har bir aholi punkti o‘ziga xos hususiyatga ega. Jumladan, aholi punktlari bir-biridan tashqi ko‘rinishi, imoratlarning qurilishi va zichligi, tabiiy va iqtisodiy geografik o‘rni, aholi soni, aholi tarkibi, aholining mehnatda bandligi, mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o‘rni, ularning tarixiy kelib chiqishi, rivojlanishi va boshqalar bilan farq qiladi.

SHaharlar funksiyasi turli tarixiy yillarda o‘zgarib boradi. Qadimgi shaharlar hunarmandchilik markazi, keyin manfaktura markazi, asta sekin shaharlar mashinasozlik, kimyo, qora va rangli metallurgiya, engil sanoat, to‘qimachilik va boshqa har xil markazlar vazifasini bajaradi. SHunga qaramasdan, shaharlar hamma vaqt aholi zich joy sifatida mamlakat hayotida asosiy rolni bajaradigan aholi punkti bo‘lib kelgan.

Kapitalizmning rivojlanishi bilan manfaktura o‘rnini mashinasozlik sanoati egallab, shaharlarning ko‘rinishiga va rivojlanishiga olib kelgan.

Sotsialistik davlatlarda ham xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari asosan sanoatning rivojlanishi bilan juda ko‘p shaharlar paydo bo‘ldi. Bu shaharlar qishloq aholi punktlaridan farq qilib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaz bo‘lib xizmat qilgan. SHu bilan birga shaharlar hamma vaqt boshqaruv organlari vazifasini bajarib kelgan.

SHunday qilib, aholining 75% i qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan sohalarda band bo‘lmagan aholi punktlari shahar deb nomlanadi. Bundan tashqari, aholi punktlari

shahar bo'lishi uchun aholi punktlarning tashqi ko'rinishi, imoratlarning holati, madaniy va iqtisodiy ahvoli, aholi soni va boshqa me'yorlar ham hisobga olinadi.

Professor A.S.Soliev shaharlarga shunday ta'rif bergan: Aholining nisbatan ko'pchilik qismi qishloq xo'jalik bo'lmagan mehnat bilan band bo'lgan va qabul qilingan minimal aholi soniga ega bo'lgan aholi joylari, shaharlar qatoriga qo'shiladi. Bu ta'rif albatta yagona qabul qilingan ta'rif emas. SHuning uchun ham ko'pchilik fikrlar inobatga olingan holda bu ta'rif yanada mukammallashtirilmog'i zarur (Soliev 2013). Aholi punktlarining shaharga aylanishi uchun har qaysi mamlakatda me'yor turlichadir. Masalan, O'zbekistonda aholi soni 7000 kishi, Niderlandiyada 20000 kishi, Daniyada 250 kishi, Rossiyada 12000 kishi bo'lishi kerak. Rossiyada aholi soni bilan birgalikda aholisining 86 %i ishchilar va xizmatchilardan iborat bo'lishi lozim, shuningdek aholi punktlari sanoat va madaniy markaz vazifasini bajarishi va boshqa me'yorlar talab etiladi. Rossiyada odamlar dam oladigan joylar, ya'ni rekreatsiya markazlari, kurortlar ham shahar aholi punktlariga kiritilgan.

SHaharlar bu murakkab ijtimoiy-iqtisodiy ko'rinish bo'lib, moddiy ishlab chiqarishning asosiy joyi, ba'zan juda ko'p aholi joylashgan va ularning hayoti o'tadigan joydir (Kovalyov, 1980).

N.N.Baranskiy esa shaharlarga quyidagicha ta'rif bergan: SHaharlar har bir mamlakatning ham xo'jalik ham siyosiy-ma'muriy ham madaniy jihatdan boshqaradigan joydir. Iqtisodiy geografik jihatdan shaharlar yo'llari to'ri-bu karkas (qobirg'a) hisoblanadi (1965).

SHaharlar bajaradigan funksiyasiga qarab, iqtisodiy va sotsial tiplarga bo'linadi. Iqtisodiy funksiyasiga sanoat ishlab-chiqarish sohalari kirsa, sotsial funksiyasiga ma'muriy-siyosiy, madaniy, ilmiy, rekreatsiya markazlari kiradi. Har bir shahar ma'lum bir funktsiyani bajaradi. SHuningdek, ular shahar hosil qiluvchi va shaharga xizmat ko'rsatish funksiyasini ham bajaradi.

Bundan tashqari, shaharlar monofunksional va polifunksionalga bo'linadi. Monofunksionalga bitta funktsiyani bajaradigan kichik shaharlar, ya'ni kurort shaharlar, fan shaharlari, ixtisoslashgan sanoat, kon, temir yo'l shaharlari kiradi.

Polifunksional shaharlarga asosan katta va yirik shaharlar, birinchi navbatda poytaxt shaharlar va boshqa shaharlar kiradi. Bu shaharda ham siyosiy-ma'muriy, ham iqtisodiy, ham madaniy va boshqa funksiyalarni bajaradi. SHaharlarning bajaradigan funksiyasi aholi soniga, aholi tarkibiga va shahar ko'rinishiga ham fa'ol ta'sir ko'rsatadi. Masalan, metallurgiya, ximiya sanoati rivojlangan shaharlarda asosan ishga yaroqli erkaklar ko'p bo'ladi, to'qimachilik rivojlangan shaharlarda esa ayollar ulushi ko'p bo'ladi. (Kovalev 1980)

SHaharlarni iqtisodiy-geografik o'rnini N.N.Baranskiy 1930-yillarda o'rgangan. Iqtisodiy-geografik o'rin shaharlarni ko'p xususiyatlari va kelajakdagi taraqqiyotini belgilashda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. SHaharlarning quyidagi iqtisodiy-geografik o'rinlari mavjud:

1. SHaharlarning foydali qazilmalar manbaida joylashuvi;
2. SHaharlarning qishloq xo'jaligi rivojlangan qishloqlarga yaqin joylashuvi;
3. SHaharlarning transport yo'llarida joylashuvi;
4. SHaharlarning yirik shaharlarga yaqin joylashuvi

SHu bilan birga, N.N Baranskiy shaharni iqtisodiy-geografik holatini 3 ta tipga bo'lgan:

- a) SHaharni mikroo'rni;
- b) SHaharni mezoo'rni;
- c) SHaharni makroo'rni

SHaharning mikroo'rni - bu shaharni joylashgan joyi va unga yaqin bo'lgan hududlardir. SHaharning mezoo'rni esa - shaharni atrofidagi boshqa viloyat va iqtisodiy rayonlarga munosabati kiradi. SHaharni makroo'rni -butun mamalakat yoki yirik qismlarga bo'lgan munosabati kiradi (Baranskiy, 1956).

SHunday qilib aholi punktlari qisqacha qilib aytganda, aholi yashaydigan, iste'mol qiladigan va ishlab chiqaradigan joy bo'lib, u 2 tipga shahar va qishloq aholi punktlariga bo'linadi:

## **4.2. Urbanizatsiya jarayoni va shaharlar geografiyasi**

## **Reja:**

1. SHahar va urbanizatsiya tushunchasi.
2. SHaharlarning vujudga kelishi.
3. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanish omillari va turlari.

Urbanizatsiya tushunchasi lotin tilidan olingan bo‘lib, “urban”- shahar, “zatsiya”- jarayon ma’nosini anglatadi. A.S.Soliev ta’biri bilan aytganda, “urbanizatsiya” mamlakat yoki boshqa hududlarning shaharlashuvini anglatadi. Binobarin, urbanizatsiya jarayoni o‘ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u butun dunyoga xos global jarayon hisoblanadi. Urbanizatsiya murakkab hodisa ekanligi tufayli uni faqat bitta mezon bilan ifodalash, o‘lchash mumkin emas. Ammo, shunday bo‘lsa ham barcha uchun qulay bir o‘lchov kerak. U ham bo‘lsa mamlakat va boshqa hududlar aholisining qancha qismi shaharlarda yashashini hisobga olish lozim (Soliev, 2000).

Urbanizatsiya muammolari ko‘pchilikni, ya’ni turli sohada ijod qilayotgan olimlarni qiziqtiradi. BMT ekologik va ijtimoiy kengashlarida shaharlar rivojlanishining muammolari asosiy vazifalaridan bo‘lib, u dunyoda tinchlikni saqlash muammosidan keyin turadi.

Urbanizatsiya tushunchasi murakkab bo‘lib, u ijtimoiy–iqtisodiy jarayondir. Ilmiy-texnika inqilobi davrida ishlab-chiqarishni rivojlanishi shahar hayot tarzining kengayishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Urbanizatsiya qisqacha qilib aytganda, shahar hayot tarzining rivojlanishi, shahar aholi salmog‘ining oshishidir. Lekin, rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisi salmog‘i oshmasa ham shaharga hayot tarzi rivojlanishi mumkin, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa shahar aholisi tez o‘sishi, shaharcha hayot tarzi orqada bo‘lishi, ya’ni urbanizatsiya darajasi past bo‘lishi mumkin (Persik, 1991).

Urbanizatsiyaning tor ma’nodagi mazmuni shundan iboratki, shaharlarni va shahar aholisini o‘rishini bildirsa, keng ma’noda esa - u tarixiy dunyoviy jarayon hisoblanib, geografik mehnat taqsimotini chuqurlashtirish asosida, shahar va qishloqlarni ijtimoiy-iqtisodiy qayta o‘zgartirishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu sanoatni,

transportni hamda qishloq ho‘jaligi bo‘lmagan boshqa sohalarni ham intensiv rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayon shaharlarni rivojlantiradi, hududini kengaytiradi, moddiy-texnika bazasi va funksiyasini mustahkamlaydi, aholiga xizmat ko‘rsatish va kommunikatsiyani rivojlantiradi, shaharcha hayot tarzini tarqatadi va tarraqiy etadi.(Kovalev, 1980).

YUqoriga aytilganidek, shaharlarni paydo bo‘lishiga ijtimoiy geografik mehnat taqsimoti, ya’ni dehqonchilik va chorvachilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi, savdo-sotiqning vujudga kelishi sababchi bo‘lgan.

Dunyoda birinchi shaharlarning paydo bo‘lishi eramizdan oldingi III-II ming yilliklarda Mesopatamiya, Misr, Hindiston va Xitoyda bo‘lgan. Bu shaharlarda ma’muriyat, siyosiy hokimiyat, savdo va hunarmandchilik nuqtalari joylashgan bo‘lgan. Bu davrlarda eng katta shaharlar yirik davlatlarning poytaxti bo‘lgan. Bu shaharlarda 200 mingdan, Rimda esa 700 ming aholi yashagan. Feodalizm davrida shaharlarning o‘sishi X-XI asrlarda to‘g‘ri keladi. Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq asosan XIV-XV asrlarda gullab yashnagan.

Kapitalizm da sanoat inqilobi davrida er sharida 750 ta shaharlar bo‘lgan ularning har birida kamida 5 mingdan aholi yashagan. SHaharlarning 45 tasida 100 ming kishidan aholisi bo‘lgan. 1950 yilda shaharlar soni 875 taga, 1970 yilda esa, yirik shaharlar soni 2000 taga etgan. O‘rta Osiyo va Kavkazortida birinchi shaharlar I ming yilliklarda paydo bo‘lgan (SHuvalov, 1977).

Urbanizatsiya darajasining qay darajada yuqori bo‘lishini bildiradigan ko‘rsatkichlardan biri-shahar aholisining salmog‘idir. 1970-yilda GFR aholisining-82%, Buyuk Britaniyaning-79%, AQSHning-73%, YAponiyaning-68%, Jazoirning-38%, Nigeriyaning-21%, Hindistonning-20%, Y‘zbekistonda 52% shahar aholisi bo‘lgan. SHu davrda Samarqand viloyatida 30%, Surxondaryo viloyatida esa 17% ni tashkil etgan xolos.

2014 yilga kelib bu mamlakatlarda shahar aholisi salmog‘i quyidagicha: Germaniyada-75%, Buyuk Britaniyada-82%, AQSHda-81%, YAponiyada-93%, Jazoirda-70%, Nigeriyada-47%, Hindistonda-32%, Ukrainada-69%, O‘zbekistonda-52% ni tashkil etadi.

Dunyoda 100% aholisi shahar aholisini tashkil etuvchi mamlakatlarga Angilya, Bermud, Gibraltar, Kayman orollari, Makao, Nauru, Singapur va Sint-Marten kiradi. SHuningdek, Katar, Gvadelupa, Quvayt, Belgiyada aholining 98-99% ini shaharliklar salmog'iga to'g'ri keladi. San-Marino, Islandiya, YAponiya, Isroil, Argentina, Niderlandiya, CHili, Avstraliya, Venesuela, Baxrayn, Daniya va boshqa davlatlarda ham shahar aholisi salmog'i yuqori bo'lib, 87%-94% ni tashkil etadi.

**38 – jadval**

**Urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar  
(% xisobida, 2014 yil)**

<b>Mamlakat nomi</b>	<b>Urbanizatsiya darajasi</b>	<b>Mamlakat nomi</b>	<b>Urbanizatsiya darajasi</b>
Angilya	100,0	Katar	99,2
Bermud orollari	100,0	Gvadelupa	98,4
Gibraltar	100,0	Quvayt	98,3
Kaymon orollari	100,0	Belgiya	97,8
		Malta	95,3
		Virgin orollari	95,2
Makao	100,0	Urugvay	95,2
Monako	100,0	Ryunon	94,8
Nauru	100,0	Guam	94,4
Singapur	100,0		
Sent-Marten	100,0		

Jadval internet gtmarket.ru ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

**39-jadval**

**Urbanizatsiya darajasi past bo'lgan mamlakatlar  
(% hisobida, 2014)**

<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>Urbanizatsiya darajasi</b>	<b>Mamlakatlar nomi</b>	<b>Urbanizatsiya darajasi</b>
Mikroneziya	22,4	Niger	18,5
CHad	22,3	SHri-Lanka	18,3
Eritreya	22,2	Nepal	18,2

Solomon orollari	21,9	Malavi	16,1
Svazilend	21,3	Uganda	15,8
Kambodja	20,5	Lixtenshteyn	14,3
Samoa	19,3	Panua-YAngi	
Efiopiya	19,0	Gvineya	13,0
		Burundi	11,8
Janubiy Sudan	18,6	Trinidad va Tobago	8,5

Jadval internet gtmarket.ru ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Urbanizatsiya darajasi eng past ko'rsatkichlari bilan dunyoda Niger, SHri-Lanka, Nepal, Uganda, Malavi, Lixtenshteyn, Papua-YAngi Gvineya, Burundi va boshqa mamlakatlarni misol tariqasida ko'rsatishi mumkin. Bu mamlakatlarda shahar aholi salmog'i 12-18% ni tashkil etadi. (ilovadagi jadvalga qarang).

Aholining urbanizatsiya darajasiga faqatgina xo'jalikning tarmoqlar tarkibiga ta'sir etmasdan, balki uni hududiy tashkil etishda ham ahamiyatlidir. Binobarin, biron bir mamlakat urbanizatsiya darajasini boshqa mamlakatlar bilan qiyoslaganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- shahar tashkil qilish mezonlari (masalan, Turkmaniston shahar maqomini olish uchun 5 ming aholi bo'lishi kerak, O'zbekistonda esa-7 ming);
- shaharlarning umumiy soni va zichligi;
- yirik shaharlarning mavjudligi;
- shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi;
- qishloq - shahar mayatniksimon migratsiyasi;
- aholining bandlik darajasi va tarkibi;
- qishloq joylar urbanizatsiyasi, qishloqlarda shaharchasiga yashash tarzining mavjudligi va h.k.


YUqoridagilar urbanizatsiyaning naqadar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa ekanligidan yana bir bor dalolat beradi (Soliev, 2000).

Ma'lumki, urbanizatsiya umuman olganda ijobiy jarayon, lekin uning salbiy tomonlari ham bor. CHunonchi, ekologik, ijtimoiy, transport, odamlarning tabiatdan uzoqlashishi, asabiy bo'lishi, nisbatan kamquvvat bo'lishi, alkogol va giyohvand moddalarni ko'p istemol qilishi va erkaklar o'rtasida janjallarning ko'p bo'lishi, avtohalokatlarning ko'payishi muammolarining keskinlashuvi hozirgi zamon urbanizatsiyasining salbiy yo'ldoshidir.

Urbanizatsiyaning rivojlanishi bilan uning yangi ko'rinishlari paydo bo'ldi. Jumladan, **giperurbanizatsiya** - shaharlar o'sib, hududi kengayib, juda ko'p shahar aholisining to'planishidir.

**Suburbanizatsiya** - shahar atroflarining tez rivojlanishi va aholining asta-sekin shahar va uning atrofidagi hudud orasida qayta taqsimlanishiga aytiladi.





7-rasm. Dunyo shahar aholisining salmog'i (% hisobida)

**Rururbanizatsiya** - qishloq aholisining qishloq ho‘jaligi bo‘lmagan mehnatga jalb qilinishi va qishloq aholi punktlarida shaharcha hayot tarzining kirib borishidir.

XX asrning II yarmida urbanizatsiya jarayoni o‘zining yangi bosqichiga ega bo‘ldi. SHunday ko‘rinishlardan biri shahar aglomeratsiyalaridir. SHahar aglomelatsiyalarining tashkil topishi nisbatan yangi jarayon bo‘lib, uni o‘rganish hozirgi MDH davlatlarida va boshqa qator davlatlarda o‘tgan asrning 50-yillar ohiridan boshlandi va 60-70 yillarda yanada rivojlandi. Aglomeratsiyalar tashkil topishi va rivojlanishi masalalariga katta e‘tibor bergan birinchi tadqiqotchisi P.I.Dubrovin bo‘lib, u 1957 yildayoq aglomeratsiyalarining tashkil topishi, ularning ijobiy va salbiy xususiyatlariga e‘tibor bergan edi. Aglomeratsiya lotincha “Agglomerare” – “ qo‘shib olmoq” so‘zidan olingan bo‘lib, boshqa sohalarda ham ishlatiladi (Soliev, 2000).

Ma’lumki, aglomeratsiyaning tashkil topishi va rivojlanishi asosan hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonlari hamda shahar va boshqa aholi punktlari aholisining bir-biri bilan bevosita aloqadorligi, shuningdek sanoat va agrosanoat majmualarining borligi bilan bog‘liqdir. Demak, aholi punktlari aglomeratsiyasi murakkab hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tizim bo‘lib, ularni o‘rganish ishlab chiqarishni va aholini hududiy joylashtirishda muhim ahamiyatga ega.

SHu soha yirik mutaxassislaridan biri G.M.Lapponing fikricha, shahar aglomeratsiyalari bu shaharlar va qishloq aholi punktlari to‘plami bo‘lib, ular yirik markazlar atrofida vujudga keladi. Bu erda urbanizatsiya jarayonlari ta’sirida aholining turmush tarzi chuqur o‘zgaradi (Lappo, 1987).

S.A.Kovalev va N.YA.Kovalskaya fikricha, aglomeratsiya bu bir nechta shaharlarning mujassamlashuvi bo‘lib, ular shu darajada yaqinlashadiki, shahar aholi punktlari bir-biriga qo‘shilib ketadi va umumiy shahar atrofiga tutashgan yagona shahar joylari paydo bo‘ladi. Aglomeratsiya aholi punktlarining chambarchas yaqinlashishdan va har kunlik punktlararo bog‘liqlik asosan migratsiyaning rivojlanishidan vujudga keladi, deb yozilgan (Kovalev, Kovalekaya, 1980).

Umuman olganda, aglomeratsiya tushunchasi birinchi marta evropaliklar tomonidan sanoat korxonalarining bir joyda to'planishi, joylashishi, shahar va qishloq aholi punktlarining lokal guruhi bo'lib, ular o'rtasida doimo madaniy-maishiy mehnat va boshqa bir-biri bilan bog'liq aloqalar mustahkam o'rin olgan bo'ladi.

Aglomeratsiya masalalari bilan geograf, urbanistlar, regional iqtisodchilar, sotsiologlar va boshqa soha mutaxassisleri shug'ullanadi. Ko'plab mamlakatlarda aglomeratsiya aholi joylashuvining etakchi shakli bo'lib hisoblanadi.

Aglomeratsiya tashkil topishi uchun, avvalo markaziy shahar mavjud bo'lishi lozim. Markaziy shahar kattaligi to'g'risida turli fikrlar bor. MDH davlatlarida va Rossiya aglomeratsiyalarini o'rganishda katta hissa qo'shgan olim, professor G.M.Lappo fikricha, markaziy shahar sifatida aholisi 250 mingdan kam bo'lmagan shaharlar olinishi mumkin. BMTgi shu soha ekspertlarining fikricha, 50 ming kishilik aholiga ega bo'lgan shaharlar ham aglomeratsiya markazi bo'laladi, deb hisoblaydilar. Xuddi shu kattalik AQSH, GFR statistikasida ham qo'llaniladi. Lekin MDH va boshqa davlatlarda ko'plab tadqiqotchilarning aytishicha, aholisi 100 mingga etgan shaharlar, aglomeratsiya markazi sifatida rivojlana oladi (Soliev, 2000). Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, shaharlar aglomeratsiyasi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi va joylanishi tufayli turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning vujudga kelishi va ularning bir joyda to'planishidan, xususan shaharlarning qulay iqtisodiy geografik o'rin tufayli eniga va bo'yicha kengayib borishidan hamda yirik shahar atrofida va unga yaqin joyda shahar va shaharlarning tarkib topib, qo'shib ketishidan paydo bo'ladi. Shahar aglomeratsiyasi quyidagicha shart-sharoitlarda shakllanadi:

- shahar atrofida bitta yoki ikkita yirik shahar bo'lishi lozim;
- uning atrofida kamida ikkita shahar va shaharchalar bo'lishi shart;
- markaziy shahar (aglomeratsiya yadrosi) va yo'ldosh shaharchalar orasidagi masofa eng ko'pi ikki soatlik vaqt doirasida bo'lishi zarur;
- aglomeratsiya shahar va shaharchalari orasida mayatniksimon (tebranma) aloqasi rivojlangan bo'lishi shart;

- atrofidagi shaharlar aholisining 10 foizini tashkil etishi zarur va h.k.

Aglomeratsiyalar 2 xil bo'ladi: monotsentrik (bir markazli) va politsentrik (ko'p markazli). Masalan, Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qarshi, Nukus, Urganch aglomeratsiyalari bitta yirik shahar atrofida vujudga kelgan. Bu aglomeratsiyalar monotsentrik hisoblanadi. Farg'ona – Marg'ilon, Angren-Olmaliq aglomeratsiyalari ikki markazli bo'lganligi uchun politsentrik aglomeratsiyalalaridir. Aglomeratsiyalarning tashqi qiyofasi har hil bo'ladi, jumladan doirasimon, lentasimon, cho'zinchoq va h.k. Bu o'sha joyning er usti tuzilishi, transport tizimi va gidrografiyasiga bog'liq. O'rta Osiyo va O'zbekiston aglomeratsiyasi mohiyatan shahar emas, balki shahar-qishloq aglomeratsiyalaridir. Dunyodagi eng yirik aglomeratsiya Tokio aglomeratsiyasi bo'lib, bu erda 38 mln aholi istiqomat qiladi (Dehli 24 mln., Jakarta 29 mln.). BMT ning malumotiga ko'ra, 2010 yilda er sharida 449 ta aglomeratsiyalarning har birida kamida 1 mln.dan aholi to'g'ri kelgan, jumladan ularning 4 tasida 20 mln, 8 tasi 15 mln.dan ortiq, 25 tasida 10 mln.dan ortiq, 61 tasida 5 mln.dan ortiq aholi yashagan. Dunyoning 6 ta mamlakatining har birida 10 tadan ortiq aglomeratsiyalar joylashgan. Bu mamlakatlarga Xitoy (95), AQSH (44), Hindiston (43), Braziliya (21), Rossiya (16), Meksika (12) kiradi.


Agar shahar va shaharchalar o'zaro hududiy tutashib, qo'shilib ketsa, u holda yaxlit-ulkan shahar vujudga keladiki, ularni konurbatsiya deyishadi (London, Rur havzasi konurbaziyasi va h.k.). Konurbatsiya ham aglomeratsiyaning bir shaklidir. Shaharlar hududiy birlashmasining yana bir murakkab shakli megapolislar hisoblanadi. Megapolislar aglomeratsiyalarning o'zaro qo'shilib ketishi natijasida vujudga keladi. Masalan, Boston va Washington aglomeratsiyalarining qo'shilishidan Bosvash megapolisi paydo bo'lgan. Daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasini deltapolis deyishimiz mumkin (Soliev, 2000).

**40-jadval**

### **Dunyoning yirik megapolislari**

<b>Megapolislar (mamlakat)</b>	<b>Yirik aglomeratsiya</b>	<b>Agglomeratsiyalar soni</b>	<b>Aholi soni</b>	<b>Uzunligi</b>
SHimoliy- SHarqiy, Atlantika	Nyu-York	40	45 mln kishi	800 km
Ichki, Ko‘l bo‘yi (AQSH, Kanada)	CHikago	35	35 mln kishi	900 km
Janubiy-G‘arbiy, Tinch okean(AQSH, Meksika)	Los-Anjeles	15	20 mln kishi	800 km
Tokaydo (YAponiya)	Tokio	20	55 mln kishi	700 km
Angliya (Buyuk Britaniya)	London	30	30 mln kishi	400 km
Reyn( Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Fransiya)	Reyn-Rur	30	30 mln kishi	500 km

Manba. Persik E.N. Goroda mira. – M: Mejdunarodnyy otnosheniya. 1999.



8-rasm. Dunyoning yirik megapolislari

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, megopolislardan eng yirigi SHimoliy- SHarqiy Atlantika sohillari bo‘lib, 40 ta aglomeratsiya bir-biriga qo‘shilishidan megapolis vujudga kelgan. Bu erda 45 mln. kishi istiqomat qiladi. Bu yirik megapolislardan tashqari, kichik megapolislar ham mavjud. Evropada bunday kichik megapolislar ko‘p. Dunyoning boshqa qismlari va davlatlarida ham megapolislar paydo bo‘lmoqda.

SHaharlar klassifikatsiyalanadi va ularning tipologiyasi ham mavjud. Klassifikatsiya bilan tipologiyaning farqi shundan iboratki, klassifikatsiyada shaharlar aholisi soniga qarab guruhlarga bo‘linsa, tipologiyada - shaharlar qaysi funksiyani bajarishiga qarab guruhlanadi. Ilmiy adabiyotlarda shaharlar aholi soniga qarab quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

- kichik shaharlar -20 mingacha;
- o‘rta shaharlar – 20 - 100 mingacha;
- yirik shaharlar – 100 - 500 mingacha;
- eng yirik shaharlar - 500 ming va undan yuqori;
- millioner shaharlar.

SHaharlarni bundan ham kengroq klassifikatsiya qilish mumkin.

SHaharlar bajaradigan funksiyasiga ko‘ra quyidagicha tiplarga ajratiladi:

1. Ko‘p funksiyali shaharlar – bunga ma‘muriy- siyosiy, madaniy, iqtisodiy rivojlangan sanoat va transportni o‘z ichiga olgan shaharlar kiradi. Bunday shaharlar qatoriga mamlakatlar poytaxtlari, MDH respublikalari poytaxtlari, viloyatlar markazlari va ko‘pgina yirik shaharlarni kiritish mumkin.

2. Sanoat va transport vazifasini bajaruvchi shaharlar. Ba‘zi shaharlar sanoat-transportli, yoki transport - sanoatli, yoki bitta sanoat tarmog‘iga ixtisoslashgan bo‘lishi mumkin. Masalan: qora metalluriya yoki rangli metallurgiyaga ixtisoslashgan shaharlar va h.k.

3. Sanoat va transportdan tashqari boshqa funksiyani bajaruvchi shaharlar, mahaliy markazlar funksiyasini bajaruvchi, ya‘ni tuman markazlari vazifasini bajaruvchi, mahalliy okruglar markazi kiradi.

4. SHahar-kurortlar.

5. SHahar ilm va fan markazlari va h.k. (Soliev, 2000).

YUqorida aytilganidek, shaharlar kattalashgan sari muammolar ham ko‘payib boradi. Birinchi navbatda, shaharda aholi soni ko‘payadi, aholi ko‘payishi bilan transport rivojlanadi, natijada shahar havosi ifloslanadi. Havoni toza saqlash uchun sanoat korxonalarida chiqaradigan chiqindi va gazlardan saqlash, transportlar harakatini, avtomashinalarning ekologik jihatdan “toza” ligini ham tartibga solish lozim. Hozirgi vaqtda shaharlar havosini asosan avtomashinalar ifloslantiradi, buning uchun havoga ko‘p dud chiqaradigan nohoz avtomashinalarning shahar ko‘chalarida yurishni barham berish, katta yukmashinalarini iloji boricha shahar ichiga qo‘ymaslik, elektr energiya asosida ishlaydigan tramvay va osma yo‘llardan foydalanishi lozim, bu chora-tadbirlar shahar havosining ifloslanishini qisman cheklaydi. Bundan tashqari, sharq mamlakatlariga xos bo‘lgan va so‘nggi yillarda ko‘pgina Evropa mamlakatlariga ham kirib borayotgan velosipedlar yo‘laklarni vujudga keltirish va velosipedda yurishni ommalashtirish maqsadga muvofiqdir.

### **4.3. Qishloq aholisi va qishloqlar geografiyasi**

#### **Reja:**

1. Qishloq aholi punktlari vazifalari.
2. Qishloq aholi punktlarini klassifikatsiyalash.
3. Qishloq aholi punktlarining turlari.

Dunyo mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholini, shuningdek qishloq aholisini kompleks o‘rganish katta ahamiyatga ega. Aholiga doir masalalarni hal etish bevosita yashash sharoiti, milliy iqtisodiyotni va jamiyatning rivojlanishida muhimdir. SHuning uchun dunyo mamlakatlari va uning viloyatlari aholisini majmualari chuqur o‘rganish talab etiladi.

Dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida shaharlarni o‘rganishdek, qishloq aholi punktlarini ham tadqiq qilish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya va aholi geografiasining asosiy



vazifalaridan biri shahar va qishloq aholi punktlarini rivojlantirishni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ravishda olib borishdan iboratdir. Har bir mamlakat aholisi sonini o‘shida o‘sha davlatda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, fan-texnika taraqqiyoti, aholi ongining rivojlanishi ta’sir etadi. Haqiqatdan ham ijtimoiy vaziyat o‘zgarishi bilan aholining mehnat faoliyati o‘zgarib boradi.

Qishloq aholi punktlari shahar va shaharchalardan tashqaridagi hududlar bo‘lib, ularda qishloq xo‘jaligida muntazam foydalanadigan erlar hamda doimiy aholi punktlari mavjud bo‘lishi kerak. Demak, qishloq joylari geografik xaritada areal, maydon ko‘rinishida, qishloq aholi punktlari esa ular ichidagi nuqtasimon shakldagi jamiyatning ijtimoiy-hududiy tashkil etish birligi hisoblanadi.

Qishloqlar shaharlarga qaraganda aholi yashash joyining qadimiyroq shaklidir. Qishloqlarning vujudga kelishi va rivojlanishi ijtimoiy mehnat taqsimotida sug‘orma dehqonchilik madaniyati taraqqiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Sug‘orma dehqonchilik dastlab tabiiy suv oqimidan foydalangan holda olib borilgan, keyinchalik sug‘orish inshootlari (to‘g‘on, kanal va boshqalar) va vositalari (chig‘iriy) asosida rivojlangan. Albatta, bunday inshootlar yoki hozirgi zamon tili bilan aytganda, irrigatsiya infratuzilmalarini yaratish, qo‘riqlash va ulardan foydalanish keng jamoatchilik mehnatini, aholini bir joyda va birgalikda yashashini taqozo etgan. SHunday qilib, jamoa, kishilarning hududiy birligi, turg‘un aholi punktlari paydo bo‘lgan. Sug‘orma dehqonchilikning chorvachilikdan ajralib chiqishi, shu asosda hunarmandchilik va savdoning rivojlanib borishi natijasida ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimotining navbatdagi muhim bosqichi boshlangan. Jamiyat hayotidagi bunday o‘zgarishlar qishloqlardan shaharlarning ajralib chiqishiga va rivojlanib borishiga sabab bo‘lgan. Aynan shu davrdan boshlab ijtimoiy hayotni hududiy tashkil etilishining ikki shakli, ya’ni qishloqlar va shaharlar vujudga kelgan (Soliev, 2009).

Ma’lumki, qishloq aholi punktlari asosan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi, xususan aholi geografiyasining muhim tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganiladi. Qishloq aholi punktlari turli funksiyalarini, ya’ni iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, rekreatsiya, ekologik va boshqa vazifalarni bajaradi. Qishloq aholi

punktларini o‘rganishda turli xil usullardan foydalaniladi, ular statistik, tarixiy va geografik taqqoslash, kartografik, guruhlash, rayonlashtirish va boshqalar.

Qishloq aholi punktlarining shakllanishi va rivojlanishining asosini iqtisodiyot tarmoqlari tashkil etadi. Bu jihatdan qishloqlar uch toifaga bo‘linadi:

- 1) Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan;
- 2) Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashmagan;
- 3) Aralash qishloqlar.

Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan qishloq aholi punktlari, ma’lumki qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi. Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashmagan qishloq aholi punktlari temir yo‘l bekatlari, rekreatsiya, qazilma boyliklar, suv omborlari va kanallar asosida shakllanadi. Bu qishloqlarda aholi uncha ko‘p bo‘lmaydi. Aralash tipidagi qishloq aholi punktlarida qishloq xo‘jaligi bilan birga, uning negizida sanoat ham rivojlanib boradi. Qishloqlarning katta-kichikligi ularning bajaradigan funksiyasini belgilab beradi. Bu aholi punktlari geografiasining eng muhim qonuniyatlaridan biridir (Soliev, Nazarov, 2009).

Ilmiy adabiyotlarda yozilishicha, qishloq aholi punktlari aholi soniga qarab klassifikatsiya qilinadi. Bular quyidagicha:

Kichik qishloqlar – aholi soni 1000 kishigacha;

O‘rta qishloqlar – aholi soni 1000-3000 kishigacha;

Katta qishloqlar – aholi soni 3000 kishi va undan ortiq;

Maxsus tadqiqotlarda, qishloq aholi punktlari klassifikatsiyasi yanada aniqroq darajada bajarilishi mumkin.

Qishloq aholi joylashuvining shakllari va qishloq aholi punktlarining tiplari dunyoning har qaysi mamlakatida tarixiy rivojlanish xususiyatlari va hozirgi zamon ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, ishlab-chiqarishning rivojlanish darajasi, aholi soni va zichligi, tabiiy sharoitning xilma-xilligini ko‘rsatadi.

Dunyoda birinchi shaharlarinng vujudga kelishi eramizdan oldingi III-II ming yilliklarda qadimiy Rim, YUnon, Tigr-Evfrat, Nil, Hind-Gang va Xuanxe-YAnsi vodiylarida bo‘lgan bo‘lsa, qadimiy qishloqlar ham shu hududlarda

shaharlardan ancha oldin paydo bo'lgan. Er sharida shahar aholi punktlari ko'payishi bilan qishloq aholi salmog'i kamayib borgan. Feodalizm davrigacha dunyo aholisining asosiy qismini qishloq aholisi tashkil etgan. Feodalizm davriga kelib, shaharlarning tez o'sishi bilan qishloq aholisining salmog'i asta-sekin kamayib borgan. Kapitalizm davriga kelib, dunyoning turli qismlarida, asosan Evropa mamlakatlarida shaharlar tez rivojlangan va qishloq aholisining salmog'iga, shu bilan birga qishloqlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

1970-yilda GFR aholisining 18 %, Buyuk Britaniyaning 21%, AQSHning 27%, YAponiyaning 32%, Jazoirning 62%, Nigeriyaning 79%, Hindistonning 80% aholisi qishloq aholisi bo'lgan. O'sha vaqtda Donetsk aholisining 11%, Samarqandning 70%, Surxondaryoning 83% aholisi qishloq aholisi hisoblangan (SHuvalov, 1977).

2014 yilga kelib, bu mamlakatlarda qishloq aholisi salmog'i quyidagicha bo'lgan. Germaniyada – 25%, Buyuk Britaniyada 18%, AQSHda 19%, YAponiyada 7%, Ukrainada 31%, O'zbekistonda 38,5% ni qishloq aholisi tashkil etgan. Er sharida shunday mamlakatlar borki, umuman qishloq aholisi yo'q. Bu mamlakatlar maydoni kichik yoki orollarda joylashgan, Masalan: Makao, Manako, Singapur, Gibraltar va boshqalar. SHuningdek, Qatar, Quvayt, Belgiya, Gvadelupa mamlakatlari aholisining bor yo'g'i 1-2 % ini qishloq aholisi tashkil qiladi. Bundan tashqari, San-Marino, Islandiya, CHili, Avstraliya, Venesuela, Baxrayn va boshqa mamlakatlarda ham qishloq aholisi salmog'i juda kamchilikni tashkil etadi.

Dunyoda qishloq aholi salmog'i yuqori bo'lgan mamlakatlar ko'p bo'lib, ular asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. Bularga asosan Afrika va Osiyo mamlakatlari misol bo'la oladi. Masalan: Nigeriya, SHri-Lanka, Nepal, Uganda, Malavi, Papua-YAngi Gvineya, Burundi, Lixtenshteyn va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Bu mamlakatlar aholisining 82-88 % ini qishloq aholisi hisoblanadi.

S.A. Kovalev va N.YA. Kovalskayalarning yozishicha, er sharida 20 mln.ga yaqin qishloq aholi punktlari mavjud. Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda qishloq aholi joylashuvini ikki guruhga bo'lish mumkin. Birinchisi: Evropa

davlatlari va YAponiya xo‘jalik rivojlanishi va aholi joylashuvida uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tib, bu mamlakatlarda qadimiy yirik qishloqlar va poselka paydo bo‘lgan, bu qishloqlar shaharlardan ham qadimiy hisoblanadi. SHu bilan birga, bu mamlakatlarda keyinchalik alohida-alohida joylashgan fermerlar uylari, yirik er egalarning ekin maydonlari oldida paydo bo‘lgan uylar, shuningdek dengiz sohillari va tog‘li joylarda boylarning dam olish uylari, kurortlar vujudga kelgan. Kapitalizm rivojlanishi bilan qishloq aholi punktlarida transport va sanoatning turli tarmoqlari ham kirib kelgan va ba’zilar shaharga aylangan.

Qishloq aholi joylashuvining ikkinchi guruhi AQSH, Kanada, Avstraliya va YAngi Zelandiya mamlakatlari uchun xos bo‘lib, bu mamlakatlarda asosan aholi joylashuvining ferma shakli rivojlangan. Bunday qishloq aholi punktlarida bitta oilaga va ferma ishchilariga mo‘ljallangan uylar qurilgan. Vaqt o‘tishi bilan bunday uylar ko‘payib, bu hududlarda aholiga xizmat ko‘rsatadigan do‘konlar, maktablar paydo bo‘lgan.

Hozirgi vaqtga kelib, Evropa mamlakatlari, YAponiya, AQSH, Kanada aholisining juda kam salmog‘i qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi. Masalan, Buyuk Britaniya, Belgiya, Kanada, AQSH va boshqa davlatlarda iqtisodiy faol aholining 5-10 % i qishloq xo‘jaligi bilan banddir.

Osiyo, Afrika, va Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa, aksincha, iqtisodiy faol aholining asosiy qismi 80-90 % i qishloq xo‘jaligi bilan band. Masalan, Afrikaning Efiopiya, CHad, Togo mamlakatlarida hamda Osiyoning Afg‘oniston, Tailand, Nepal, Laos mamlakatlari iqtisodiy faol aholining 90-95 % i qishloq xo‘jaligi ishlari bilan shug‘ullanadi.

SHunday qilib, qishloq aholi punktlari va qishloq aholisi dunyo bo‘yicha shaharlarga nisbatan ancha kam o‘rganilgan. Hamma mamlakatlarda qishloq aholisi va qishloq joylarini chuqur o‘rganish, qishloqlarda ham aholi yashashi uchun qulayliklar yaratish lozimdir.

#### **4.4. Aholining global muammolari**

## Reja:

1. Aholining kelajakdagi o'sishi.
2. Demografik, ekologik muammolar.
3. Oziq-ovqat, xom ashyo muammolari.

Ma'lumki, dunyo aholisi XX asrda tez sur'atlarda o'sib bordi va bunda albatta tabiiy o'sishning yuqoriligi, ya'ni tug'ilishga nisbatan o'lim darajasining kamligi ta'sir etdi. So'nggi yillarda aholining tug'ilish darajasi ozgina pasaydi.

Dunyo aholisi 1962-1972 yillarda o'rtacha 2,06% ga 1973-1983 yillarda 1,80% ga keyingi yillarda ham yanada pasayib borgan. So'nggi 10 yillarda ham aholining o'sishi o'rtacha 1,27% ni tashkil etadi .

Aholi 1804-yilda 1 mlrd kishi, 123 yildan so'ng 2 mlrd kishiga etgan, 33 yildan keyin esa 3 mlrd ni tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, aholi soni o'sishi mlrd.lar orasida yillardagi farq kamayib borgan. 3-va 4-mlrd orasida bor yo'g'i 14 yil, 4- va 5- mlrd orasida esa 13 yil va hokazo.

BMT ma'lumotlariga ko'ra sayyoramiz aholisining soni 2050 yilga borib 9-12 mlrd, 2100 yilda esa 19 mlrd oshishi mumkin. SHu bilan birga, 2050 yilda borib, dunyo aholisining yarmi Osiyoda, 25% -Afrikada, 8,2%- Lotin Amerkasida, 7,4%- Evropada va 4,7 %- SHimoliy Amerikada yashaydi. Dunyo aholisining bashoratlashda, juda ko'p aholishunos olimlar bir necha yillik ma'lumotlar, ya'ni aholi soni, tug'ilish va o'lim darajalari, tabiiy o'sish va boshqa omillar hisobga olishib, dunyo aholisi soni va boshqa bashoratlarni keltirishadi. Dunyo aholisining o'sishiga kamayishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: bular, aholining hayot va turmush tarzining yaxshilanishi, ayollarning ijtimoiy mehnatga jalb etilishi, tibbiy xizmatlarning yanada yaxshilanib borishi, eng asosiysi odamlar ongining rivojlanib borishi va turmush tarzining yaxshilanib borishi hamda aholi bilim darajasining ahborot-kommunikatsiya tarmoqlarining rivojlanishi odamlar ongining rivojlantiradi, ular o'zi uchun yashash kerakligini ham tushunib etadi. Rivojlanayotgan Osiyo, Afrikada, Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisi ham rivojlangan mamlakatlar aholisidek yillar o'tishi bilan kam farzandli bo'ladi.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlar aholisi asosan aholining mehanik harakati ko'payib bormoqda. Kelajakda aholining ko'payishi faqat rivojlanayotgan mamlakatlar hisobiga to'g'ri keladi.

Dunyo aholisining ko'payib borishi juda ko'p muammolarni keltirib chiqaradi:

1) aholi jon boshiga ishlab-chiqariladigan qishloq xo'jaligi va dengiz mahsulotlari kamayib ketadi;

2) aholi zichligi oshganligi sababli atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi;

3) rivojlanayotgan mamlakatlarda energiyadan foydalanish me'yoridan kamayadi, aholining istemol mollari bilan ta'minlanishi yomonlashib boradi. Ba'zi mamlakatlarda aholining qarishi kuzatiladi, 50 ga yaqin turli xil muammolarni xal etishda kelishmovchiliklar ko'payadi (Gladkiy, Lavrov, 2001).

Aholining demografik tarixini ikki davrga bo'lish mumkin. Birinchisi XVII asrning ikkinchi yarmigacha davom etib, bu davrni qishloq xo'jaligi taraqqiyoti davri deb atash mumkin. Bu davrlarda ibtidoiy jamoadan boshlab, aholining turmush darajasi qanchalik yuqori bo'lmasin, o'lim darajasi ham shunchalik yuqori bo'lgan. SHuning uchun dunyo aholisi juda sust o'sgan, insoniyatning ikkinchi demografik rivojlanish 300 yildan so'ng yuz berdi. 1960 yillarda dunyo aholisining o'sishi tez sur'atlarda bo'ldi. SHunda demografik portlash degan tushuncha paydo bo'ldi. Planetamiz kelajakda odamlar bilan to'lib ketishi barcha sezib qoldi (Lavrov, 2001).

Dunyo aholisining tez sur'atlarda o'sishida, aholi o'rtasida o'lim darajasining pasayishi sabab bo'ldi. O'lim darajasining pasayishiga esa birinchi navbatda tibbiy xizmatlarning yaxshilanishi va har xil vaksinalarning paydo bo'lishi ta'sirini ko'rsatdi. So'nggi 60-70 yil ichida aholining tug'ilish va o'lim darajasida biologik sharoitlar emas, balki ijtimoiy sharoitlar ta'sir ko'rsatmoqda. Har bir mamlakatda aholining tug'ilish, o'limga va tabiiy o'sishga mamlakatlarning ijtimoiy –iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq bo'lib qoldi. Qaysi hududda aholi soni va zichligi ko'payib ketsa, o'sha joyda qashshoqlik kirib keladi. Dunyo mamlakatlarining asosiy qismida aholining tug'ilish darajasi pasayib bormoqda.

YU.N.Glovkiyning yozishicha, xatto YAqin SHarqda joylashgan neft eksport qiluvchi islom mamlakatlarida ham ayollar ko‘p farzand ko‘rishni xohlamaydi, chunki ko‘p bolalik ularning jamiyatda o‘rin topishida va avtomobil xaydashida to‘sqinlik qiladi.

Ma’lumki, aholining tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘shish darajalari Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi rivojlanayotgan mamlakatlarida yuqori ko‘rsatkichlarga ega. Eng yuqori ko‘rsatkich bilan Afrika mamlakatlari ajralib turadi. Dunyoning agrar mamlakatlari xaligacha ko‘p bolalikni afzal ko‘rishadi, chunki qishloq xo‘jaligi ishlarida bolalarning yordami ko‘p bo‘ladi. SHu bilan birga ota-onalar biz qariganimizda bolalarimiz bizni boqadi, degan umidda bolalarni ko‘paytirishadi. Sanoat tarmoqlari rivojlangan mamlakatlarda kam bolalikni afzal ko‘rishadi, chunki bu mamlakatlar aholisi qaraganida mamlakat tomonidan ularga qarilik nafaqa berish va g‘amxo‘rlik qilishni bilishadi.

#### 41-jadval

#### Dunyo aholi soni dinamikasi

Yillar	Aholi soni mlrd. kishi
1804	1
1927	2
1960	3
1974	4
1987	5
1999	6
2011	7
2016	7.3*
2025	7.8*
2050	9.8*
2100	11-12*

Internet “world population clock” ma’lumotlari asosida tuzildi.

41-jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, dunyo aholisi soni tez sur’atlarda o‘shib bormoqda. Aholi 1804-yilda 1 mlrd. kishi, 123 yildan so‘ng 2 mlrd. kishiga etgan, 33 yildan keyin esa dunyo aholisi 3 mlrd. ni tashkil etgan. Tahminlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo aholi sonining o‘shishi mlrd.lar orasida yillardagi farq kamayib borgan 3 va 4- mlrd orasida bor yo‘g‘i 14 yil, 4-va 5- mlrd

lar orasida esa 13 yil va hokozo. Dunyo aholisi soni kelajakda BMT ma'lumolariga ko'ra, 2025-yilda 7,8 mlrd kishiga, 2050 yilda 9,8 mlrd.ga va 2100-yilda tahminan 11-12 mlrd. kishiga etishi kutilmoqda. Dunyo aholishunos olimlarning fikriga ko'ra, dunyo aholisi 11-12 mlrd.ga etgandan so'ng, shu tarzda ya'ni 11-12 mlrd bo'lib qoladi va stabillashadi. Bu degani dunyoda qancha aholi tug'lsa shuncha aholi vafot etadi, chunki kelajakda aholi tug'ilish darajasi pasayishi kutilmoqda.

#### 42-jadval

#### Dunyo aholi sonining regionlar bo'yicha 2025 yildagi bashorati

Dunyo regionlari	Aholi soni, mln kishi	Dunyo regionlari	Aholi soni, mln kishi
Butun dunyo	78 25	Afrika	1300
Rivojlangan mamlakatlar	12 15	SHimoliy Amerika	365
Rivojlanayotgan davlatlar	66 10	Lotin Amerikasi	695
MDH	290	Avstraliya	40
Xorijiy evropa	505	Xorijiy Osiyo	46 30

Internet "world population clock" ma'lumotlari asosida tuzildi.

YUqorida aytilganidek, dunyo aholi soni 2025-yilda 7,8 mlrd kishiga etadi, shunda aholining asosiy qismi yani 4,6 mlrd.dan ko'p qismi xorijiy Osiyoda joylashgan bo'ladi, aholi sonining ko'pligi bilan 2-o'rinni Afrika, keyingi o'rinni esa Lotin Amerikasi, SHimoliy Amerika, MDH davlatlari ohirgi o'rinni Avstraliya egallaydi. SHuningdek, dunyo aholisining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlarda 6,6 mlrd kishi yashaydi. Rivojlangan mamlakatlarda esa, bor yo'g'i 1,2 mlrd dan ortiqroq aholi yashaydi. Demak, kelajakda ham aholi sonining o'sib borishi dunyoning qaysi regionlarida aholi tug'ilish va tabiiy o'sish yuqori bo'lsa o'sha hududlarda aholi soni ko'p joylashadi. BMT bashoratlariga ko'ra, 2050-yilga kelib, dunyo aholisining yarmi Osiyoda, 25 % Afrikada, 8,2 % i Lotin Amerikasida, 7,4 % Evropada va 4,7 % SHimoliy Amerikada yashaydi.

2025-yilda dunyoning aholi soni bo'yicha 20 ta yirik mamlakatida aholi soni o'sib, aholi sonining ko'pligi jihatdan birinchi o'rinni odatdagidek 1-o'rinni Xitoy



davlati egallaydi va unda 1455 mln kishi istiqomat qiladi. 2-o‘rinda Hindiston turadi, aholisi 1363 mln. kishini tashkil etadi. Ko‘pgina mamlakatlar aholisi soni tug‘ilish va tabiiy o‘shish ta’sirida ko‘payib bormoqda.

**43-jadval**  
**Dunyoning 20 ta mamlakatida 2025 yilda aholi soni bashorati**

Mamlakatlar	Aholi soni, mln kishi	Mamlakatlar	Aholi soni, mln kishi
Xitoy	14 55	YAponiya	120
Hindiston	1363	Efiopiya	115
AQSH	351	Vetnam	110
Indoneziya	281	Filippin	110
Pokiston	250	Kongo	105
Braziliya	211	Eron	95
Bangladesh	208	Misr	95
Nigeriya	206	Turkiya	88
Rossiya	137	GFR	80
Meksika	133	Tailand	73

Internet “world population clock” ma’lumotlari asosida tuzildi.

Jadvaldagi 20 ta mamlakatlardan faqat AQSH Rossiya Germaniya, aholisi mexanik harakat tufayli o‘shib boradi. Jadvaldagi mamlakatlarning 11 tasi Osiyoda joylashgan, chunki Osiyo mamlakatlarida tug‘ilishning yuqoriligi sababli qadimdan aholi zich va ko‘p o‘rnashgan. Bu mamlakatlar ichida aholi soning kamligi bilan Germaniya va Tailand ajralib turadi.

**44-jadval**  
**Dunyo regionlarida aholining o‘shish darajasi (% hisobida )**

Yillar	Dunyo	Afrika	Lotin Amerika	SHimoliy Amerika	Osiyo	Evropa	Okeaniya	Sobiq Ittifoq
1965 -1970	2.06	2.64	2.60	1.13	2.44	0.66	1.97	1
1980-1985	1.74	2.99	2.06	0.82	1.82	0.25	1.48	0.78
2020-2025	0.99	1.90	1.12	0.34	0.89	0.05	0.76	0.47

Internet “world population clock” ma’lumotlari asosida tuzildi.

44-jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki, 1965-1970-yillarga nisbatan 1980-1995-yillarda aholining o‘shishi pasaygan bo‘lsa, 2020-2025-yillarda o‘shish darajasi yanada pasayib ketgan. Dunyo va uning qismlarida aholi o‘shishining bunday pasayib borishiga albatta aholi o‘rtasida tug‘ilish darajasining yil sayin kamayib borishi sababidir. Masalan, 1965-1970-yillarda dunyo aholisining soni 2,06 ga o‘sgan bo‘lsa, 1980-1995-yillarga kelib 1,74 % ga, kelajakda 2020-2025 yillarda esa bu ko‘rsatkich yanada pasayib, 0,99 % ni tashkil etishi bashorat qilishmoqda. Bu jihatdan Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyoda o‘shish birmuncha yaxshiroq, lekin bu hududlarda ham o‘shishi pasayishi bashorat qilinmoqda. Juda past o‘shish bilan Evropa ajralib turadi, bu erda 2020-2025-yillarda aholining o‘shishi 0,05 % ni tashkil etish ehtimoli borligi bashorat qilinmoqda. Rus aholishunos olimlari YU.N.Glodkiy S.P.Lavrovning fikricha, hozirgi vaqtda er sharida yashayotgan insoniyatning quyidagi global muammolarni mavjud, bular: demografik, oziq-ovqat, energetik, xom ashyo, dunyo okeani, etnik inqiroz, sog‘liq va uzoq umr ko‘rish, ekologik va boshqalar. Er sharida yashaydigan barcha ayollar kamida 3 ta farzand ko‘rishlari lozim, 1 ta farzand o‘zining o‘rnida 2- farzand umr yo‘ldoshining o‘rnida qolishi uchun 3- farzand aholining o‘sib borishi uchun, shunda har bir mamlakatda aholi soni meyorida o‘sib boradi. Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ayollarning ijtimoiy mehnatda bandligi, yashash tarzining yuqoriligi va boshqa bahonalar tufayli, ular 1 yoki 2 farzand ko‘radi yoki umuman farzand ko‘rishni ho‘xlamaydi. SHuning uchun, bu mamlakatlarda jiddiy demografik siyosat olib borilishi lozim. Masalan: xomiladorlik ta’tillarining uzaytirilishi, bolalar nafaqalarining yanada ko‘tarilishi, yosh oilalarni uy bilan taminlash va hokazo. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa demografik siyosat umuman boshqacha bo‘lib, bu mamlakatlarning aksariyatida bolalarga nafaqa puli to‘lanmaydi, shunga qaramasdan aholining tug‘ilish darajasi yuqoridir, lekin kelajakda 2025-2050 yillarda bu mamlakatlarda ham asta sekin aholining tug‘ilish darajasi pasayib borishi bashorat qilinmoqda. Rivojlanayotgan

mamlakatlar aholisining asosiy qismi hozirga qadar xomilador bo'lmalik uchun qanday vositalardan foydalanishni bilmaydi yoki bilsa ham bu vositalarga mablag' sarflashni xohlamaydi. Bunda tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining turmish qurish yoshini ko'tarish yani 17-18 yosh emas balki 20-21 yoshga ko'tarish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Bu borada Xitoy mamlakati to'g'ri demografik siyosat olib bordi. Bu mamlakatda 1- navbatda nikoh yoshi ko'tarilgan, har bir oilada 1 ta farzand ko'rishga ruxsat berilgan, shunga qaramasdan Xitoy davlati aholi soni ko'pligi jihatdan 1- o'rinni egallaydi. 2050 – yil bashoratiga ko'ra, kelajakda aholi sonining ko'pligi bilan 1-o'ringa Hindiston mamlakati chiqib oladi. Hindiston mamlakatida ham har bir oilaga 2 ta farzand demografik siyosati olib borilgan, lekin natijasi deyarli yo'q. Kelajakda ba'zi mamlakatlar aholisining qarishi davom etadi. Masalan, YAponiyada aholining 65 yosh va undan kattalar salmog'i 1990-yilda 12%, 2000-yilda 17%, 2007-yilda 20% va 2025-yilga kelib 27,3% tashkil etishi bashorat qilinmoqda. Dunyoda aholining qarishi bo'yicha 1-o'rinni YAponiya egallaydi. SHuningdek SHveysariya, Germaniya, Italiya, SHvetsiya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda ham aholining qarishi davom etadi (Lavrov, 2001)

Dunyo rivojlanayotgan mamlakatlari ko'p jihatdan rivojlangan mamlakatlardan orqada hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining pasligi, qishloq xo'jaligi ishlarida eski usullardan foydalanish, aholi tug'ilish darajasining yuqoriligi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining qisqaligi, aholining besavotligi, ishsizlik va boshqa omillar ta'sir etadi.

Dunyoda global demografik muammolardan tashqari global oziq-ovqat muammolari mavjud. Global oziq-ovqat muammolari deganda, asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning aholi o'sishiga nisbatan pasligi, bu esa mamlakatda aholining to'yib ovqat emasligi va ocharchilikka olib kelishi mumkin. SHuningdek, qishloq xo'jaligi erlari aholi tomorqasidan erga dam bermasdan ishlatish, ko'p mamlakatlarda oziq-ovqat xilma-xilligi yo'qligi, dunyo mamlakatlari o'rtasida qarama-qarshilik va urushlarning ko'payishi va boshqalar. Dunyo aholisining oziq-ovqat

mahsulotlari bilan to'g'ri taminlanishiga xalaqit bermoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholi 500 mln kishisi och, 1 mlrd kishisi oziq-ovqat etishmasligidan aziyat chekmoqda. Odam to'la sog'lom bo'lishi uchun, turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishi lozim, chunki oziq –ovqat tarkibida odam organizmi uchun kerakli moddalarning hammasi mavjud. So'nggi yillarda tug'ilayotgan chaqaloqlar odam organizmi uchun kerakli bo'lgan ba'zi turdagi vitaminlar etishmovchiligi bilan tug'ilmoqda. SHuning uchun, nafaqat xomilador ayollar balki barcha odamlar sog'lom bo'lishi uchun turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishlari shart. Amerikalik olim Pol Brek aytganidek, odam organizmi faqatgina oziq-ovqat mahsulotlari bilan oziqlanadi va kuch oladi.

Dunyoning global muammolaridan yana biri energetika muammosi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yoqilg'i xom ashyolari -ko'mir, torf, gaz, neft, slanets qazib olinmoqda va dunyo mamlakatlari xo'jaligida elektrostansiyalari to'xtovsiz ishlamoqda, shunga qaramay ko'p rivojlanayotgan mamlakatlarda elektroenergiya etishmasligi, elektr bilan ta'minlanish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Ko'p olimlar kelajakda yoqilg'i xom ashyolari kamayishi yoki tugab qolishidan xavotirdalar. Bundan tashqari, yoqilg'i xom ashyolaridan foydalanishda chiqindisiz texnologiyalardan foydalanmaslik natijasida atrof-muhit, atmosfera, biosfera, litosfera va gidrosfera ham ifloslanmoqda, havoning va er qobiqlarning ifloslanishi hamda kosmik tajribalarning ko'payishi havoning isib ketishi, dunyo okeani sathining ko'tarilishi olimlar va boshqalarni tashvishga solmoqda. SHu bilan birga energetika sohasida mamlakatlararo qarama-qarshiliklarni bartaraf etish va energetika xom ashyolarini tejab ishlatish va elektro-energetika sanoatida chiqindisiz yangi texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Hozirgi vaqtda quyosh nuri, daryo suvlari va shamoldan unumli foydalanib, elektrenergiya olishni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Atomdan foydalanib elektrenergiya olish juda havfli.

SHu bilan birga, dunyoda global muammolarga xom ashyo muammolari ham kiradi. Xom ashyolarni tejab ishlatilmasa tugab qolishi mumkin. SHuning uchun xom ashyoni sotish noto'g'ri albatta. Har bir mamlakat o'zining boyligi

bo'lgan xom ashyosini qayta ishlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarish o'z xalqini ta'minlash va qolgan qismini eksportga chiqarishi lozim. Qaysi mamlakat xom ashyosini qayta ishlasa ya'ni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib rivojlantirsa, o'sha mamlakat boy bo'ladi. SHuning uchun mamlakatimiz Prezidenti SH.M.Mirziyoev ishlab chiqarishni rivojlantirish lozim, sanoat korxonalarini ko'paytirib, o'zimizning xom ashyomizni qayta ishlashimiz va mehnat resurslarimizni ish bilan ta'minlashimiz kerak, deb ta'kidlaydi. Masalan, Singapur davlatini olaylik, u janubiy-sharqiy Osiyoda Singapur oroli va 58 ta kichik orollarda joylashgan, maydoni bor yo'g'i 622 kv.km. Mamlakat hududining hamma qismi uy-joylar ishlab chiqarish korxonalari va aholiga xizmat ko'rsatish sohalari bilan band. Singapurda hech qanday tabiiy boylik va xom ashyo yo'q. 1965-yilda Singapur mustaqil davlatga aylangan. Aholi soni 4.1 mln. kishini tashkil etadi. Bu davlat boshqa mamlakatlardan asosan neft va boshqa xom ashyolarni import qilib olib qayta ishlaydi. SHu sotib olgan xom ashyolar hisobiga Singapurda elektrotexnika, radioelektronika, neft-kimyo, kemasozlik, samolyotsizlik, sanoatlari yaxshi rivojlangan. SHu qisqa davr mobaynida Singapur davlati yuqori darajada rivojlandi. Bu davlat shaharlarining tashqi ko'rinishi AQSH shaharlaridan qolishmaydi. Bu natijaga yuqorida aytilganidek, xom ashyoni qayta ishlash sanoati barpo etilib, rivojlantirishi orqali erishilgan. SHuning uchun har bir mamlakat rivojlanishi ishlab chiqarishni yo'lga qo'ya olishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### 45-jadval

#### Mamlakatlarning import qilish salmog'i (%)\*

Metall	AQSH	MDH mamlakatlari	YAponiya	Evropa ittifoqi mamlakatlari
Temir rudasi	36	0	99	90
Boksit	88	38	100	86
Mis	7	0	99	99
Qo'rg'oshin	85	0	73	74
Rux	53	0	53	81

Qalay	72	24	86	92
Oltin	43	0	96	99
Kumush	59	0	58	93
Platina	85	0	88	100
Marganets	99	0	97	99
Nikel	75	0	100	100
Xrom	88	0	99	97
Volfram	48	-	68	100
Kobolt	94	-	98	98

\*Manba YU.N. Gladkiy globalnaya geografiya.- M., 2001-yil, 199-bet

Dunyo mamlakatlari ichida rivojlangan mamlakatlarda import qilish salmog‘i yuqoridir, bu mamlakatlarning o‘zida shu xom ashyo bo‘lsa ham boshqa rivojlangan mamlakatlardan arzon narxda sotib oladi, o‘zida bo‘lgan xom ashyo zahirada qoladi. Evropaning rivojlangan mamlakatlari, AQSH, YAponiya va boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarish yuqori darajada rivojlanganligi sababli, xom ashyoni ko‘p import qiladi va qayta ishlab keraklisini o‘zida qoldirib, qolganini eksport qiladi.

45-jadval shundan dalolat beradiki, MDH mamlakatlariga nisbatan AQSH, YAponiya va Evropa Ittifoqi mamlakatlari xom ashyoni ko‘p import qiladi. Masalan, YAponiya temir rudasi, boksit, mis, oltin, nikel, xrom, kobaltni 100% import qiladi. AQSH esa, marganets, xrom, kobalt, platina, qo‘rg‘oshin, boksitni import qilish salmog‘i yuqori hisoblanadi. MDH mamlakatlarning ba‘zilari boksit va kobalt import qiladi. Dunyo global muammolarining keyingisi Dunyo okeani hisoblanadi. Dunyo okeanidan foydalanish qadimdan boshlangan bo‘lib, Xristafor Kolumb, Fernnan Magellan va sayohatchilar okeanlarda suzib, boshqa yangi erlarni ochib, ko‘p ilmiy va amaliy ishlarni bajarishgan. Hozirgi vaqtga kelib dunyo okeani ifloslanib bormoqda. Sanoat korxonalarining chiqindilari rekreatsion joylar portlar va sanatoriyalarning salbiy ta’sirlari, okean tagidan tabiiy resurslarning qazib olinishi, suv transporti tomonidan okeanning ifloslanishi va boshqalar dunyo okeanida global muammolarni keltirib chiqarmoqda.

SHaharlar, aglomeratsiyalar, megapolislarning rivojlanishi bir qancha salbiy muammolarni keltirib chiqargan, bular, transport, suv taminotining qiyinlashishi,

ekologiyaning buzilishi, aholi zichligining oshishi, aholining tabiatdan uzoqlashishi shovqin- suronlarning ko'payishi bilan aholining asabiy bo'lishi, aholining noziklashib borishi ishsizlikning ko'payishi, jinoyatchilik, giyohvandlik, alkogolizm, avariylarning ko'payishi va x.k.

Eng yirik global muammolardan yana biri ekologik muammolar hisoblanadi. Ma'lumki, atmosfera erning havo qobig'i bo'lib, u planetamizni zararli bo'lgan kosmik nurlanishdan va quyoshning ultrabinafsha nurlaridan saqlaydi. Atmosfera o'z navbatida iqlimga, daryolar rejimiga, tuproq qoplami, o'simliklarga va relef xosil qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi zamon atmosfera gaz tarkibi tabiatning uzoq tarixiy rivojlanishi natijasidir. Atmosfera havosining 78,09% ini azot, 20,95% ini kislorod, 0,93% ini argon (inert gaz) va qolgan qismini uglerod oksidi gazi, neon hamda boshqa gazlardan, suv bug'laridan iborat. Bundan tashqari, atmosfera tarkibida har xil changlar, tuzlar va boshqalar mavjud.

So'nggi yillarda odamzot yashayotgan hudud, o'zi tomonidan atmosferaga turli xil kimyoviy elementlar va organizmlar chiqarib tashlamoqda. Bu esa, atmosferada yog'ingarchilik paytida tuproqqa singadi, undan o'simliklarga, qishloq xo'jaligi ekinlariga va odam organizmiga o'tadi. Sanoat korxonalaridan, avtomobillardan va boshqa joylardan chiqayotgan zaharlar, xam atmosferani ham litosferani, ham gidrosferani va biosferani zaharlaydi. Atrof- muhit ekologiyasi buzilishi, aholining zaharlanishi har xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. SHuningdek, soylar va daryolar, okean va er osti suvlari ham zaharlanadi. Ekologiyaning buzilishi planetamiz iqlimiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda iqlimning global isishiga atmosferadan turli xil zaharli gazlarning ko'payishi va kosmik jarayonlarni o'zgarganligi natijasidir. Iqlimning global isishi esa dunyo okeani sathini ko'tarilishiga, atmosferaning ifloslanishi esa quyoshdan keladigan nurlarning kamayishiga olib keladi, bu xolat ham albatta o'z ta'sirini ko'rsatadi. Atmosferaga asosan uglerod, azot, uglevodorod, oltingugurt va boshqa zaharlar chiqadi. Ohirgi 10 yilliklarda ekologiyaning buzulishi natijasida ko'zga yaqqol tashlanadigan narsalardan biri kuz kelmasdan uzum toklarining va ba'zi daraxtlar bargining

sargʻayib qolishi, odamlar orasida xar xil kasalliklarning koʻpayganligini, kasal odamlar yoshining yasharib borayotgani, yosh bolalarning turli xil kasalliklar bilan tugʻilishi, allergiya kasalligining keng tarqalganligi va boshqalarni aytish mumkin.

SHunday qilib, ekologiyani toza saqlash uchun hamma birgalikda nazariy va amaliy ishlar olib borishi lozim. Birinchi navbatda sanoat korxonalarini chikindisiz texnologiyalar bilan taʼminlash zarur. Ikkinchidan elektromobillar, tramvay, metro, osma yoʻllar, velosipedlardan foydalanish lozim.





9-rasm. Aholining global muammolari. Rasm muallif tomonidan tuzilgan.

## Glossariy

**Aholi zichligi** – 1 km.kv. da necha kishi to‘g‘ri kelishi.

**Manufaktura** – kapitalistik ishlab chiqarishning mashinalashgan sanoat paydo bo‘lmasdan oldingi shakli.

**Aglomeratsiya** – ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi va joylanishi, xususan mujassamlashuv natijasida turli funksional tip va yiriklikdagi shaharlarning bir joyda to‘planishi.

**Urbanizatsiya** –shaharlashuv, shahar aholi salmog‘ining oshishi, shaharchasiga yashash, shaharcha hayot tarzining rivojlanishi.

**Suburbanizatsiya** – shahar atroflarining tez rivojlanishi va aholining asta sekin shahar va uning atrofidagi zona orasida qayta taqsimlanishi.

**Rururbanizatsiya** – qishloq aholisining qishloq xo‘jaligi bo‘lmagan mehnatga jalb qilinishi, qishloqlarda shaharcha hayot tarzining kirib borishi.

**Monotsentrik** – bir markazli degan ma‘noni anglatadi, masalan, Samarqand aglomeratsiyasi bitta yirik shahar atrofida vujudga kelgan, bu aglomeratsiya monotsentrik hisoblanadi.

**Politsentrik** – ko‘p markazli.

**Konurbatsiya** – shahar va shaharchalar o‘zaro hududiy tutashib, qo‘shilib ketishi.

**Megapolis** – aglomeratsiyalarning o‘zaro qo‘shilib ketishi natijasida vujudga kelishi.

**Deltapolis** – daryolarning quyi qismida joylashgan shaharlar birikmasi.

**Global muammolar** – dunyoviy, butun jaxon muammolari.

## Nazorat savollari

- 1.Aholi eng zich joylashgan areallarni ayting?
- 2.Aholi siyrak joylashgan hududlar qaysilar?
- 3.Dunyoning qaysi mamlakatida aholi eng zich joylashgan?
- 4.Dunyoning qaysi mamlakatlarida aholi siyrak joylashgan?
- 5.Dunyo aholisining asosiy qismi qaysi qit‘ada joylashgan?

- 6.Dunyo aholisining 15 foizi va 13 foizi qaysi qit'alarda joylashgan?
- 7.Osiyoning aholisi eng ko'p shahri qaysi?
- 8.Aholining zichligiga qaysi omillar ta'sir etadi?
- 9.Urbanizatsiya tushunchasi nimani anglatadi?
- 10.Qadimda shaharlar qachon va qaerda paydo bo'lgan?
- 11.Qaysi mamlakatlarda shahar aholisi salmog'i yuqori?
- 12.Suburbanizatsiya ma'nosi nimani anglatadi?
- 13.Rururbanizatsiya so'zi nimani anglatadi?
- 14.SHahar aglomeratsiyasi qanday vujudga keladi?
- 15.Aglomeratsiyalar necha xil bo'ladi?
- 16.Dunyodagi eng yirik megapolislar qaysilar?
- 17.Megapolislar qanday paydo bo'ladi?
- 18.SHaharlar klassifikatsiyasi haqida gapirib bering?
- 19.SHaharlarning qanday funksional tiplari mavjud?
- 20.Nima sababdan global muammolar deyiladi?
- 21.Global muammolarga qaysilar kiradi?

### **Adabiyotlar**

- 1.Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T. : O'zbekiston. 2017.
- 2.Asanov G.R. Aholi geografiyasi. – T.: O'qituvchi. 1978. - 222 b.
- 3.Alekseev A.I. Mnogolikaya derevnya. – M. : Мысл. 1990. -255 s.
- 4.Gladkiy YU.N., Lavrov S.B. Globalnaya geografiya. M. : Arofa. 2001. 349 s.
- 5.Kadirov M.A. Samarqand viloyati aholi geografiyasi. Samarqand 2017. – 142 b.
- 6.Kovalev S.A., Kovalskaya N.YA. Geografiya naseleniya. M. : 1980. 285 s.
- 7.Lappo G.M. Goroda na puti v budushee. –M. : Мысл. 1987. – 229 s.
- 8.Narodonaselenie mira. Naselenie i ekologicheskie izmeneniya. Otchet fonda OON v oblasti narodonaseleniya. Nyu-York.2001. 90 s.
- 9.Persik E.N. Geografiya gorodov. – M.: Vysshaya shkola. 1991. – 313 s.
- 10.Soliev A.S. Проблемы населения i urbanizatsii v respublikax Sredney Azii. – T. : Fan, 1991. – 106 s.

11. Soliev A.S., Nazarov M. O‘zbekiston qishloqlari. T:Fan va texnologiya. 2009. 209 s.
12. Страны мира. Spravochnik. M., 2013. – 599 s.
13. SHuvalov E.L. Geografiya naseleniya. M., 1977. – 160 s.
14. [WWW.Wikipedia.org](http://WWW.Wikipedia.org)

## **V BOB. ʻZBEKISTON AHOLI GEOGRAFIYASI**

### **5.1. Aholi soni dinamikasi va joylanishi**

**Reja:**

1. Ўzbekiston aholi geografiasining asosiy xususiyatlari.
2. Aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar.
3. Aholining joylanishi geografiasi.

Ўzbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ta'бири bilan aytganda, "Hozirgi Ўzbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi (Karimov, 1998).

Aholini geografik o'rganish ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada hamma vaqt markaziy o'rinni egallaydi. Aholining joylashuvi turli rayonlarda o'zining hududiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aholining joylashuviga birinchi navbatda tabiiy resurslar va aholining yashash sharoiti, xo'jalikning tarmoqlar tarkibi hamda hududiy iqtisodiyotning ixtisoslashuvi, demografik jarayonlarning rivojlanishi xususiyatlari ta'sir etadi

Aholi joylashuvi masalalariga aholi joylashuvining yirik nazariyachisi V.T.Davidovich o'z diqqatini qaratgan. Aholi joylashuvining asosiy qonuniyatlari ta'rifi shu olimga tegishli bo'lib, unda ishlab chiqarish kuchlarini joylashishi va rivojlanishi, hamda guruhli aholi joylashuvi shakllarini aytib o'tgan (Davidovich, 1960, 1964 va x.k.).

Aholi joylashuvining shakllaridan biri guruhli aholi punktlari tizimi bo'lib, bu tizimlar kichik, o'rta va yirik bo'ladi. Ularning ko'lamini asosiy tizim tashkil etuvchi markaziy shahar demografik ko'rsatkichiga qarab aniqlaydi. Ular o'z navbatida hududiy tizimlarni tashkil etadi, ularning to'plami umumdavlat tizimini yaratadi. SHuningdek, ilmiy adabiyotlarda aholi joylashuvining yagona tizimi

tushunchasi mavjud. Bu tushuncha aholi geografiyasi fanida mashhur geograf olim B.S.Xorev tomonidan kiritilgan. Aholi joylashuvining yagona tizimida har xil funksiyadagi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan katta hududda joylashgan aholi punktlari to‘rlari kiradi (Xorev, 1975).

Aholi joylashuvining yagona tizimi katta hududda, aholi joylashuvining guruhli tizimlari esa shahar aglomeratsiyalari va lokal guruhli aholi punktlari bazasida shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillardan aholi va mehnat resurslari sonining tez ko‘payishi hisoblanadi. SHuning uchun bu erda mehnatni ko‘p talab qiladigan sanoat tarmoqlari va qishloq xo‘jaligi hamda keng iste’mol mollari ishlab chiqarish rivojlanmoqda. SHu bilan birga sanoatning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi aholi joylashuvi tarkibini o‘zgartiradi, bu esa o‘z navbatida sanoat korxonalarini kichik shaharlarda va qishloq joylarda joylashtiriladi. Bu joylarda kichik sanoat va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari kengayishi va rivojlanishi ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston Respublikasi aholisining o‘sish darajasi demografik rivojlanishining turli davrlarida bir xil bo‘lmagan. Masalan, 1926-1939 yillarda aholining o‘rtacha yillik o‘sishi respublikamizda 2,45%, 1939-1959 yillar mobaynida 1,25%ni tashkil etgan, bunday aholi sonining pasayishiga 2-jahon urushi oqibatlari ta’sir etgan. Aholi o‘sishining eng yuqori ko‘rsatkichlari 1959-1970 yillarga to‘g‘ri keladi va 3,45%ni tashkil etadi. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich pasayib borgan. Masalan, 1970-1979 yillarda bu raqam -3,00%ni, 1979-1995 yillarda esa yanada pasayib 2,40%ga tengdir. Bu ko‘rsatkich 2000-2014 yillarda 1,75%ni tashkil etadi. Ohirgi yillarda respublikamizda aholi sonining pasayishiga, albatta tabiiy o‘sishning pasayishi va ko‘chib ketganlarning ko‘chib kelganlarga nisbatan yuqoriligi o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Masalan, 1991 yilda aholining tabiiy o‘sishi 593 ming kishi, 2000 yilda 392 ming kishi, 2013 yilga kelib 534 ming kishini tashkil etadi.

O‘zbekiston va O‘rta Osiyo urbanizatsiyasining asosiy hududiy xususiyatlari O.B.Ata-Mirzaev, E.A.Axmedov, T.I.Raimov, X.S.Salimov, A.S.Soliev va boshqa

olimlar tomonidan chuqur tadqiqot qilingan. O‘z navbatida quyidagilarni ta’kidlash mumkin:

- shahar aholi sonining tez o‘shishi;
- ko‘pgina yangi shahar aholi punktlarining vujudga kelishi (asosan 1979-1985, 2009-2010 yillarda) qishloq aholi punktlarini mexanik ravishda shaharlarga aylanishi hisobidan;
- shahar va qishloq aholi joylari o‘rtasida aniq chegaralarning bo‘lmasligi, murakkab va chuqur integratsiyalashgan qishloq-shahar aholi joylashuvining tashkil etilishi, asosan O‘zbekistonning aholi zich joylashgan vohalari uchun xarakterlidir;
- sanoat jihatdan kam rivojlangan kichik shaharlarning mavjudligi va urbanizatsiya darajasining pastligi;
- o‘rta shaharlar va yirik aholi joylashuvi shakllarining sanoat, ijtimoiy infratuzilma jihatidan kam rivojlanganligi.

Bularning yig‘indisi va boshqa xususiyatlar O‘zbekiston Respublikasi urbanizatsiyasining o‘ziga xosligini belgilaydi. Umuman, O‘zbekistonda aholi joylashuvi asosan aholi punktlarining joylashishi va o‘shishidan hamda ularning tarkibi va kattaligidan aniqlanadi. Bu erda, hududning tabiiy geografik xususiyatlariga bog‘liq ravishda qishloq aholi punktlari notekis joylashgan. Masalan, Farg‘ona vodiysi, Toshkent va Xorazm vohalarida qishloq aholi punktlarining zichligi 100 km.kvda 20 va undan ortiqni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkichlar boshqa rayonlarda, jumladan Buxoro va Navoiy viloyatlarining cho‘l zonalarida past bo‘lib, 100 km.kv.da 3 tani tashkil etadi.

O‘zbekiston sharoitida hozirgi vaqtga kelib, aholining yarmiga yaqini qishloq aholisiga to‘g‘ri keladi. Qishloq aholisining joylashuvi qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va hududiy tarkibi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Transport va boshqa infratuzilma sohalarining rivojlanishi bilan qishloq aholi punktlarida aholi soni o‘smoqda va hududi kengayib, bu esa ularni ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aholi joylashuvi va urbanizatsiyaning yuqorida aytilgan xususiyatlari deyarli respublikaning barcha viloyatlari uchun xosdir. SHu bilan birga, aholi joylashuvini chuqurroq o‘rganish shundan dalolat berdiki, aholi punktlarini

rivojlanishi va joylanishiga tabiiy sharoitlar bilan birga xo‘jalik tarmoqlarining ixtisosligi ham ta’sir ko‘rsatgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aholi sonining o‘sishi viloyatlar miqyosida va qolaversa respublikada bir xil emas. Masalan, 1979 yilda O‘zbekistonda 15391 ming kishi yashagan, 1995 yilga kelib aholi soni 22562 ming kishiga etgan, ya’ni bu ko‘rsatkich 1979 yilga nisbatan 46,6%ga o‘sganligini ko‘rsatadi. Hozirgi vaqtga kelib, respublikamizda 31,5 mlndan (2015) ortiq kishi yashaydi va 1995 yilga nisbatan 35%ga o‘sgan. Bu yillar davomida demografik o‘shishning yuqoriligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari ajralib turadi. Bu albatta tug‘ilish darajasining yuqoriligi bilan bog‘liq. Bu asosan Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari uchun xosdir. Aholi o‘sishi jihatidan Xorazm, Namangan, Andijon, Samarqand, Sirdaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari demografik rivojlanish darajasining nisbatan sustligi bilan ajralib turadi. Aholining o‘sishi bilan aholining hududiy joylashuviga ma’lum darajada siljishlar vujudga keladi. Respublikamizda aholining zichligi juda notekis bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 1 km. kv. ga 8 kishi to‘g‘ri kelsa, Farg‘ona vodiysida bu ko‘rsatkich 478 kishini tashkil etadi. Ba’zi vohalarda va aholi zich joylashgan joylarda demografik ko‘rsatkichlarning yuqoriligi saqlangan bo‘lib, bu O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sir etmasdan qo‘ymaydi.

Aholi hududiy joylashuvini o‘rganish shundan dalolat beradiki, ba’zi viloyatlar ulushi demografik o‘shishining yuqori ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadi.

**46-jadval**  
**O‘zbekiston Respublikasi aholisi sonining hududiy tarkibidagi o‘zgarishlar**

<b>Viloyatlar nomi</b>	<b>1995 yil ming kishi</b>	<b>%</b>	<b>2014 yil ming kishi</b>	<b>%</b>	<b>1995-2014 yillardagi o‘zgarishlar ming kishi</b>	<b>%</b>
O‘zbekiston Respublikasi	22562	100	30493	100	+7931	00
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1397	6,2	1736	5,7	+339	-0,5
Andijon	1993	8,8	2805	9,2	+812	+0,4
Buxoro	1315	5,9	1759	5,7	+441	-0,2



Jizzax	871	3,9	1226	4,1	+355	+0,2
Qashqadaryo	1918	8,5	2895	9,5	+977	+1,0
Namangan	1741	7,7	2504	8,2	+763	+0,5
Navoiy	734	3,2	901	2,9	+167	-0,3
Samarqand	2432	10,8	3446	11,3	+1014	-0,5
Surxondaryo	1536	6,8	2308	7,6	+772	+0,8
Sirdaryo	626	2,8	764	2,6	+138	-0,2
Toshkent	2240	9,9	2727	8,9	+487	-1,0
Farg‘ona	2444	10,8	3387	11,1	+943	+0,3
Xorazm	1198	5,3	1685	5,5	+487	+0,2
Toshkent sh.	2117	9,4	2353	7,7	+236	-1,7

Jadval O‘z.R davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, ba’zi viloyatlar ulushi respublikamiz aholisining hududiy tarkibida demografik o‘shning yuqori ko‘rsatkichlari asosida o‘sgan. Aholi tabiiy o‘shining yuqoriligi bilan Qashqadaryo, Namangan, Surxondaryo, Andijon, Farg‘ona, Xorazm va Jizzax viloyatlari ajralib turadi.

Viloyatlar ichida 1995-2014 yillar mobaynida aholi ulushining kamayishi asosan Toshkent viloyati va Toshkent shahrida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Samarqand viloyatida kuzatilgan. Bundan tashqari Buxoro, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari aholisining ulushi boshqa viloyatlarga nisbatan pastroq ko‘rsatkichga egadir.

SHunday qilib, O‘zbekiston aholisining hududiy joylashuvi va o‘sh xususiyatlari birinchi navbatda bu erda demografik rivojlanishining yuqori darajasi saqlanib qolganligi va so‘nggi yillarda bir muncha ba’zi viloyatlarda susayganligini ko‘rishimiz mumkin. SHuningdek, aholining o‘shini faqatgina uning qayta ko‘payishining yuqoriligi hisobidan ekanligi hamda rayonlararo migratsiya rolining kamligi va boshqalardir.

O‘zbekiston hududining kattaligi tufayli uning tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi imkoniyatlari har xil bo‘lishiga tasir etgan. SHuning uchun ham, mamlakatimiz bo‘yicha aholijoylashuvining o‘rtacha zichligi 2014 yil malumotiga ko‘ra 1km.kv.da 68 kishi to‘g‘ri kelsa, u Navoiy viloyatida 8,1 kishi, Andijon viloyatida 652,4 kishiga teng. Ma’lumki, aholi qadimdan suv manbalari

bor joylarda yaqin joylashgan. SHuning uchun mamlakatimizning vodiy vohalarida aholi zichligi yuqori hisoblanadi. Masalan, bu ko'rsatkich Farg'onada 500,9, Namanganda 336,6, Xorazm viloyatida 278,3 kishini tashkil qiladi. O'zbekiston viloyatlari ichida Navoiy viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi zichligi eng past bo'lib, bu erlarda aholi zichligi 8-10 kishiga tengdir. SHuningdek, Buxoro, Jizzah, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ham aholi zichligi past ko'rsatkichlarga ega, lekin qadimdan sug'orilib keladigan hududlarida, jumladan Vobkent, SHofirkon, SHaxrisabz, YAKkabog' va boshqa tumanlarida aholi zich joylashgan. Samarqand, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarida aholi zichligi o'rtacha ko'rsatkichga ega bo'lib, bu erda zichlik 180-200 kishini tashkil etadi.

2013 yil malumotiga binoan, O'zbekistonning 51,2 % aholisi shahar joylariga to'g'ri keladi. SHahar aholisining o'sish surati ayniqsa 70-80 yillarda yuqori bo'lgan. Bunga sabab 1972 yilda aholi punktlarining shahar maqomiga o'tkazish uchun talab etiladigan eng kam aholi miqdori 10 mingdan 7 mingtagacha tushirilishi va buning oqibatida shaharlar sonining nihoyatda tez ko'payishidir (agar 1970 yilda respublikada 42 shahar mavjud bo'lsa, 1979 yilda ularning soni 90 taga etgan). 1989-2009 yillarda shaharliklar sonining o'sishi ancha susaygan. Natijada, umumiy urbanizatsiya ko'rsatkichi 40,7% dan 35,8% ga tushib qolgan. Viloyatlar darajasida mazkur jarayon ayniqsa Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Xorazm sezilarli bo'lgan va u faqat Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax hamda Namangan viloyatlarida birmuncha ko'tarilgan. 2009 yilni respublikamizda "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb elon qilinishi munosabati bilan urbanistik vaziyatda keskin o'zgarish yuz berdi. YAngi urbanistik siyosat tufayli O'zbekistonda birdaniga 966 qishloq aholi punktiga shaharga maqomi berildi. Ularning hozirgi real holatini hisobga olib, "agrosaharlar" deb atash mumkin (Soliev, 2014).

## **5.2. Aholining tabiiy va mexanik o'sishi**

## **Reja:**

1. Aholining tugʻilishi, oʻlimi va tabiiy xarakati.
2. Aholining mexanik harakati

Aholini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanida oʻrganishda uch asosiy xususiyati eʼtiborga olinishi zarur. Aholi- ishlab chiqaruvchi kuch (aholining iqtisodiy funksiyasi). Aholi – asosiy istimolchi (ijtimoiy funksiyasi). Aholini oʻz-oʻzini takror barpo boʻlishi (demografik jihati) (Soliev 2013).

Oʻzbekiston Respublikasi aholisi soni faqatgina oʻz-oʻzini takror barpo qilishi orqali koʻpayib bormoqda. Respublikamiz aholi soni boʻyicha dunyo miqyosida oʻrtacha demografik salohiyatiga ega boʻlgan davlat hisoblandi. Oʻzbekiston aholisi MDH orasida Rossiya va Ukrainadan keyin uchinchi va Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi oʻrinni egallaydi. Masalan Oʻzbekistonda 1865- yilda 3,3 mln aholi yashagan boʻlsa, Tojikistonda 86 ming Qirgʻizistonda 547 ming Turkmanistonda esa 637 ming kishi yashagan. Qariyb 100 yildan keyin, yaʼni 1966 yilda bu koʻrsatkich Oʻzbekistonda 10,7 mln. Tojikistonda 2,6 mln., Qirgʻizistonda 2,7 mln, Turkmanistonda esa 1,9 mln. kishiga etgan. Oʻzbekistonda aholining tez suʼratlar bilan oʻsishi, avvalo tabiiy oʻsishning ham yuqoriligi hisobidandir. Bu esa respublika aholisonining hududiy oʻziga xosligini koʻrsatadi. Bu erda tugʻilish koeffitsientining yuqoriligi va nisbatan oʻlim chegarasining pastligi Oʻzbekistonda aholi sonining tez oʻsishini taminlaydi. Respublikamizda 1897-yilda oʻtkazilgan Umumrossiya aholi roʻyxati maʼlumotiga koʻra hozirgi respublikamiz hududida 3948 ming kishi 1913-yilda esa 4331ming kishi yashagan. 1926-yilda aholi roʻyxatiga koʻra bu erda 4629 ming kishi istiqomat qilgan va aholi soni oʻrtacha 2,1ming kishidan ortib borgan. 1939-yil aholi roʻyxati maʼlumotlariga binoan 6347 ming kishini tashkil etgan. Keyingi 1970-1979-yillarda respublikamiz aholisi 11774 ming kishidan 15389 ming kishiga etgan. Sobiq Ittifoqda oʻtkazilgan soʻngi aholi roʻyxati 1989-yilda Oʻzbekistonda 19780 ming kishi yashagan. 1979-1989-yillar oraligʻida yillik oʻrtacha oʻsish 2,55%ni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgandan so‘ng, milliy iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o‘tishi tufayli aholi sonining o‘sishi sustlashgan. Masalan, 1989-2000-yillarda o‘rtacha yillik ko‘payish 1,95% ni tashkil etgan. 2001-2003-yillar moboynida aholining o‘sishi yanada pasayib yillik o‘sish 1,50%ni tashkil etgan.

YUqorida aytilganidek, O‘zbekiston aholisi asosan tabiiy o‘sh natijasida ko‘payib boradi. Respublikamizda aholining tug‘ilish va tabiiy o‘sh hamma vaqt yuqori bo‘lgan, faqatgina so‘nggi yillarda bu ko‘rsatkichlar keskin pasaygan. A.S.Solievning yozishicha O‘zbekistonda tug‘ilish 1990-yilda 33,7‰ teng bo‘lgan holda, 1999-yilda u birdaniga 22,3 ‰ ga tushib ketgan; ya’ni bu qisqa davrda mazkur ko‘rsatkich 1,5 martaga pasaygan. 2013-yilda har ming kishiga nisbatan tug‘ilish 21,4, o‘lim 4,9 va tabiiy o‘sh 16,5 kishini tashkil etgan. O‘lim darajasida keskin o‘zgarishlar bo‘lmaganligi sababli, aholining tabiiy ko‘payishi asosan uning tug‘ilish ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

52-jadval shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda 1897 yilda aholining tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan, shuningdek o‘lim darajasi ham balanddir, shuning uchun tabiiy o‘sh bor yo‘g‘i 5 ‰ ni tashkil etgan. 1917- yilga kelib tug‘ilganlar 48,5, o‘lganlar 41,6 va 6,6 ‰ ga teng. 1926- yil aholi ro‘yxatiga ko‘ra, tug‘ilish darajasi yuqoriligi saqlangan, ya’ni o‘lim darajasi ancha pasayib 22,5 ‰ni tashkil etganligi uchun tabiiy o‘sh ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan. Respublikamizda 1985-yilga qadar aholining tabiiy o‘shini yuqori bo‘lib borgan va bu yilda aholining tabiiy o‘shini 30,1‰ni tashkil etgan. 1990-yildan boshlab esa, aholinig tug‘ilish va tabiiy o‘shini yana pasayib borgan.

47-jadval

**O‘zbekiston aholisining tabiiy o‘shini (1000 kishi hisobida)**

Yillar	Tug‘ilganlar	O‘lganlar	Tabiiy o‘sh
--------	--------------	-----------	-------------

1897	49.8	44.8	5.0
1917	48.5	41.9	6.6
1926	41.5	22.5	19.0
1950	30.9	8.8	22.1
1980	33.9	7.5	26.4
1985	37.4	7.3	30.1
1990	23.7	6.1	27.6
1995	29.8	6.4	23.4
2000	21.3	5.5	15.8
2005	20.3	5.4	14.9
2007	22.4	5.2	17.2
2014	16.9	5.3	11.6

Jadval: O.B. Ata-Mirzaev tomonidan tuzilgan

O‘zbekiston sharoitida kichik shaharlarning ko‘pchiligida real demokratik vaziyat oddiy qishloqlardagi xolatlariga o‘xshab ketadi. Ammo, shu bilan birga ta’kidlash lozimki, ba’zi bir yuqori darajada sanoatlashgan shaharlarda tug‘ilish darajasi ancha past. CHunonchi, mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, tug‘ilish har 1000 aholiga CHirchiq, YAngiobod, Kogon kabi shaharlarda 12-13 kishi atrofida. Hatto tipik sharqona shaharlarimizda Samarqand, Buxoro, Qo‘qon va boshqalarda mazkur ko‘rsatkich 14-15% ga teng. Natijada, aholining tabiiy ko‘payishi ancha kam –CHirchiq yoki YAngiobodda u 5% ga ham etmaydi. Albatta, bunday demokratik vaziyat respublikamiz uchun uncha an’anaviy emas. Bu, o‘z navbatida, demokratik jarayonlarda o‘ziga xos o‘tish davri kelayotganligidan dalolat beradi. Tabiiyki, bu jarayonlar, yaqin kelajakda mehnat resurslarining shakllanishiga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga o‘z ta’sirini ko‘rsatish mumkin (Soliev, 2014).

Respublikamiz viloyatlari orasida Surxandaryo va Qashqadaryoda aholining tug‘ilish va tabiiy o‘sinh ko‘rsatkichlari yuqoridir, bunga asosiy sabablardan biri, bu viloyatlarda qishloq aholisi salmog‘i ko‘pligidadir. Aholining tug‘ilishi va tabiiy o‘sishi past darajalari bilan Toshkent va Navoiy viloyatlari ajralib turadi.

O‘zbekiston Respublikasi aholi soniga aholining mehanik harakati ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 1970-1980-yillardan boshlab, hozirga qadar aholi migratsiyasi manfiy hisoblanadi. Bir vaqtlar O‘zbekistonga ko‘chib kelganlarning yana o‘z vatanlariga qaytib ketishlari va vatandoshlarimizni boshqa

chet mamlakatlarga ishga borganligi tufayli migratsiya salmog‘i manfiy bo‘lib qolgan.

**48-jadval**

**O‘zbekistonda aholi migratsiyasi (1000 kishi hisobida)**

<b>Yillar</b>	<b>Kelganlar</b>	<b>Ketganlar</b>	<b>Migratsiya saldos</b>
1991	371,0	401,2	-30,2
1995	167,8	256,8	-89,0
2000	145,8	212,4	-66,6
2005	144,7	246,3	-101,6
2010	139,7	183,8	-44,1
2012	136,5	184,1	-47,6
2013	169,7	210,6	-40,9
2014	145,3	183,9	-38,6

Manba: www.stat.uz.

SHu bilan birga, keluvchilar soni muntazam ravishda 2013-yilga qadar kamayib borgan. Masalan, respublikamizda kelganlarning eng ko‘p miqdori 1991-yilda kuzatilgan bo‘lib, shu yili 371 ming kishi kelgan bo‘lsa, biroq shu yilda ketganlarning soni ulardan ham ko‘p bo‘lib, 401 ming kishini tashkil etadi. Buning natijasida 1991-yilgi migratsiya saldos-30,2 ming kishiga tengdir. Bu ko‘rsatkich 1995-yilga kelib, 89 ming, 2005-yilda esa -101 ming, 2014-yilda 38 ming kishini tashkil etgan. Aholi migratsiyasi jadvalidan ko‘rinib turibdiki, 1991-2014 yillar oralig‘ida migratsiya saldos manfiydir. L.P.Maksakova va O.B.Ota-Mirzaev ma’lumotlariga qaraganda, 1991-1997 yillarda respublika shahar joylari bo‘yicha netto-migratsiya, ya’ni sof salbiy migratsiya qoldig‘i rus millatiga mansub bo‘lganlarda 302 ming tatarlarda 95, yahudiylarda 50, ukrainlarda 28, nemislarda 20 ming kishini tashkil etadi. Ketuvchilarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston, Ukraina va Qozog‘iston davlatlari bilan ham bo‘lgan aholi aloqalarida ancha ko‘p manfiy migratsiya qoldig‘iga egadir (Soliev, 2014).

Ma'lumki, boshqa millatlarga mansub bo'lgan kishilarda respublikamiz shaharlarida, yashab kelishgan, shuning uchun ham tashqi migratsiyada asosan tub joy aholisi bo'lmagan xalqlar qatnashadi. Aholining tabiiy va mexanik harakatlari aholining millat, yosh-jinsiy tarkibi va mehnat resurslari salmog'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

### 5.3. Aholining milliy, yosh-jinsiy tarkibi va mehnat resurslari

#### Reja:

1. Aholining milliy tarkibi.
2. Aholining yosh-jinsiy tarkibi.
3. Mehnat resurslari.

Ўzbekiston Respublikasi aholisining milliy tarkibi uzoq davom etgan tarixiy davr rivojlanishi bilan bog'liq. Uning tashkil topishi turli tarixiy voqealar Buyuk Ipak Yo'lining kesib o'tganligi mo'g'ullar arablar ruslar va boshqalarning bosib olinishi, respublikamizning mustakillikka erishishi va boshqalar bilan bog'liqdir. Bu jihatdan Ўzbekiston tarixiy geografik va etnografik tadqiqotlar respublikaning o'ziga xos, boshqa jihatlardan farq qiladigan aholisining milliy tarkibiga va turli xalqlarning joylashishiga sababchi bo'lgan. SHu bilan birga aholining tabiiy va mexanik harakatidagi o'zgarishlar uning milliy tarkibiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ўzbekiston ko'p millatli mamlakatlar bu erda 100dan ortik millat va elatlar yashaydi.

#### 49-jadval

#### Ўzbekiston aholisining milliy tarkibi (% hisobida)

Millatlar	1897	1926	1939	1959	1970	1979	1989
Ўzbeklar	64,4	66,0	65,0	62,2	65,5	68,7	71,4
Tojiklar	7,4	18,4	5,1	3,98	3,8	3,9	4,7
Qozoqlar	6,5	2,0	4,8	4,1	4,0	4,0	4,1
Kirg'izlar	3,4	1,7	1,4	1,1	0,9	1,1	1,0
Qoraqalpoqlar	4,0	0,5	2,8	2,1	1,9	1,9	2,1
Ruslar	1,9	4,7	11,5	13,4	12,5	10,8	8,3
Boshqalar	12,4	6,7	9,4	13,3	11,4	9,6	8,4

Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
------	-------	-------	-------	-------	-------	-------	-------

*Izoh: Buxoro amirligi va Xiva xonligidan tashqari*

Jadval O.B.Ata-Mirzaev tomonidan tuzilgan. Narodnoe slovo Uzbekistana T.2009.

Jadvaldan kurinib turibdiki Ўzbekiston aholisining milliy tarkibi 1897-yilda o‘zbeklar salmog‘i 64,4% ni tojiklar 7,4% qozoqlar 6,5% ni tashkil etgan, bu vaqtda ruslar kam bo‘lgan (1,9% ga teng bulgan). 1897-yil Umumrossiya aholi ro‘yxati o‘tkazilgan paytda Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi hisobga olinmagan. Ўzbekiston hududini to‘la qamrab olgan birinchigi aholi o‘tkazilgan. 1926 yil ma’lumotiga ko‘ra, o‘zbeklar 66% ni, tojiklar 18,4% ni, bu vaktida ruslar salmog‘i ham pasayib 4,7%ni tashkil qilgan. Jadvalda sobiq ittifok tomonidan o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan bo‘lib, 1939-yilda respublikamizning aholisini 65%ni o‘zbeklar, 11,5% ruslar xissasiga to‘g‘ri kelgan. Bu yilda ruslar Ўzbekistonga ko‘p ko‘chib kelishi sababchi bulgan. Keyingi yillar 1959, 1970, 1979 yillarda ham o‘zbeklar va ruslar salmog‘i yuqoridir. 1989-yilga kelib ruslar salmog‘i ozgina kamayib, bu yil ular salmog‘i 8,3% ni tashkil etgan, o‘zbeklar salmog‘i esa ko‘payib, ularning xissasi 71,4% ga teng. Ўzbekistonda o‘zbeklar, tojiklar, ruslar bilan birga qozoqlar, kirg‘izlar, qoraqalpoqlar, tatarlar, koreyslar, ukrainlar turkmanlar, yaxudiylar, armanlar, ozorboyjonlar, nemislar va boshqalar yashaydi. Jadvalda ko‘rilganidek, boshqa millatlar 1897-yilda 12,4%ni tashkil etilgan keyingi 1926, 1939-yillarda ularning salmog‘i biroz kamaygan, lekin 1959, 1970-yillarda boshqa millatlar salmog‘i yana oshgan, 1989-yilga kelib boshqa millatlar salmog‘i kamayib 8,3%ga teng bo‘lgan, ya’ni ularning ko‘pchiligi o‘z vatanlariga ko‘chib ketgan.

50-jadval

Ўzbekiston aholisining milliy tarkibi (% hisobida, 2013)

	Jami aholi:	o‘zbeklar	korakalpoklar	tojiklar	qozoqlar	ruslar	kirgizlar	turkmanlar	tatarlar	koreyslar	ukrainlar	Boshqa millatlar
Ўzbekiston	100,0	82,9	2,2	4,9	2,8	2,7	0,9	0,6	0,7	0,6	0,3	1,5



Respublikasi												
Qoraqalpog'iston Respublikasi	100,0	39,0	36,5	0,01	17,2	0,6	0,1	5,2	0,3	0,4	0,1	0,6
<i>Viloyatlar:</i>												
Andijon	100,0	92,4	0,01	1,3	0,03	0,7	3,6	0,01	0,3	0,1	0,1	1,4
Buxoro	100,0	91,3	0,1	3,3	1,1	1,6	0,0	0,6	0,7	0,1	0,2	1,0
Jizzax	100,0	88,5	0,01	2,4	2,4	1,3	3,1	0,04	0,6	0,2	0,1	1,3
Navoiy	100,0	85,7	2,4	1,5	4,6	2,6	0,1	0,1	0,9	0,1	0,2	1,9
Namangan	100,0	88,8	0,0	8,8	0,03	0,5	0,9	0,02	0,1	0,1	0,03	0,7
Samarkand	100,0	87,3	0,03	7,7	0,1	1,5	0,01	0,05	0,0	0,1	0,3	3,0
Sirdaryo	100,0	77,4	0,02	9,3	1,8	3,3	2,1	0,1	0,9	1,1	0,1	3,9
Surxandaryo	100,0	84,2	0,01	12,4	0,1	1,0	0,01	1,3	0,3	0,03	0,2	0,4
Toshkent	100,0	67,3	0,1	5,4	12,6	5,6	0,6	0,1	1,6	2,8	0,4	3,5
Fargona	100,0	89,0	0,03	5,8	0,03	1,4	2,0	0,01	0,1	0,2	0,2	1,2
Xorazm	100,0	97,5	0,1	0,02	0,7	0,4	0,0	0,5	0,3	0,3	0,1	0,2
Kashkadaryo	100,0	92,3	0,01	4,3	0,1	0,8	0,01	1,1	0,3	0,04	0,1	0,9
Toshkent sh.	100,0	68,8	0,3	1,2	2,0	16,2	0,1	0,1	4,1	2,7	1,3	3,4

Jadval ŶzR Davlat statistika kumitasi ma'lumotlariga asosida A.S.Soliev tomonidan hisoblab chikilgan.

Ŷzbekiston Respublikasi mustakillikka erishgandan keyin uning ilmiy tarkibida ham katta o'zgarishlar bo'ldi. Ŷzbekistonning tub aholisi bulmagan millatlarning asosiy kismi uz yurtlariga kuchib ketdi. Natijada 2013 yil malumotiga kura, o'zbeklar salmog'i 82,9%ni, tojiklar 2,8% ruslar 2,7%ni tashkil etdi. Kolgan millatlar ozchilik xisoblanadi, respublikamiz viloyatlari bo'yicha millatlar salmog'i har xil taksimlangan. Masalan o'zbeklar salmog'i Andijon, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlarida yuqori bo'lib, bu viloyatlarda 90%dan ortik kismni o'zbeklar to'g'ri keladi. O'zbeklar salmog'i kamligi bilan Toshkent, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari ajralib turadi. Toshkent viloyatida o'zbeklar 67,3% ni Sirdaryoda 77,4% Navoiyda 85,7%ni tashkil etadi. Tojiklar salmog'ining ko'pchiligi bilan Surxondaryo 12,4%, Namangan 8,8%, Samarkand 7,7%, Sirdaryo 9,3% ni boshqalar ajralib turadi. Tojiklar Ŷzbekistonning hamma viloyatlarida yashaydi. Tojiklar salmog'i faqat Xorazm viloyatida kam. Ruslar salmog'i Toshkent, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida yuqoriroq hisoblanadi. Ruslar Toshkentda 5,6%, Sirdaryoda 3,3%, Navoiyda 2,6% ni tashkil etadi. SHuningdek, Toshkent viloyatida qozoqlar salmog'i ham yuqori bo'lib, ular xissasi 12,6%ga teng. Qozoqlar Navoiy, Jizzax viloyatlarida ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Aholini ijtimoiy-geografik jihatdan o'rganishda uning yosh-jinsiy tarkibini o'rganish muhim xisoblanadi. Aholini yosh-jinsiy tarkibini o'rganish mehnat resurslari sonini, kelajakda ularning o'sishi bilishda, ishlab-chikarish kuchlarini to'g'ri joylashtirishda ahamiyati kattadir. Bundan tashkari, nomoddiy ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tashqi-tarbiya va boshqa sohalar istiqbolini belgilashda va boshqalar uchun muhim hisoblanadi. Y'zbekiston aholisining jinsiy tarkibi xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, boshqa Y'rta Osiyo mamlakatlari demografik jarayonlariga o'xshashligi mavjud. Biroq har bir mamlakatlar orasida hududiy tafovutlar ham mavjud.

### 51-jadval

#### Y'zbekiston aholisining jinsiy tarkibi dinamikasi

Yillar	Erkaklar		Ayollar	
	Ming kishi (foizda)		Ming kishi (foizda)	
1939	3278	52	3069	48
1959	3897	48	4222	52
1970	5744	49	6055	51
1979	7558	49	7833	51
1989	9824	49	10082	51
1995	11177	49	11385	51
2016	15839	49,8	15736	50,2

Manba: Mullyadjanov N.R. Demografichiskoe nazvitie. Uzbekistana-T.1983

Y'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yildagi «Aholi soni tanlama statistik kuzatuvini tayyorlash va o'tkazish chora tadbirlarini to'g'risidagi 71-sonli karori» asosida o'tkazilgan natijalari bo'yicha taqdimotlar shundan dalolat beradiki, 1939-yilda respublika aholisining 52%ni erkaklar 48% ni ayollar tashkil etgan. 20 yildan so'ng ya'ni 1959-yil aholi ro'yxatiga ko'ra, bu ko'rsatkich erkaklar 48% ni ayollar 52% ga teng bo'lgan. Malumki, bunga sabab, ikkinchi jahon urushidir. Respublikamizning jinsiy tarkibi o'sishi asta-sekin keyingi yillarda tenglashib borgan, jumladan 1979-yilda erkaklar 49%ni ayollar 51%ni 1989, 1995-yillarda ham bu ko'rsatkich o'zgarmagan. 2016-yilgi ma'lumotiga

ko'ra esa erkaklar -49,8% ni ayollar, 50,2% ni tashkil etgan. Bu shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan ancha kam tug'ilgan.

